

B.SH. AKRAMOV, O.G'. HAYITOV

**NEFT VA GAZNI  
TOZALASH  
ASBOB-USKUNALARI**



old. 24  
d-29

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

B.SH. AKRAMOV, O.G. HAYITOV

## NEFT VA GAZNI TOZALASH ASBOB-USKUNALARI

*Kasb-hunar kollejlari uchun  
o'quv qo'llanma*

TOSHKENT  
«TALQIN»  
2007

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
ning oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik bir  
lashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan na-  
shrga tavsiya etilgan.

### Taqrizchilar:

J. Sharopov — O'zLITINeftgaz instituti sektor mudiri;  
U.D. Nurmatov — TDTU dotsenti.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi neft va gaz sanoati uchun malakali  
mutaxassislar tayyorlashda «Neft va gazni tozalash asbob-uskunalar»  
fanning alohida o'rni bor va bu fan talabalarga ixtisoslik fanlarini  
chiquq o'zlashtirishga, qaysi usul bilan ishlab chiqarish intensivligi  
o'shirish va texnologik qurilmalardan unumli foydalanimishni o'rga-  
radi hamda zamonaviy texnikaning rivojlanish istiqbollarini hisobga  
o'gan holda malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, neft va gazni qayta ishslash  
sanoatida keskin o'zgarishlar ro'y berdi va yangi texnologiyalar amal  
da qo'llanib, rivojiana boshladi. Bunday o'zgarishlar esa jarayon va  
qurilmalr haqidagi fanni yanada yuqori darajaga ko'tarilishiga  
sababchi bo'ldi. Ushbu fanning bunday yuqori saviyaga ko'tarilishiga  
hisoblash texnikasining gurkirab rivojlanishi ham alohida o'rin  
egallaydi, chunki bu jarayon va qurilmalarni o'rganish, modellash-  
ish va hisoblash ishlari misli ko'rilmagan imkoniyatlari yaratdi.

Tavsiya etilayotgan o'quv qo'llanma fanning tasdiqlangan das-  
tariga binoan tuzilgan bo'lib, talabalarning fizika, kimyo, matema-  
tika, issiqlik va sovitish texnikasi va boshqa fanlardan o'zlashtirgan  
bilimlari hisobga olgan.

Qo'llanmaning birinchi qismida respublikada yoqilg'i sanoati  
rivojlanishi, neft va gazning paydo bo'lishi va ularning asosiy fizikaviy  
xossalari, ularni yig'ish va tayyorlash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Bu masalalarni o'rganish neft va gazni tozalash jihozlarini  
tanlaah uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### B. Akramov, O. Hayitov.

Neft va gazni tozalash asbob-uskunalari. Kasb-hunar kollejlari  
uchun. O'quv qo'llanma. T.: «Talqin», 2007, — 104 b.

Ushbu qo'llanmada tozalanishi lozim bo'lgan uglevodorod xomashyo  
— neft va gaz, ularning paydo bo'lishi va asosiy fizikaviy xossalari, ularni  
yig'ish va tayyorlash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, neft  
va gazni tozalash jihozlarini sinflash va hisoblash usullari bayon etilgan.

ISBN 978-9943-325-07-4

© «Talqin» nashriyoti, 2007-y.



## NEFT VA GAZNING XALQ XO'JALIGIDA TUTGAN O'RNI

Neft va gaz insoniyatga juda qadimdan ma'lum bo'lib, ulardan olinadigan mahsulotlarning xalq xo'jaligida tutgan o'rni hamda ularga bo'lgan talab yil sayin ortib bormoqda.

1860-yilda dunyo miqyosida ishlatalgan energiyaning 74 foizi o'tin va surragatlar (yoqilg'ining sun'iy turlari: pista ko'mir, torf, yonuvchi slanes, tezak va b.) dan, 24,7 % ko'mirdan va 1 % neftdan (tabiiy gaz bilan birga) olingan. Ko'rinish turibdiki, o'sha vaqtida neftning salmog'i umumiyligi mijqdoridan juda kam, gazniki esa deyarlik yo'q bo'lgan. 1900-yilga kelib o'tin va surragatlar salmog'i 57,6 % ni tashkil etib, 39 foizi ko'mirdan olinadi; neftning salmog'i 2,3 % ga yetib, yonuvchi gazniki esa 0,9 % ni tashkil etadi. Shundan so'ng energiya manbayi sifatida ko'mirning salmog'i tez o'sa boshladi va 1910-yilda butun energiyaning 65 % ko'mirga to'g'ri keldi, o'tin 16 %, o'simlik va hayvonot chiqindilari — surragatlar 16 %, neft 3 % ni tashkil etdi. Tabiiy gazdan o'sha davrda foydalilmagan.

1930-yillarga kelib ahvol o'zara boshladi, ko'mirning energiya manbayi sifatidagi salmog'i 50 % ga tushdi, neftniki esa 15 % ga yetdi, gaz ham ishlatalta boshlangan va u 3 % ni tashkil qilgan. Qolganlari gidroenergiya, o'tin va surragatlarga to'g'ri kelgan.

1970-yillarga kelib butun dunyo energiya balansida neft 34 %, gaz 18 %, ko'mir 32 %, o'tin 10 %, energiyaning boshqa manbalari 6 % ni tashkil etdi.

1998-yilda dunyo bo'yicha energiya manbalari quydagicha taqsimlangan: neft — 39 %, gaz — 22 %, ko'mir — 26 %, gidroelektrostantsiyalar — 7 %, atom elektrostansiyalar — 6 %. Ko'rinish turibdiki, neft va gaz jami energiya manbalarining 61 % ini tashkil qilmoqda.

O'zbekistonda birlamchi energiya ishlab chiqarishda neft va tabiiy gazning ulushi nihoyatda yuqori: tabiiy gaz — 83 %; neft — 13 %, ko'mir — 3 %, gidroenergiya — 1 % ni tashkil etadi.

Bunday holat bugungi kunda energetika sohasida yoqilg'i energiya ishlab chiqaruvchi manbalar strukturasini jahon amaliyotiga mos keladigan holatda rivojlantirishni talab etadi. Chunki, neft va tabiiy gazning o'rni qaytadan to'lib boraveradigan manba emas.

Neft va gaz birlamchi energiya ishlab chiqaruvchi yonilg'i sifatida ishlatalishi bilan bir qatorda ular tarkibidan etan, etilen, polietilen, etil spirti, asitelen, propan, propilen, polipropilen, plastik massalar, butan, butilen, izobutan, butadiyen, sintetik kauchuk, benzol, atseton, turli eritmalar, sun'iy tolalar, oltingugurt, qorakuya va yana ko'plab shu kabi mahsulotlar olinadi. Bugungi kunga kelib tabiyyi gazzlardan olinayotgan mahsulotlarning turlari kundan-kunga ortib bormoqda. 1 tonna sintetik kauchuk olish uchun 2 tonna etil spirti yoki 9 tonna benzol, yo' 22 tonna kartoshka yoki 30 tonna qand lavlagi kerak bo'ladi. Usbu mahsulotlarni 5 tonna suyu tilirilgan gazdan ham olish mumkin, uning tannarxi, boshqa mahsulotlardan olinganiga nisbatan ancha qiz qiladi. Bunday qulaylik boshqa moddalar olishda ham kuzatiladi.

## NEFT VA TABIIY GAZNING PAYDO BO'LISHI

Neft va tabiiy gazning tabiatda hosil bo'lishi haqidagi muammo XVII asidan boshlangan bo'lsa-da, shu kunga qadar u o'z yechimini uzil-kesil tajqani yo'q. O'tgan davr mobaynidagi o'tkazilgan tadqiqotlar natijasini umumlaqtirgan holda bu yo'nalishdagi farazlarni ba'zi bir ekzotik qanashlardan tashqari, quyidagi uch yirik guruuga bo'lish mumkin:

- 1) Organik;
- 2) Noorganik;
- 3) Mikstgenetik.

**Organik farazda** neft biosferadagi organik moddalarning qayta o'zgarishidan hosil bo'lgan mahsulot deb hisoblanadi. Unga ko'ra, tirk organizmlar (hayvonot va o'simlik dunyosi) geologik o'tmishda sho'kindi tog' jinslarda qatlangandan so'ng, ularning molekular tuzilishi qayta o'zgarishidan neft hosil bo'ladi. Molekular qayta o'zgargan mahsulotlar bilan neft orasida o'zaro molekular bog'liqlik va o'xshashlik borligi, uglevodorodning, umuman neftning tarkibida azot, oltingugurtli va metalloorganik birikmalarning molekular tuzilishi va tarkibi o'ziga xos xususiyatlariiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, organik moddalarning molekular tuzilishi bilan genetik o'xshashligi tasdiqlandi, bu o'z navbatida neftni noorganik sintez yo'lli bilan hosil bo'la olmasligini ko'rsatdi. Organik moddalar va neft uchun umumiyligi bo'lgan muhim xususiyatlaridan biri — ularning optik faolligidir. Neftning optik faolligi triterpan va steran tipidagi uglevodorodlar bilan bog'liq, bunga gopan ( $C_{27}N_{46}$ ) misol bo'la oladi. Uning molekular tuzilishida organik moddalar (dengiz suvo'tlari, bakteriyalar) ga xos to'rtta geksanaften halqlar qatnashadi.

1888-yilda nemis olimlari G. Gefer va K. Engler hayvonot qoldigilaridan neft olish mumkinligini laboratoriya usulida isbot qildilar.

Ular 400° C temperatura va 10 atmosfera bosim ostida seld yog'ini haydab, undan har xil mahsulot va gaz olishga tuyassar bo'ldilar.

1919-yilda xuddi shunday tajribani akademik N.D. Zelinskiy qayta amalga oshirib, o'simlik qoldig'idan shunga o'xhash mahsulotlarni olgan.

Neftning organik moddalardan hosil bo'lishining muhim xususiyatlaridan biri, unda son-sanoqsiz «molekular qazilmalar» — xemofossilarning bo'lishi, ya'ni bioorganik moddalardan meros bo'lib o'tgan molekular strukturalardan iboratligidir. Neftni mukammal o'rganish, uning tarkibida aniqlanilayotgan xemofossillar sonining oshishiga olib kelmoqda. Xemofossillar miqdori neft tarkibida 30—40 % gacha yetishi mumkin deb hisoblanmoqda. Neftning muhim biogen belgilariidan biri, tirik modda xususiyatiga ega izoprenoidli uglevodorodlardan, ayniqsa, fitan va pristanlardan tarkib topganligidir. Pristan ayrim hayvonlar tanasida uchraydi. Uglevodorodlarning har bir turi organik sintezning yuqori bosqichida sun'iy sintez yordamida olinadi. Uning sintezi tabiiy sharoitlarda ham sodir bo'ladi.  $C_{20}H_{42}$  uglevodorodi nazariy jihatdan 366—319 izomerli strukturaga ega, ammo neftda ko'p miqdorda ulardan biri — tirik moddadan iborat fitan qatnashadi. Meros biogen strukturalarga ko'plab n-alkanlar ( $C_{17}$  va undan yuqori) kiradi, ular uzun zanjirlri kislorodga boy biokimyoiy birikmalar — mumlarning termokatalizidan vujudga keladi. Neftdagi miqdori 10—15 %, ba'zan 40 % gachadir. Biogen yog'li kislotalardan hosil bo'ladigan n-alkanlar «tog» parafinlar «juft»lariga nisbatan ko'p bo'ladi.

Neftning hosil bo'lishi murakkab va uzoq davom etadigan jarayon, u cho'kindi tog' jinslarining hosil bo'lishi bilan bog'liqidir. Bu jarayonning sodir bo'lishi uchun yirik dengiz va okean havzalari ayniqsa qulaydir. Bulardan tashqari, ko'l va daryolar o'zanjidan iborat havzalari ham shunday vazifani o'tashi mumkin. Aytigan havzalarda albatta suv bo'lishi kerak, bo'limasa quruqlikdagi organik materiallar oksidlanishi natijasida torf va ko'mirga aylanishi ehtimoli mayjud.

Har bir dengiz va okean o'zining o'simlik va hayvonot olamiga ega. Neft va gaz hosil bo'lishida esa okean va dengizlarning katta hajmini egallovchi mikroorganizmlar (planktonlar) muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, neft va gaz hosil bo'lishida albatta suvli muhit bo'lishi zarur.

Shu o'rinda Abu Rayhon Beruniyning: «**Dengiz o'rni quruqlik, quruqlik o'rni esa dengiz bilan almashadi**», degan fikrini ko'rib chiqamiz. Arabiston cho'llari xuddi shunday hodisani o'z boshidan kechirgan. Bu yerlar o'z vaqtida dengiz suvlarini bilan qoplangan bo'lib, hozirda esa cheksiz qumliklar bilan qoplangan.

Bugungi kunda Arabiston cho'llarida joylashgan davlatlarda (BAA, Shavlon Arabistoni, Quvayt va boshqalar) yirik neft konlari mayjud, bu esa neft hosil bo'lishida suvli muhitning zarurligini va shu o'tmishtan muhitda organik moddalarning yirik masshtabda barq urib usulanganligidan dalolat berish bilan birga, buyuk allomaning fikrini ishligiaydi.

Organik nazariyaga asoslangan holda ish yuritilganligi tufayli (Parby Nibir, O'rta Osiyo va boshqa o'lkalarda ko'plab neft va gaz konlarini topishga muvaffaq bo'lindi.

Firik organik moddalarning qayta o'zgarishidan hosil bo'ladigan neft mahsulotlarining molekular tuzilishini chuqur va mukammal o'rganish natijasida ko'pgina tadqiqotchilar neft hosil bo'lishi faqat organik yo'l bilan amalga oshishi mumkin, deb hisoblaydilar, neftni organik sintez orqali hosil bo'lishimi esa inkor etadilar.

Neft va gazning organik yo'l bilan hosil bo'lishligi haqidagi ilmiy iqtisodiyot qator olimlar tomonidan (A.A. Abelson, O.M. Akramxo'jaev, A.A. Bakirov, E.A. Bakirov, A.G. Boboyev, M.S. Burshtar, I. Bogomolov, N.B. Vassoyevich, N.N. Vilson, V.S. Vishemirskiy, V.V. Veber, A.A. Geodekyan, V.V. Glushko, I.M. Gubkin, V.A. Yeremenko, V.I. Yermolkin, M.K. Kalinko, A.A. Karsev, I. Kontorovich, S.P. Maksimov, V.D. Nalivkin, S.G. Neruchev, I.I. Nestrov, A.A. Petrov, O.A. Radchenko, K.F. Rodionova, A. Trofimuk, V.A. Uspenskiy, U. Kolombo, M. Lui, M. Xant, J. Nelson va boshqalar) turli cho'kindi havzalar misolida jadal rivojanitirildi. Neft yaratuvchi yotqiziqlardagi organik moddalar litogenetik jarayoning hamma bosqichlarida neftga aylanishi kuzatiladi.

Protokatogenez mintaqasida (platformalarda 1,5—2 km gacha chiqarilganda ona jins yotqiziqlari cho'kishining dastlabki lahzalarida bulashadagi tarqoq organik moddalar qisman o'zgaradi, undan kisloqni chiqib ketadi va tarqoq organik moddalar tarkibida neftli uglevodorodlar miqdori oshadi. Tarqoq organik moddalarida o'zgarishning dastlabki lahzalarida neft uchun xos bo'lgan past molekulali uglevodorodlar paydo bo'la olmaydi. Ular faqat termodestruktsiya jarayoni rivojanishining oxirgi davrida yuzaga keladi. Tarqoq organik moddalarning gaz fazasida uglerod ikki oksidi ko'p uchraydi, qisman metan va uning gomologlari ham qatnashadi. Shunday qilib, bu bosqichda neft uglevodorodining hosil bo'lishidan hali darak bo'lmaydi. Ona jinslarning 2—3 km ga cho'kishi, temperaturaning 80—90 dan 150—170° C gacha ko'tarilishi va mezokatagenetik usulchining boshlanishi bilan tarqoq organik moddalar destruksiya

yasi sodir bo'ladi, neft uglevodorodlari shiddat bilan to'planma boshlaydi, natijada neft hosil bo'lishining asosiy fazasi yuzaga keladi. Mikroneftning asosiy massasi va past molekulalgi uglevodorodlar hosil bo'ladi. Ona jinslardan uglevodorodlar chiqib keta boshlaydi, neft hosil bo'lishi asosiy fazasining oxiriga kelib, tarqoq organik moddalarning neft yarata olish imkoniyati so'nadi. Tutqichlarga tarqoq organik moddalardan ajralgan neft siljib kelishi va to'planishidan neft uyumlari vujudga keladi. Ona jins yotqiziqlarining yanada cho'kishi (3,5—4 km ga) va temperatura ning 170° C dan oshishi, ( $MK_4$ —AK<sub>4</sub>) katageneza gaz hosil bo'lishining asosiy fazasini yuzaga keltiradi. Tarqoq organik moddalarning yuqori temperaturalri destruksiyasi metanning ko'p miqdorda to'planishiga sababdir. Hosil bo'lgan uglevodorod gazlarining kollektorlar tomon siljishidan hamda ularning vertikal yo'nalishda yuqoriga harakatlanishidan, cho'kindi qoplamlarining yuqoridagi gorizontlarda ham gaz uyumlari vujudga keladi. Ona jinslarning keyinchalik cho'kishi (6—7 km va undan chuqrur) apokatagenez mintaqasiga tushib qolgan qoldiq tarqoq organik moddalar boy jinslardagi uglevodorodlarning to'liq ajralib chiqishini hamda neft gaz hosil qiluvchi jinslarning o'z imkoniyatini to'liq namoyon qilishini ta'minlaydi. Metanning to'planishi davom etsa-da, uning shiddati pasayadi. Katagenez jarayonida tarqoq organik moddalarga boy ona jinslarda neft va gaz hosil bo'lish bosqichini, cho'kindi havzalari paydo bo'layotgan davrda neft va gaz paydo bo'lgan vaqtini aniqlash mumkin. Shuningdek, neft va gaz to'planayotgan mintaqalarni bashoratlash, Yer po'stidagi neft va gaz manbalarini miqdoriy baholash mumkin bo'ladi. Shunday qilib, neft va gazning hosil bo'lishini cho'kindi — siljish nazariyasi, nafaqt neft-gazlar ning organik yo'l bilan hosil bo'lishini tasdiqlaydi, balki Yer po'stindagi neft-gazligini bashoratlash imkonini yaratadi hamda neft va gaz manbalarini baholash imkonini beradi.

A.A. Bakirov akademik I.M. Gubkinning ilmiy ishlarini davom ettirib, 1955-yil litosferada neft va gazning hosil bo'lish jarayoni olti bosqichdan iboratligini ko'rsatdi:

- 1) organik moddalarning yig'ilishi;
- 2) uglevodorodlarning hosil bo'lishi yoki generatsiyasi;
- 3) uglevodorodlarning siljishi yoki migratsiyasi;
- 4) uglevodorodlarning to'planishi yoki akkumulyatsiyasi;
- 5) uglevodorod yuumlarning saqlanishi yoki konservatsiyasi;
- 6) uglevodorod yuumlarning buzilishi yoki qayta taqsimlanishi.

Fa'kidlangan har bir bosqich o'zaro bog'liq va bir-birini quvvat-hochi ichki va tashqi quvvat manbalari ta'sirida va o'rabi turgan muhitning o'ziga xos sharoitlarida sodir bo'ladi. Muhitning tashqi quvvat manbalariga:

— asta-sekin ortib borayotgan ustqatlamlar bosimi (geostatik bosimi);

- tektonik kuchlar bosimi;
- suyuqlik va gazzlarning (fluidlar) og'irlik kuchlari ta'sirida harakatlanishi natijasida sodir bo'lgan gravitatsion kuchlar;
- yerning temperatura oqimi ta'siri;
- gidrodinamik kuchlar;
- kapillar kuchlar kiradi.

Muhitning ichki quvvat manbalariga:

- mikroorganizmlarning va fermentlarning biokimoviy ta'siri;
- organik modda saqlovchi yotqiziqlarning katalitik ta'siri;
- organik moddalar va uglevodorodlarning ichki kimoviy quvvat ta'siri;
- qatlamlardagi radioaktiv minerallarning ta'siri;
- jinslarning kristallanish va qayta kristallanish quvvati; a) molekular kuchlar; b) uglevodorodlarni kichik g'ovaklardan katta g'ovaklarga siqib chiqaruvchi suvning molekular kuchi; d) uglevodorodlarning va yotqiziqlarning tarang kengayish kuchlari; e) jinslarning zichlanish quvvati; f) elektrokinetik kuchlar kiradi.

Yuqorida aytib o'tilganlarning hammasi neft, gaz va kondensating organik yo'l bilan vujudga kelgan, degan farazlarga asos bo'ldi.

Quyidagi 1-jadvalda neft va gaz hosil bo'lishidagi organik nazariyalar, ularning mualliflari, nazariya tafsilotlari va isboti keltirilgan.

**Neft hosil bo'lishida noorganik faraz** XIX asr davomida paydo bo'ldi. M. Bertollo (1866), A. Biasson (1866), S. Kloe (1878) o'zlarining UV ning noorganik sintezi bo'yicha o'tkazgan laboratoriya tafsiyatlarini asosida ishlangan farazlarini taklif etdilar.

AOSHda esa bu faraz Ye. Mark Dermat (1938), R. Robinson (1963) tomonidan taklif etildi, biroq geolog-neftchilar tomonidan uqaliy qarshilikka uchradi.

MDH da neft va gazning noorganik yo'l bilan hosil bo'lishini N.S. Beskrovniy, G.Ye. Boyko, I.V. Grinberg, G.N. Dolenko, A.I. Kravtsov, N.A. Kudryavsev, V.F. Lineskiy, D.I. Mendeleyev, V.B. Porfirev, B.B. Chekalyuk va boshqa olimlar isbotlashga harakat qilganlar.

D.I. Mendeleyev 1877-yilda «Ximiya asoslari» kitobida «Karbid ipotezasini ilgari surgan edi. Ushbu farazga muvofiq yer qa'ridagi

darzliklar bo'ylab yer markaziga qarab atmosfera suvlari sizib boradi, temirli karbid bilan reaksiyaga kirishadi va uglerod bilan o'zaro ta'sir etadi, natijada to'yingan va to'yinmagan uglevodorod hosil bo'ladi. Ushbu uglevodorod, shuningdek, darzlik va yoriqlar bo'ylab yuqoriga migratsiya qiladi va sharoit tug'ilgan joyda neft uyumi ko'rinishida bo'ladi.

Neft va gazni hosil bo'lishidagi noorganik faraz haqida V.D. Sokolov (1889) boshqa yo'nalishni taklif etdi. Uning aytishicha, kosmik bo'shliqda vodorod va kometa dumidagi uglerod va uglevodorod gazlarining borligini o'rganib, uglevodorod yer paydo bo'lgan vaqtdayoq vujudga kelgan, degan g'oyani ilgari suradi.

P.N.Kropotkin (1985) fikricha, uglevodorod litosferaning cho'kini qatlamlarida mantianyaning degazatsiyasi (gazsizlanishi) natijasida hosil bo'ladi.

#### I-jadval

##### Neft va gaz hosil bo'lishidagi organik nazariyalar

Muallif va nazariyasi nomi	Xususiyatlarining tafsifi	Isboti
Engler. «Hayvon organizmlarining parchalanishi nazariyasi»	Uglevodorodlar hayvon organizmlarining qoldiqlarini chirib parchalanishi jarayonida hosil bo'ladi. Qatlam sharoitida temperatura va bosim ostida organizmlarining parchalanishida qoldiq moylar uglevodorodlarga o'tadi. Taxminiy qalnligiga, bu jarayonga faol anaerob bakteriyalar ta'sir ko'sratadi	Uglevodorod, dengiz hayvonlarining qoldig'idan tarkib topgan cho'kindi jinslarni fraksiyalab, qayta ishlashdan olinishi mumkin. Ko'plab neft qatlamlari dengiz yotqizilariiga tegishli bo'lib, ularda foramineferlar miqdori juda ko'p
G. Gefer. «O'simlik qoldiqlarini parchalanishi nazariyasi»	Uglevodorodlar o'simlik organizmlarining oksidlanishi va parchalanishi sharoitida suyuq mahsulotlarning hosil bo'lishi natijasida paydo bo'ladi	O'simliklardan hosil bo'lgan diameten, dengiz suv o'tlari, torf, ko'mir qatlamlari yaqinida neftli qatlamlar topilgan. Tabiyi neftga xususiyatlari bo'yicha yaqin uglevodorodlarni ko'rsatilgan materiallardan olish mumkin
«Ko'mir yoki boshqa ohaktoshli materiallarning gidrogenizatsiya nazariyasi»	Yuqori bosim va temperaturada, shuningdek, zarur katalizator, misol uchun: nikel ishtirokida qattiq organik materiallarning vodorod bilan kombinatsiyasida suyuq uglevodorodlarga o'tadi	Laboratoriya va samoat qurimalarida ko'mir gidrogenizatsiya qilingan. Ayrim UV asosida nikel bor. Biroq, tabiyi sharoitda erkin vodorod borligini isbot qilish zarur

Ayrim fasavvurlar bo'yicha yer po'sti va yuqori mantiya ikkita sheniga bo'llinadi. Yuqori geosfera oksisfera (chuqurligi bir necha km) va otkisi — reduktosfera (chuqurligi 150 km gacha) deb atala. Reduktosfera gaz-fluid fazalarini tiklash sharoitni bilan tafsiflashti. Bunda ko'p miqdorda vodorod, metan va boshqa uglevodorod, shuningdek,  $H_2O$ ,  $CO_2$  va  $H_2S$ , ancha miqdordagi azot va geliv sheniga. Bu gazlar darzliklar bo'yicha yuqori qatlamlarga o'tadi va qatlamlarda o'tplanadi. N.A.Kudryavsev (1966, 1967) fikricha, yer yuqorining paydo bo'lishida uglevodorodlar tarkib topgan bo'lib, yuqori temperatura (bir necha ming gradus) ta'sirida uglevodorod qatlamlari va vodorodga parchalanadi. Ular litosferaning yuqori qismini ko'tarilib, nisbatan yuqori bo'lmagan temperaturada bu radiatlar va vodorodlar qayta birlashishi natijasida neft, gaz va koniyyat uyumlari hosil bo'ladi.

Yana N.A. Kudryavsevning ta'kidlashicha, hamma organik biologicheskiy materiallar uglerod va vodorodga parchalanadi, keyinchalik  $CH$ ,  $CH_2$ ,  $H$  radikalilar, so'ng yer bag'rida (magmadan chiqqandan keyin) muhammosidan qochib, «ular magmada qayramaydi, qatlam yuzasiga yuqori temperatura holatida va juda yuqori bosimda chiqadi», deydi.

Neft va gazning noorganik yo'l bilan hosil bo'lishini bu oqim jarayonlari quyidagi fikrlar bilan asoslashga harakat qiladilar:

1. Kosmik moddalarda uglerodli birikmalar qatorida uglevodorodning bo'lishi. Kosmik zondlar yordamida Jupiter va Titan atmosferalarida  $C_2H$ ,  $C_2H_4$ ,  $C_2H_6$ ,  $C_2H_8$ ,  $C_4H_2$ , HCN,  $HC_3H$ ,  $C_2H_2$  aniqlandi. Ushbu va boshqa uglerodli birikmalar yulduzlar shing'idiagi changsimon bulutlarda ham bor deb taxmin qilinadi. Hulkoritlarda uglerod hamda metanli fluid aralashmalari turli shaklda shayaydi.

2. Yer mantiyasida 1300—1500°C temperaturada kislordaning shuvenchaniqli pasayadi, bunday sharoitda metan bo'lishi ehtimoli shayaydi.

3. Mantiyadan kelib chiqqan magmatik mahsulotlarda uglerodli birikmalarining mavjudligi. Mantianyaning differensiatsiyalishi va shing'idiagi gazsizlanish mahsulotlari: kimberlitlar va ularning minerallari (turmalin, olivin, granat va b.) da, peridotitlar, toleithi bazaltlar, nefelinli pyrenitlar va boshqa ishqorli jinslarda, shuningdek, yosh va qadimgi

vulqonlarning gidrotermal suyuqliklarda  $H_2$ ,  $CO$ , spirt,  $CH_4$  va ayrim murakkab uglevodorodlarning bo'lishi.

4. Mantiyaning gatsizlanish hodisasining mayjudligi. Yoysimon joylashgan orollarda hozirgi kunda harakatdagi vulqonlarning gatsizlangan mahsulotlari ko'mir-uglevodorodli tarkibga ega ekanligi. Zamoniaviy termal maydonlardagi riftlarda vodorod va metanning borligi kuzatiladi. Mantiyaning «sovuv» gatsizlanishidan katta gidrostatik bosim ostida bo'lgan kristallik poydevorlardagi granitlarda neft to'planishi kuzatiladi. Sovuv vodorodli va metan vodorodli gatsizlanish yirik chuqur yoriqlar mintaqalarida (masalan, AQSHning Kaliforniya shtatidagi San-Andreas tashlama-uzilmali-surilmasida) kuzatiladi.

5. Yirik neft va gaz manbalari litosfera plitalarining chekka qismalaridagi chuqur egilma (6–10 km va undan chuqur) cho'kindi havzalarida joylashgan bo'lib, rivojlanishning orogen va rift bosqichlarida yuzaga kelgan, seysmoaktiv geodinamik mintaqalar bilan chegaralanadi. Ko'pgina neft-gaz o'lkalari graben va chuqur yoriqlari bilan genetik bog'liq.

6. Cho'kindi havzalarning burmalangan chekkalarida sanoat miyosida to'plana olmaydigan uglevodorodlarning o'rta va past temperaturali endogen rudalanishida (polimetallar, simob, uran va b.) paragenezining mayjudligi; cho'kindi havzalari ichida neftda V, Ni, Fe, Cu, Mo, Co, Mn, Zn, Cr, Hg, As, Sb va boshqa metallarning ko'p miqdorda uchrashi. Bunday qonuniyat neft va metallardan darak beruvchi uglevodorod moddalar manbayining umumiyligi bilan izohlanadi.

7. Neft va gaz manbalari katta (global) va regional hududlarda notejis joylashgan. Buning asosiy sababi ularning bir joy (o'choq) da o'nashganligi yoki vertikal yo'nalishlarda yuqorida siljishidadir. Dunyo bo'yicha aniqlangan yirik neft va gaz resurslari asosan bir necha havzalarda joylashgan. Yer po'stida aniqlangan 600 cho'kindi havzasidan 400 tasi chuqur burlash orqali o'rganilgan, ulardan 240 tasi samarador emas. Sanoat miyosidagi 160 neft va gaz cho'kindi havzalarda 26 havza dunyodagi neft va gaz manbalarining 89 % ini (Arabiston — Eron koni 47,5 % ni tashkil qiladi), yana 24 ta havza — 6,28 % va 110 ta havza faqatgina 4,72 % ini tashkil etadi. Bu notejislik yana shundan dalolat beradiki, dunyodagi neft konlarining 80 % i 37 supergigant va 300 gigant konlarda mujassamlashgan.

Yuqorida qayd qilinganlardan ko'rini turibdiki, neftning noorganik yo'l bilan hosil bo'lishi umumiyligi mulohazalarga asoslangan.

O'yindagi 2-jadvalda neft va gazning hosil bo'lishidagi noorganik ularning mualliflari, nazariya tafsilotlari va isbotlari

2-jadval

#### Neft va gazni hosil bo'lishidagi noorganik nazariyalar

Nazariya nomi	Xususiyatlari tavsifi	Isboti
Chuqurliklarda isboti	Katta chuqurliklarda, yuqori temperaturalada joylashgan ishqorli metallar $CO_2$ bilan reaksiyaga kirishadi va ishqorli karbid hosil qiladi. Keyin polimerlanish va kondensatsiya jarayonida UV hosil qiladi	Isboti yo'q. Tabiatda erkin ishqorli metall ham, ishqorli karbid ham topilmagan
Tog' jinsidagi temirli karbid qatlama suvi bilan reaksiyaga kirishib, asitelen hosil qiladi. Bu darzlik va yoriqlar bo'ylab yuqoridagi g'ovak qatlamlarga singadi va kondensatsiyalamani aniqlangan	Temirli magniy oksidi ham ko'rsatilgan reaksiya mahsuloti sifatida hosil bo'lishi kerak. Ayrim neft maydonlarining chekkalarida magnit anomaliyalari aniqlangan	
Mossan fikricha, tog' jinsi tarkibidagi suvning ta'siri vulqon uchqunlarini keltirib chiqarishi mumkin	Yaponiya va Etni yaqinidagi vulqon lavalarida neft izlari topilgan. Meksika va Yava yarim orolidagi vulqonli jinslarda neft borligi aniqlangan	
Uglevodorodlar kosmik massada erkin hosil bo'lishidan vodorod bilan uglerodning reaksiyasini birlamchi mahsuloti sifatida qaraladi	Meteoritlar ko'p bo'lmagan miqdorda uglevodorod borligi aniqlangan	
Ohaktosh bilan ohak sulfati o'tasidagi reaksiya suv ishtirokida va temperaturalada dissotsiatsiyasi uchun yetarli temperatura da uglerod olish nazariyi jihatdan mumkin	Laboratoriya sharoitida bunday reaksiyaning bo'lishi mumkinligi isbotlangan	

#### NEFT VA GAZ HOSIL BO'LISHINING MIKSTGENETIK YO'NALISHI

1990-yillarga kelib neft va gazning paydo bo'lishi to'g'risida chop ilmili asarlar, maqolalar va ma'lumotlar tahlili hamda dunyo o'lkalarining shaklanishini geodinamik nuqtayi nazardan surdi. O'sgan asosida A.A. Abidov mikstgenetik nazariyani ilgari surdi.

Unga ko'ra, neft va gazning hosil bo'lishida asosiy manba tarqoq organik moddalar bilan bir qatorda yer po'stining chuuqatqlamlaridan yuqorida joylashgan cho'kindi jinslar tomon harakatlanayotgan turli gaz va suyuq moddalar bo'lib, ular ta'sirida cho'kindi jinslardagi organik moddalardan uglevodorod hosil bo'ladi, deb hisoblanadi.

O'zbekiston hududida neft va gazlar hosil bo'lishining mikstgenetik farazi quyidagi ma'lumotlarga asoslanadi: ma'lumki, mezo-zoy-kaynazo'y cho'kindi qatlamlari ichida tarqoq organik moddalar ko'p miqdorda uchraydi, o'z navbatida ularga katta chuqurlikdan kelayotgan fluidlar ta'sir etadi. Yer po'stidagi issiqlik oqimining katta chuqurlikdan chiqib kelayotgan fluidlar bilan o'zar o'r'in almashishidan o'ndan ortiq anomal mintaqalar vujudga keladi. Ularga Markaziy Qizilqum, Buxoro-Xiva regionidagi paleorift sistemasidagi yuqori temperaturali issiqlik oqimi, Surxondaryo megasinkinalidagi Boyangora maydoni, Farg'ona tog'lararo botiqligidagi Adrasman-Chust anomalligini va boshqalarni misol keltirish mumkin. Markaziy Qizilqum anomalligida metan va vodorod emanatsiyasi (radioaktiv nurlanishda vujudga keladigan gaz mahsulotlari) tajriba asosida aniqlangan. Bu yerda uch mo'tadil (0 dan 10 gacha), umumiye fonga nisbatan 10000 shartli birlikka ko'p bo'lgan shiddatlari va doirasimon ko'rinishdagi emanatsiyalar ajratilgan. Emanatsiyaning eng yuqori qiymati paleozoy vulqon-tektonik strukturasi og'ziga to'g'ri keladi. Issiqlik oqimi zichliq qiymatiga va anomal mintaqalar maydonining katta-kichikligiga qarab boshqa joylarda, katta chuqurlikda, ularga mos keluvchi emanatsiya mahsulotlarining hosil bo'lishini taxmin qilish mumkin. Bunday anomaliyalar ta'siridagi mintaqalarda juda yirik neft va gaz konlari joylashganligi A.A. Abidov fikricha, mikstgenetik yo'nalişning asosligini tasdiqlaydi.

Yuqorida qayd qilingan ma'lumotlarga asoslanib, A.A. Abidov neft va gazlarning bunday yo'l bilan hosil bo'lishini quyidagicha izohlaydi: 1) neft va gazning mikstgenetik hosil bo'lishida Yerning gazsizlanishi (degazatsiyasi) dan chuqurlikda paydo bo'lgan fluidlar tarqoq organik moddalar bilan bir qatorda boshlang'ich ashyo hisoblanadi; 2) o'ziga xos termobarik sharoitli, issiqlik oqimi va fluidlar harakatlana oladigan kanallari bo'lgan cho'kindi havzalar mikstgenetik yo'l bilan hosil bo'lishida chuqurlikdagi fluidlar oqimi ta'sirida sodir bo'ladigan reaksiyalar sistemasidagi organik moddalarning parchalanish jarayoniga mos keladi.

K.A. Kleshchev, A.N. Dmitriyevskiy, A.M. Sogalevich, Sh.S. Balyanyuk, V.V. Matviyenko, B.M. Valyayev va boshqa olimlar okean

uglevodorodlarning hosil bo'lishini mikstgenetik farazga yaqin izohlaydilar. Unga ko'ra, yuqori mantiyadagi o'ta asos jinslaridan asosiy qatlamlaridan jarayonida okean suvlarining va ulardagagi karangidrid gazining parchalanishidan metanning gidrotermal ushlari bo'ladi. Shu sababli organik moddalarga boy va yuqorida cho'kindi jinslarga vodorodning shiddat bilan kirib bo'lib, ko'p miqdorda uglevodorodlar vujudga keladi. Shunga qarashgi gidrodinamik holat yosh riftlar rivojlanayotgan mintaqalar ham xos (Qizil dengiz, Kayman novi).

Finch okeanidagi Tonga va Kermadek vulqon orollari yaqinida meydorda to'plangan uglevodorodlarni o'rgangan K.A. Kleshchev olimlar (1996) okean tubida bo'ladigan vulqon jarayonlari hidrotermal oqimlar ta'sirida uglevodorodlar hosil bo'lishi mumkin asosladilar. Shu sababli vulqon jarayonlari tez-tez qaytarilib okean tubi neft va gaz vujudga kelishi mumkin bo'lgan maydon hisoblanadi. Shuningdek, izotopli tekshiruvlar yozuviy gazlar tarkibidagi vodorod va uglerodlarning yengil tarkibini tabiiy sharoitda katta chuqurliklarda uchrashi mumkinligini belaidi. Masalan, Kaspiy bo'yи botig'ining tuz osti yotqiziqlarida kelgan neft-gaz-kondensatlari konlarda katta chuqurlikdan chiqib qatlamlarga singayotgan uglevodorodli fluidlarning o'ziga xos ushlari aniqlandi (B.M. Valyayev, 1997). Ya'ni, ko'pgina konlarda ushlarning kesim bo'yicha uglevodorodlar tarkibining o'zgaruvchanligi, yozuviy gazlarning o'ta yuqori bosimining keskin o'zgarishi, diz'yunktiv fluidlarning quyuqlashuvi, fluidlarning suqilib kirishi oqibatida sharoitda g'ovakliklar va ikkilamchi saqlagichlar paydo bo'ladi.

Vujudidagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, neft va gazlarning hosil bo'lishi to'g'risida turli farazlar mavjud. U yoki bu farazni qanchalik yozuviga yaqinligini chuqur tadqiqotlar asosida isbotlash lozim.

**Neft va gaz migratsiyasi.** Migratsiya deganda, neft va gazning cho'kindi qobiq'idagi harakati tushuniladi. Migratsiya yo'llari o'stida tog' jinslaridagi g'ovaklar va darzliklar, shuningdek, uzilarning buzilishi, stratigrafik nomuvofiqliklar xizmat qiladi. Xuddi orqali neft va gaz yerning yuza qismiga ham chiqishi mumkin.

Migratsiya bir qatlarning o'zida bo'lishi va bir qatlamidan ikkini hisiga o'tishi ham mumkin. Migratsiya o'z naybatida qatlam ichi (rezervuar ichi) va qatlamlararo (rezervuarlararo)ga ajratiladi.

Birinchiisi, asosan, qatlam ichi g'ovaklik va darzliklarda, ikkinchi, qatlamlararo neft va gaz migratsiyasi tog' jinslari (diffuziya) ushlari bo'yicha ham bo'lishi mumkin.

V.P. Savchenko tadqiqotlar o'tkazib, neft-gaz joylashishi qo'lamlararo migratsiya natijasida o'ziga xos «portlash quvurchasi» o'qali, qoldiq gazlar yig'ilishidagi juda katta bosim natijasida tog'jinslarida sodir bo'ladi, degan xulosaga kelgan. Rezervuar ichi va rezervuararo migratsiya yonlama (lateral) va bo'ylama yo'nalishida bo'lishni mumkin. Shu nuqtayi nazardan, yonlanma va bo'ylama migratsiya ajratiladi.

Harakat xarakteri bo'yicha fizik holatiga bog'liq migratsiya molekular (diffuziya, suv bilan erigan holatda harakatlanshi) va fazali (erkin holatda) ga bo'linadi. Keyingi holatda uglevodoro suyuq (neft) va gazsimon (gaz) holatida, shuningdek, bug'simesi neft-gazli eritma ko'rinishida bo'ladi.

Neftgaz yarata oluvchi qatlamlarga nisbatan birlamchi va ikkilamchi migratsiya ajratiladi.


Uglevodorodlar ona jinslardan ajralib, kollektorlarga o'tishi jarayoni neft-gazning *birlamchi migratsiyasi* yoki *emigratsiya* deb ataladi. Neft-gazni kollektor jinslari bo'ylab siljishi *ikkilamchi migratsiya* deyiladi (1-rasm).

Migratsiya harakat mashtabi bo'yicha regional, zonal va lokal bo'lishi mumkin.

Birlamchi migratsiyada gilli, neftgaz yarata oluvchi ona jinslari dan suv bilan birga uglevodorodlar siqilib chiqadi va qatlam kollektor jinslarga o'tadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, birlamchi migratsiya uglevodorodlarning emigratsiyasi deb ham ataladi. Uglevodorodlarning emigratsiya tezligi bunday holatda suv migratsiyasi tezligi dan kam bo'lmaydi.


Ikkilamchi migratsiya (neft ham bo'lishi mumkin) erigan holatda o'zi erigan suyuqlikda, qatlam suvlarli harakati tezligi va yo'nalishida sodir bo'ladi. Qatlam suvlar asosan lateral yo'nalishda harakatlanshi (qatlam bosimi kam joylashtirilishi tomonga).

**Migratsiya omillari.** Uzoq vaqtlargacha neft hosil bo'lishidagi organik nazariyani nozik tomonidan birlamchi migratsiya, emigratsiya omili haqidagi savol edi. Noorganik nazariya tarafдорлари neft-gaz yaratishini rad etadilar (2—3-rasmilar).



1-rasm. Birlamchi va ikkilamchi migratsiya tasviri:  
1 — birlamchi; 2 — ikkilamchi;  
3 — kollektor; 4 — qopqoq jinslar (gillar).


16



J-rasm. Neft va gazni yer yuziga chiqishining eng ko'p uchraydigan sharoitlari (V.A.Sokolov bo'yicha):

ishlana uzilma va diapirizm buzilishlar bilan bog'liq bo'lgan chiqishlar; nomuwofig yotishlar bilan bog'liq bo'lgan chiqishlar; i — gaz va neftli qatlamlarning chiqishi; j — g'ovakli mintaqada darzliklarning bo'lishi bilan bog'liq chiqishlar; k — neft va gazning yer yuziga chiqish joylari.

Bo'yicha jinsdan neft-gazni birlamchi migratsiyasini hamma sharoitlari rad etadilar (2—3-rasmilar).



J-rasm. Qatlam ichi (a, b) va qatlamlararo migratsiya (d, e):  
1 — neft; 2 — qumtosh; 3 — gil; 4 — stratigrafik nomuwofiglik;  
5 — tektonik buzilish.

Akramov, O. Hayitov

17

БИБЛИОТЕКА  
Бух. ТМЛ и АП  
№ 91443.

Birlamchi migratsiya omillari va migratsiya qiluvchi uglevodon holati to'g'risidagi zamonaviy tasavvurlar quyidagilardan iborat:

Diagenez bosqichida paydo bo'lgan neftli uglevodorod («yo'neft») cho'kindilarni zichlashishida suv bilan birga siqib chiqariladi. Jinslarning cho'kishi natijasida ular ko'proq qiziydi. Temperaturasi oshishi bilan neft-gazning hajmi ko'payadi va shu bilan ularning harakatiga ko'maklashadi. Uglevodorodlarning harakatida yangi moddalarining hajmini kattalashishi, bosim oshishi natijasida faoliy shishi mumkin. Katta chuqurlikdagi tog' jinslarining cho'kishi natijasida gazlarning generatsiyasi kuchayadi va birlamchi neft va gazli eritma ko'rinishida neft-gaz yaratoluvchi ona jinsdan ajraladi. Neftli uglevodorodning birlamchi migratsiyasi gazli eritma ko'rinishida bo'lishi eksperimental yo'l bilan isbotlangan.


Ikkilamchi neft va gaz migratsiyasi gravitatsion, gidravlik va boshqa omillar ta'sirida bo'lishi mumkin.

Ikkilamchi migratsiyada neft va gaz suvgaga to'yingan kollektorlarning tarkibiga sizib o'tib, qatlamning ko'tarilgan tomoni yo'nalishi bo'yishadi.

Fluidlarning kollektorli qatlam bo'ylab sezilarli masshtabda migratsiyasi qatlam qiyaligi va bosim o'zgarishiga bog'liq. A.L. Kazakov fikricha, qatlamning qiyaligi 1-2° bo'lsa, gravitatsion kuchiga ta'sirida neft va gaz joylashishi uchun yetarli sharoit yaratadi.

Gravitatsion omil yordamida tutqichda neft va gaz yig'ilishi imkonini bo'ladi (4-rasm).

Gidravlik omilning mohiyati shundan iboratki, suv kollektorlarning qatlamdagi harakatida o'zi bilan gaz pufakchalarini va neft tomchilari ni ergashtirib ketadi. Suvni harakatlanish jarayonida neft va gaz mustaqil faza hosil qilishi mumkin. Keyingi joylashishda suvdan ajralgan neft va gaz gravitatsion omil hisobiga devorsimon ko'tarilmalar bo'yicha harakatlanib, uyumlar hosil qiladi. Neft va gazning bunday asosiy migratsiya omillari yaxshi o'tkazuvchanlikka ega kollektorlar bilan bog'liqdir.



4-rasm. Suvga to'yingan qatlamda gravitatsion va gidravlik kuchlarning neft va gazga ta'siri va yo'nalishi.  
1 — neft tomchilari; 2 — gaz pufakchalar; 3 — suvgaga to'yingan kollektor-qatlam; 4 — gravitatsion; 5 — hidravlik.

18

## NEFT, KONDENSAT, NEFT VA QATLAM SUVLARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI

### KARBONSUVCHILLARNING QATLAMDA TO'PLANISHIGA QARAB NEFT VA GAZ KONLARINING TURLARI

Mehmonki, neft va gazning asosiy tarkibiy qismini karbonsuvchillarning tashkil qiladi. Qatlamlarda hosil bo'lgan neft, gaz va suyuqlik, gaz va aralash holatlarida uchrashi mumkin. Holatlar qatlamlarning bosimi va haroratiga, karbonsuvchillarning kimyoziy xossalariiga bog'liq. Odatda qatlamning yuqori qo'shi, ya'ni gumbazi va gumbaz atrofida gaz holatidagi eng yengil suyuqlikda, qatlamning o'rta qismida esa gaz va kondensat suyuqlikda, qatlamning pastki qismida yuqori zichlikdagi suyuqlikda, ya'ni neft joylashadi. Ko'p hollarda karbonsuvchillarning ostki qismini suv egallagan bo'ladi.

Aksata, har bir kon uchun keltirilgan karbonsuvchillarning tarkibini bajarilishi shart emas. Masalan, qatlam bosimi bo'lsa, gaz holatidagi karbonsuvchillar suyuq holatdagi karbonsuvchillarning tarkibida to'liq erigan holatda bo'lishi mumkin va umuman olganda karbonsuvchillar qatlam ichidagi zichlikdagi fizik holatlariga ko'ra, konlar quyidagi turlarga bo'linadi:

*1. Neft gaz konlari.* Bunday konlarning qatlamlarida faqat sof gaz holatidagi karbonsuvchillar to'planadi (5-rasm, a).

*2. Neft kondensat konlari.* Bunday konlarda gaz holatidagi karbonsuvchillarda erigan holda eng yengil suyuq karbonsuvchillar qatlamda to'plami ham bo'ladi (5-rasm, b).

*3. Neftli gaz konlari.* Bunday konlarning qatlamlaridagi karbonsuvchillarning ko'proq qismi sof gaz holatida va ozroq qismi neft suyuqlikda uchraydi (5-rasm, d).

*4. Namarsev tasnifi bo'yicha, agar:*


$$V = 0,50 + 0,75$$

Bunday konlarni neftli gaz konlariga kiritish kerak,

$$\frac{V_g}{V_g + V_N} = V. \quad (1)$$

Jami hamma tayyorlanishi arafasida bosmadan chiqqan «Neft va gaz sanoati, chekha lug'ati» da uglevodorod — «karbonsuvchil», deb tarjima qilingan.

19



5-rasm. Karbonsuvchil konlarning joylashish turlari:  
 δ δ — gaz δ • δ — kondensat //——— neft ——— suv.

Bu yerda,  $V_g$  — qatlama gaz holatidagi karbonsuvchillarning hajmi;

$V_n$  — qatlama neft holatidagi karbonsuvchillarning hajmi.

4. *Gazli neft (ya'ni gazi bor neft) konlari.* Bunday konlarda ozroq miqdorda sof gaz holatidagi karbonsuvchillar ko'proq miqdordagi neft bilan birga uchraydi. Bu konlarda  $V=0,25+0,50$  nisbatda bo'ladi (5-rasm, e).

5. *Gaz do'ppili neft konlari.* Bunday konlarda sof gaz holatidagi karbonsuvchillar umumiylar karbonsuvchillar hajmining  $\frac{1}{4}$  qismidan kamrog'ini tashkil qiladi, ya'ni  $V<0,25$  bo'ladi (5-rasm, f).

6. *Neft-gaz-kondensat konlari.* Bunday konlarda sof gaz holatidagi karbonsuvchillar umumiylar karbonsuvchilla-

qismidan ko'proq'ini tashkil qiladi, ya'ni  $V<0,75$

(5-rasm, g).

7. *Neft konlari.* Bunday konlarda faqat og'ir karbonsuvchillar holatida uchraydi (5-rasm, i).

Karbonuvchillarning holatiga qarab yuqoridagi konlardan tashqara bir turdag'i karbonsuvchil konlari bor. Bu — gazogidratdir. Bunday konlarda yengil karbonsuvchillar ma'lum bir hajmi yo'qa gaz holda emas, balki qattiq kristall holda uchraydi. Bunday konlarda juda kam tarqalganidan umumiylar konlar tasnifiga kiritilgan. Ular haqidagi batafsil ma'lumotlar keyinroq beriladi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, karbonsuvchillarning holatiga qarab konlarning ko'rinishi har xil bo'lar. Hemak, ularni loyihalash va ishlatalish jarayonlari ham turli xil shuning uchun karbonsuvchil konlari topilganidan keyin, eng yaxshi kon qaysi turkumdag'i konga taalluqli ekanligi aniqlanadi. Aytilay sylganiidek, odadta konlarda gaz yoki neft ostida qatlam mayjud bo'ladi. Qatlam suvlari karbonsuvchil konlарини ham yaxshi ostida siqib turadi.

Hemak, gaz va neft konlari mukammal o'rganish uchun bu yaxshiliklarning karbonsuvchillar bilan birga qatlam suvlari ham yaxshish zarur ekan.

#### TABIY GAZ VA GAZ-KONDENSAT KONLARIDAGI GAZLARNING TARKIBI. TABIY GAZLAR TASNIFI

Tabiyl gazlar karbonsuvchillar va nokarbonuvchillar birikmasi tashkil topgan aralashmadir. Ular qatlamlarda gaz holatidagi yoki neft va suvda erigan holatda uchraydi, standart<sup>1</sup> sharoitda gaz holatida bo'ladi.

Tabiyl gaz va gaz-kondensat konlaridan olinadigan gazlarning ko'rinishi  $C_nH_{2n+2}$ , ifodasi bilan aniqlanib, metan gomologlari tashkil topadi. Tarkibida karbonsuvchillardan tashqari karbonsuvchillar — azot ( $N_2$ ), uglerod (IV) oksidi ( $CO_2$ ), vodorod ( $H_2S$ ), inert gazlar — argon (Ar), geliy (He), kripton (Kr), neon (Ne) va merkaptanlar (RSH) bo'lishi mumkin. Merkaptan-

1.  $101325 \text{ Pa}$  (1 at yoki  $760 \text{ mm.s.u.}$ ) va harorat  $20^\circ \text{C}$  bo'lgandagi

Iar (ba'zan tiospirtlar deyiladi) juda o'tkir, o'ziga xos hidi bilan ajralib turadi.

Sof gaz konlariidan chiqadigan gazlar tarkibining 90 — 98 % ni metan tashkil qiladi. Tabiiy gazlar tarkibida to'yingan karbonsuvchillardan tashqari, to'yinmagan karbonsuvchillar ham bo'lishi mumkin.

Karbonsuvchillar molekulasi  $C_nH_{2n+2}$  ifodasidagi  $n=1+56$  gacha bo'lishi mumkin.  $n=1+4$  gacha bo'lsa, bunday karbonsuvchillar ( $CH_4$ ,  $C_2H_6$ ,  $C_3H_8$ ,  $C_4H_{10}$ ) standart sharoitda gaz holatida,  $n=1+17$  gacha bo'lsa, karbonsuvchillar suyuq holatda bo'ladi. Demak, tabiiy gazlar tarkibiga karbonsuvchillarning  $n=1+4$  gacha bo'lganlari kiran ekan,  $n=1+7$  gacha bo'lganda kondensat holatida bo'ladi. Tabiiy gazlar konlariidan olinayotganiga qarab, tasnifi quyidagicha:

1. Sof gaz konlariidan olinadigan tabiiy gazlar. Bu gazlarda hech qanday suyuq holatdagi karbonsuvchillar bo'lmaydi (yoki juda ham kam miqdorda bo'lishi mumkin) va ular quruq gazlar hisoblanadi.

2. Neft bilan birga olinadigan yo'ldosh gazlar. Yo'ldosh gazlar tarkibida metan miqdori kamroq, etan, propan, butan va yuqori karbonsuvchillar ko'p bo'ladi.

Neft bilan birga olinadigan gazlar quruq, yarim yog'li va yog'li guruhlarga bo'linadi. 1 m<sup>3</sup> quruq gazlarning nisbiy zichligi (havoga nisbatan) 0,75 atrofida bo'ladi. Yarim yog'li gazlar tarkibida benzin miqdori 75 + 150 g ni tashkil etadi. Nisbiy zichligi 0,9—1,0 bo'lgan yog'li gazlar tarkibida benzin miqdori 150 g dan yuqori va nisbiy zichligi 1,15—1,40 gacha yetishi mumkin.

3. Gaz-kondensat konlariidan olinadigan gazlar. Bu gazlar quruq gazlar bilan suyuq holatdagi kondensatlar aralashmasidan iborat.

Har uch guruhdagi gazlar asosan metan-butan komponentlari ning miqdori bilan farq qiladi. Misol tariqasida 3-jadvalda har uch-chala guruhga tegishli konlariidan olinadigan gazlarning kimyoiyi tarkibi berilgan.

Aval aytil o'tganimizdek, gazlar tarkibida vodorod sulfid bo'ladi. Vodorod sulfid H<sub>2</sub>S palag'da tuxum hidi keladigan juda zaharli gazdir. Odatta tarkibida vodorod sulfid bo'lgan gaz konlарини ishlatish ancha murakkablashadi, bunga asosiy sabab vodorod sulfid juda o'tkir yemiruvchi moddadir. Shuning uchun ham olinayotgan tabiiy gaz tarkibida qancha vodorod sulfid bor ekaniagini oldindan bilish shart.

Tabiiy gazlar vodorod sulfid bo'yicha ham o'z tasnifiga ega, faqat bu tasnif vodorod sulfid bo'yicha aytildasdan, balki oltingugurt miqdori bo'yicha yoriltiladi:

### O'zbekistondagi konlariidan olinadigan gazlar tarkibi

Kon nomi	Gaz tarkibi								Solishtirma zichligi
	CH <sub>4</sub>	C <sub>2</sub> H <sub>6</sub>	C <sub>3</sub> H <sub>8</sub>	C <sub>4</sub> H <sub>10</sub>	C <sub>5</sub> H <sub>10+10</sub>	CO <sub>2</sub>	H <sub>2</sub> S	N <sub>2+1</sub>	
1. Sof gaz konlariidan olinadigan gazlar									
Gazli, XI	93,49	4,18	0,97	0,38	0,16	0,42	-	0,40	0,588
Uchqir, XIV	94,05	3,42	0,74	0,30	0,49	0,50	-	0,50	0,604
Sho'rchi, XIII	94,21	2,06	0,12	0,01	0,20	1,22	-	2,18	0,587
Oqjar, XII	93,97	1,71	0,21	0,10	0,21	0,50	-	3,30	0,589
Jurqoq, XII	95,34	1,86	0,16	0,16	0,27	0,17	-	2,04	0,580
Xartum, VII	74,2	11,85	4,95	-	4,95	0,17	0,02	3,40	0,759
Jan. Rishton, XXIV	81,36	10,40	2,40	0,96	0,81	0,06	-	4,00	0,681
2. Neft konidan olinadigan yo'ldosh gazlar									
Gazli, XIII	93,45	2,45	0,60	0,25	0,50	0,45	-	2,30	0,598
Qoraxitoy, XIII	95,40	0,25	0,09	0,05	izlari	0,60	-	3,60	0,577
Jurqoq, XV	92,15	4,10	0,96	-	0,73	1,60	0,06	0,40	0,612
Sho'itepa, XIII	87,75	5,00	2,30	0,80	0,60	0,15	-	3,40	0,640
Sharq. Xartum, III	45,06	22,55	13,47	2,26	5,87	0,25	-	7,46	0,792
Bo'ston, III	70,87	12,26	8,27	2,09	0,57	0,63	izlari	3,02	0,850
Varik, VIII	66,99	14,87	9,38	0,88	0,99	0,74	0,45	1,94	0,886
3. Gaz-kondensat konlariidan olinadigan gazlar									
Jan. Muborak, XII	90,70	3,20	0,90	0,40	0,90	0,40	-	3,50	0,628
Sho'ritepa, XII	90,70	3,20	0,90	0,40	0,90	0,40	-	3,50	0,628
Sho'itepa, XIII	87,00	5,10	1,50	0,60	0,70	0,33	-	4,70	0,654
Uchqir, XIV	94,40	3,00	0,90	0,40	0,35	0,45	-	0,50	0,599
Yangi qoz'g'on, XIII	89,80	2,10	0,50	0,40	1,20	0,70	-	5,30	0,637
Toshli, XVI	83,70	8,45	1,66	0,75	0,46	1,45	-	3,55	0,652
Hojixayram, XV	89,45	4,62	1,27	0,13	0,28	0,48	0,48	0,06	3,70

— oltingugurtsiz tabiiy gazlar, bunda vodorod sulfid 0,001% hajmgacha bo'lishi mumkin;

- kam oltingugurtli gazlar, tarkibida 0,001 dan 0,3 % gacha vodorod sulfid bo'lishi mumkin;
- o'rtacha miqdordagi oltingugurtli gazlar — tarkibida 0,3 dan 1,0 % gacha vodorod sulfid bo'lgan gazlar;
- yuqori miqdordagi oltingugurtli gazlar — tarkibida 1,00 % vodorod sulfidi bo'lgan gazlar.

Bu tasnifga qarab, konlardagi gaz tayyorlash inshootlari ham har xil bo'ladi. Olingugurtsiz, kam oltingugurtli gaz konlariда oltingugurti tozalovchi qurilma va inshootlari bo'Imaydi. Qolgan hollarda oltingugurtidan tozalovchi inshootlar qurilib, tabiiy gaz oltingugurtidan to'la tozalanadi va sof holdagi oltingugurt ajratib olinishi mumkin. Agar tabiiy gaz tarkibida oltingugurt qolsa va iste'molchilarga shu holda yetkazilsa, zaharlanish yoki portlash hodisalarini yuz berishi mumkin.

O'zbekistonidagi Qultog', Pomuq, Zevardi, Sho'rton, Olot kabi konlar o'rtacha miqdordagi oltingugurtli konlarga va O'rtabuloq, Dengizko'l kabi konlar o'ta oltingugurtli konlarga kiradi. Ulardan olinayotgan tabiiy gazlardan Muborak gazni qayta ishslash zavodida sof oltingugurt ajratib olinmoqda.

Tabiiy gazlar tarkibida 0,05 % dan yuqori miqdorda geliy bo'lsa, u ham ajratib olinishi shart. Chunki geliy xalq xo'jaligining juda ko'p tarmoqlari uchun asosiy xomashyo sifatida ishlatiladi.

#### TABIY GAZLARNING ASOSIY FIZIK XOSSALARI

Tabiiy gazlarning fizik xossalari aniq bilish, shu gaz konlari loyihalash va ishlatishda kerak bo'ladi. Kondan olingan gaz namlikdan tozalanib, iste'molchilarga yetkazib beruvchi tashkilotlarga topshiriladi. Ana shu topshirishda har ikki tomonidan tuziladigan topshirish-qabul qilish hujjatlarida gazning asosiy fizik va kimyoviy xossalari qayd qilinadi, o'zaro hisoblashlarda gazning xossalari inobatga olinadi.

Shuni takror ayтиб o'tish kerакки, gazning holati (bosim, harorat va hajm) o'zgarish bilan gazning fizik xossalari ham birmuncha o'zgaradi. Demak, gazning fizik xossalari muntazam ravishda nazorat qilib turish zarur.

Tabiiy gazlarning asosiy fizik xossalariaga molekular massasi, zichligi, qovushqoqligi, kritik parametrlari kiradi. Tabiiy gazlarning asosiy fizik va kimyoviy xossalari 4-jadvalda berilgan.

Tabiiy gaz tarkibidagi asosiy komponentlarning fizik va kimyoviy xossalari

Ko'rsatkichilar	Meltin	Etran	Propan	Izo-butan	Izo-pentan	Normal butan	Izo-pentan	Izo-butanol	Geksan	Ureto-IV/oksid sulfid	Vodorod sulfid	Azot	SUV bulg'i
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	
Kimyoviy formulası	$C_2H_6$	$C_3H_8$	$iC_4H_{10}$	$nC_4H_{10}$	$C_6H_{14}$	$CO_2$	$C_6H_{14}$	$CO_2$	$H_2S$	$H_2O$	$H_2O$		
Molekular massasi	16,043	30,070	44,097	58,124	72,151	72,151	86,178	44,011	34,082	28,016	18,016		
Uglerod miqdori, % massa	74,87	79,96	81,80	82,66	83,23	83,23	83,62	27,29	-	-	-		
Gaz doimiyi, l/k G/K	521	278	189	143	143	115	115	189	245	297	463		
Ensi haronati °C, 760 mm. subto	-182,5	-172,5	-187,5	-145,0	-135,0	-160,6	-129,7	-96	-56,6	-209,9	0		
Oqyash haronati °C, 760 mm. subto	-161,3	-88,6	-32,2	-10,1	-28,0	-36,2	-69,0	78,5	-61,0	-195,8	100		
Kritik parametrlari, harorat K	190,5	206,0	369,6	404,0	420,0	460,8	470,2	507,8	304,5	373,5	126,0	647,3	
Mutlak bosim	4,7	4,9	4,3	3,7	3,8	3,3	3,4	3,9	7,5	9,2	3,5	22,5	
Gazning zichligi °C,	760 mm. subto, kg/m³	0,717	1,344	1,967	2,598	2,598	3,220	3,220	3,880	1,977	1,539	1,251	0,805
Haqqa nishan nishyv zichligi	0,554	1,038	1,523	2,007	2,007	2,488	2,488	2,972	1,520	1,191	0,970	0,622	
Solshtirma hajmi °C, 760 mm. subto va °C da /m³/kg	1,400	0,746	0,510	0,385	0,385	0,321	0,321	0,258	0,506	0,650	0,799	1,248	
Suyuq holatdagi zichligi /760 mm. subto va gavash halonatida, m³/kg	416	546	585	600	625	637	664	925	950	634	634	1,0	
Solshtirma issiqligi /760 mm. subto va °C da + k G/K O'zgarmas bosimida Sr va o C da + k G/K O'zgarmas bosimida Sr	2220	1729	1560	1490	1490	1450	1450	1410	842	1060	14	200	
O'zgarmas hajmida	1690	1430	1350	1315	1315	1315	1315	1290	1272	652	802	743	1500
Solshtirma issiqligi sag imtali istebai Sr/Sv	1,310	1,198	1,161	1,144	1,144	1,121	1,121	1,113	1,291	1,322	1,400	1,333	
Bug'lanchish issiqligi /760 mm. subto /kJ/kg	570	490	427	362	394	357	341	341	83	132	48	539	
Issiqlik o'rakanzchanligi °C da, k/m°C soat	0,108	0,065	0,053	0,049	0,049	0,046	0,046	0,046	0,012	0,010	0,020	-	
Kritik seqliuchanlik koefitsiyenti, Zkr	0,290	0,285	0,277	0,283	0,274	0,268	0,269	0,264	0,274	0,268	0,291	0,230	
Dinamik qovushqoqligi /760 mm.s subto va °C da /mmPa s	99,5	148,0	200,0	263,0	255,0	308,0	311,0	368,0	94,0	95,0	90,1	56,0	
Normalizatsiya hajmi	10,3	8,3	7,5	6,9	6,2	6,2	6,2	5,9	13,8	11,7	16,6	12,8	
	0,013	0,105	0,152	0,192	0,201	0,208	0,208	0,252	0,290	0,420	0,100	0,040	0,348

GAZ VA GAZ ARALASHMALARINING ZICHЛИГI  
VA MOLEKULAR MASSASI

Zichlik yoki hajm massasi deb, moddaning tinch holatdagi massasini uning hajmiga bo'lgan nisbatiga aytildi. Oddiy fizik sharoitda<sup>1</sup> gazning zichligini uning molekular massasi orqali aniqlash mumkin. Ya'ni,

$$\rho_0 = \frac{M}{22,41}, \text{ kg/m}^3. \quad (2)$$

Bu yerda,  $M$  — gazning molekular massasi; 22,41 — har qanday bir kg gazning fizik sharoitdagi hajmi,  $\text{m}^3$ .

Gazning zichligi normal sharoit uchun berilgan bo'lsa, u holda har qanday boshqa bosim uchun uning zichligi quyidagicha topiladi:

$$\rho = \frac{\rho_0 \cdot \rho}{1,033}. \quad (3)$$

Bu yerda,  $\rho$  — zichlik aniqlanadigan bosim; 1,033 — atmosfera bosimi.

Ko'pincha hisoblashlarda gazning nisbiy zichligi ishlataladi. Gazning nisbiy zichligi deb, shu gaz zichligining havo zichligiga bo'lgan nisbatiga aytildi:

$$\Delta_0 = \frac{\rho_0}{1,293}. \quad (4)$$

Bu yerda, 1,293 — havo zichligi.

Gaz aralashmalari (bug' va suyuqlik aralashmalari) ularning tarkibiy qismiga kiruvchi moddalarning massasi va molar konsentratsiyalari bilan xarakterlanadi. Gaz aralashmasining hajmi, tarkibiy qismi uning molar qismi bilan taxminan bir xildir. Chunki Avogadro qonuni bo'yicha, 1 kmol ideal gaz bir xil fizik sharoitda bir xil hajjni egallaydi. Masalan, 0°C da va 760 mm s.u.b.o. da kmol ideal gaz 22,41  $\text{m}^3$  hajjni egallaydi.

Gaz aralashmalarining xususiyatlari bilish uchun uning molekular massasini, o'rtacha zichligini va nisbiy zichligini bilish zarur.

Agar gaz aralashmasining tarkibiy qismi molar (ya'ni hajm) hisobida berilgan bo'lsa, u holda aralashmaning molekular massasi quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{ar} = \frac{U_1 M_1 + U_2 M_2 + \dots + U_n M_n}{100}. \quad (5)$$

<sup>1</sup> Bosim 101325 Pa (0,101 MPa) va harorat 0° C bo'lgandagi sharoit.

Bu yerda,  $U_1, U_2, \dots, U_n$  — aralashma tarkibidagi komponentlarning molar (hajm) miqdori %;  $M_1, M_2, \dots, M_n$  — komponentlarning molekular massalari.

Agar gaz aralashmasining tarkibiy qismi massa hisobida berilgan bo'lsa, u holda aralashmaning molekular massasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma_1 = \frac{100}{\frac{m_1}{M_1} + \frac{m_2}{M_2} + \dots + \frac{m_n}{M_n}}. \quad (6)$$

Bu yerda,  $m_1, m_2, \dots, m_n$  — aralashma tarkibidagi komponentlarning massa miqdori, %.

Aralashmaning molekular massasi aniq bo'lsa, uning zichligi xuddi gazning zichligi kabi aniqlanadi. Ya'ni,

$$\rho_{ar} = \frac{\rho}{22,41}, (\text{kg/m}^3), \quad (7)$$

Gaz aralashmasining nisbiy zichligi esa:

$$\Delta_{ar} = \frac{\rho}{1,293}. \quad (8)$$

Tabiiy gazlarga to'liq xarakteristika berilgan, ularning tarkibida og'ir karbonsuvchillar miqdorini ham aniqlash zarurdir. Odatda tabiiy gazlardagi og'ir karbonsuvchillar uch xil turkumda bo'ladi: propan, butan va gaz benzini. Gaz benzini o'z navbatida 33 % butan va 67 % pentandan iborat, deb qabul qilingan.

Demak, gaz aralashmasining tarkibiy qismi ma'lum bo'lsa, u holda bu aralashmadagi og'ir karbonsuvchillar miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma_1 = 10m_i \rho_{ar} = 10y_i \rho_{ar}. \quad (9)$$

#### GAZLARNING HOLAT TENGЛАМАЛАРИ

Gazlarning fizik xossalari o'rganish uchun gaz holati tenglamalaridan foydalilanadi. Gaz holatini aniqlovchi ko'satkichlarga bosim, harorat, hajm, massa kabilalar kiradi. Tajribalarda bu ko'satkichlilar baravariga o'zgarsa, gaz holatini xarakterlovchi qonuniyatlarini keltirib chiqarish qiyin bo'ladi. Shuning uchun ham bu ko'satkichlarning biortasini o'zgartirmay, qolganlarini o'zgartirib, gaz holatini xarakterlovchi tenglamalar chiqarilgan.

**Boyl — Mariott qonuni.** Bu qonun bo'yicha harorat o'zgarmas bo'lgan holatda bosim bilan hajm orasidagi munosabat aniqlangan. Harorat o'zgartirilmasdan turib olib borilgan jarayonlar *izotermik jarayonlar* deyiladi. Umumiy holda Boyl — Mariott qonuni qo'yidagicha yoziladi:

$$P_1 V_1 = P_2 V_2 \quad (10)$$

Bundan kelib chiqadigan bosim va hajm ko'paytmasi, harorat o'zgarmagan holda o'zgarmas miqdor ekan. Ya'ni,

$$PV = \text{const.}$$

**Gey — Lyussak qonuni.** Bu qonun bo'yicha gaz bösimi o'zgarmas bo'lgan holdagi (izobarik) jarayonlar ko'rildi. Umumiy holda Gey — Lyussak qonuni quyidagicha ko'rinishdadir:

$$\frac{V - V_0}{V} = \alpha t. \quad (11)$$

Bu yerda,  $V_0$  — harorat  $t_0$  bo'lganidagi gaz hajmi;  $V$  — harorat t ga ko'tarilgandagi gaz hajmi;  $\alpha$  — hajm kengayishining harorat koefitsiyenti.

11-tenglama  $V$  ga nisbatan yechilsa, quyidagi ko'rinishga keladi:

$$V = V(1 + \alpha t) \quad (12)$$

**Gey — Lyussak qonuniga muvofiq gazni bir holatidan ikkinchi bir holatiga o'tishini quyidagicha yozish mumkin:**

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{T_1}{T_2}. \quad (13)$$

Mendeleyev — Klayperon tenglamasi ideal gazlar uchun keltirib chiqarilgan bo'lib, umumiy ko'rinishda quyidagicha yoziladi:

$$PV = \sigma RT \quad (14)$$

Bu yerda,  $R$  — gaz doimiysi;  $\sigma$  — gaz massasi.

**Sharl qonuni.** Bu qonun bo'yicha gaz hajmi o'zgarmas bo'lgan holda bosim bilan harorat orasidagi bog'liqlilik ko'rib chiqilgan. Umumiy holda Sharl qonuni quyidagicha ko'rinishga ega:

$$\frac{P_1}{P_2} = \frac{T_1}{T_2}. \quad (15)$$

Sharl qonuni ta'riflaydigan jarayon *izoxorik jarayon* deb yuritiladi. Gazlarning holat tenglamalari orqali ularning kritik va keltirilgan parametrlari, o'ta siqiluvchanlik koefitsiyentlari aniqlanadi.

Holat tenglamalaridan foydalab, gazlarning issiqlik sig'imi va issiqlik o'tkazuvchanliklарini ham aniqlash mumkin.

Gazlarning keltirilgan holat tenglamalari real, ya'ni tabiiy gazlarning hamma ko'satkichlarini o'z ichiga olmagan. Chunki yetti qatlamlarida gazlarning harakatiga juda ko'p omillar mavjuddir.

#### TABIIY GAZLARNING KRITIK VA KELTIRILGAN PARAMETRLARI

Gaz holati tenglamalaridan biri Mendeleyev — Klayperon tenglamasi ideal gazlar uchun chiqarilgan. *Ideal gaz* deb, molekulalarda ichki ishqalanish bo'lmagan gazlarga aytildi. Termodinamik nazarliyaga ko'ra ideal gazlar uchun quyidagi tenglik mayjud:

$$\left( \frac{\partial E}{\partial V} \right)_S = 0. \quad (16)$$

Bu yerda,  $E$  — bug'lanishning ichki energiyasi;  $j/mol$ .

Agar 14-tenglamani birga teng qilib olsak, u quyidagi ko'rinishga keladi.

$$\frac{PV}{\sigma RT} = 1 = z. \quad (17)$$

Bu yerda,  $z$  — real gazlarning ideal gazlar qonuniyatidan boshchacha ekanligini bildiruvchi koefitsiyentdir. Bu koefitsiyent tabiiy gazlarning o'ta siqiluvchanlik koefitsiyenti deyiladi.

Gaz holatini har xil jarayonlarda (izoxorik, izobarik, izotermik) tajriba qilib, 14-tenglama real gazlar uchun mos emasligi aniqlandi.

Birinchi bo'lib golland fizigi Van der Waals 1879-yilda 14-tenglamaga tabiiy gazlarning ularning molekular hajmi va molekulalarning o'zaro tortishish kuchini kiritdi. Van der Waals 14-tenglamaga ikkita yangi koefitsiyentlar kiritib, quyidagi holga keltirdi:

$$\left( P + \frac{a}{V^2} \right) = (V - b) = RT. \quad (18)$$

Bu yerda,  $V$  — gazning solishtirma hajmi;  $\frac{a}{V^2}$  — molekular bog'lanishni belgilovchi o'zgarmas miqdori,  $kG/sm^3/l$ ;  $b$  — molekular hajmga kiritilgan tuzatma.

18-tenglamadagi  $\frac{a}{V^2}$  ifoda molekulalarning ichki bosimini ifodalasa,  $b$  — shu molekulalarning hajmni to'rt baravar ko'paytirilgan miqdoriga teng.

Bu tuzatmalar kiritilishiga qaramasdan, keyinchalik 18-tenglamada tabiiy gazlar uchun hali ham aniq emasligi ma'lum bo'lib qoldi. Bu yerdagi  $a$  va  $b$  koefitsiyentlar gazning kritik holati tenglamalardan keltirib chiqariladigan murakkab kattaliklar ekan. Bu koefitsiyentlar kritik bosim va kritik haroratga bog'liq bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$a = \frac{27 \cdot T_{kp}^2 \cdot R^2}{64 \cdot R_{kr}^2}; \quad b = \frac{R \cdot T_{kp}}{8 \cdot P_{kr}} \quad (19)$$


19-tenglamadagi kritik harorat va kritik bosim gaz holatini kritik xususiyatlarini xarakterlovchi kattaliklardir.

Gazning kritik harorati ( $T_{kp}$ ) deb, shunday maksimal haroratga aytildiki, bu haroratda modda bir vaqtning o'zida gaz va suyuq holatidagi tenglikda bo'ladi (6-rasm).

Kritik harorat uchun yana bir ta'rif bor. Ya'ni, kritik haroratda gazning o'rtacha molekular kinetik energiyasi molekulalarning tortilish potensial energiyasiga teng bo'ladi.

Bu ta'riflardan ko'rinish turibdiki, kritik haroratda ham gazzimon, ham suyuq holatidagi aralash ikki komponentli faza mavjud ekan. Kritik haroratdan yuqoriq haroratlarda  $T$  suyuq faza yo'qolib, faqat bir turdag'i gazsimon faza mayjud bo'ladi.

Kritik haroratga mos bo'lgan bosim kritik bosim ( $R_{kp}$ ) deyi-ladi.



6-rasm. Gazning bosim va haroratga bog'liqlik tasviri.

Tabiiy gazlarning holat tenglamalari aniq tuzish uchun juda ko'p tajribalar va ilmiy ishlar bajarilgan. Buning natijasida real gaz holati tenglamasini aniqlanishi, shu real gaz xossalarni hisobga oladigan yangidan-yangi o'zgarmas kattaliklar kiritish bilan bog'liq bo'ldi. Gazlarning holat tenglamasiga  $Z$  koefitsiyenti kiritilib,

$$PV = Z \sigma RT \quad (20)$$

holiga keldi. Bu yerda  $Z$  koefitsiyenti gazlarning keltirilgan harorat va keltirilgan bosimiga bog'liq ekan, ya'ni,

$$Z = f(R_{kp}, T_{kp}).$$

Gaz tarkibiy qismini tashkil qiluvchi komponentlarning keltirilgan parametrлари, xuddi shu parametrлarning kritik parametrлardan qanchalik kichik yoki kattaligini ko'rsatuvchi o'lchov birligisiz kattalikdir:

$$P_{kp} = \frac{P}{P_{kr}}; \quad T_{kp} = \frac{T}{T_{kr}}; \quad V_{kp} = \frac{V}{V_{kr}}; \quad \rho_{kp} = \frac{\rho}{\rho_{kr}}; \quad Z_{kp} = \frac{Z}{Z_{kr}}.$$

Bu yerda,  $P$ ,  $T$ ,  $V$ ,  $\rho$ ,  $Z$  — o'lchangan kattaliklar (mos holda bosim, harorat, hajm, zichlik va o'ta siqiluvchanlik) koefitsiyenti;  $P_{kr}$ ,  $T_{kr}$ ,  $V_{kr}$ ,  $\rho_{kr}$ ,  $Z_{kr}$  — o'lchangan kattaliklar kritik miqdorlari;  $R_{kp}$ ,  $T_{kp}$ ,  $V_{kp}$ ,  $\rho_{kp}$ ,  $Z_{kp}$  — keltirilgan parametrлари.

Real tabiiy gazlar juda ko'p karbonsuvchil komponentlar aralashmasidan iborat. Bu aralashmada oddiy va murakkab komponentlar mavjud. Oddiy gazlar (metan, geliy, argon, kripton, ksenon va b.) ning molekulalari sharsimon bo'lsa, murakkab gazlarning (butan, pentan, uglerod (IV) oksidi va h.k.) molekulalari sharsimon bo'lmaydi. Oddiy gazlarda molekulalar tortishish (yoki itarilish) kuchi, shu sharsimon molekulalarning markazlarigacha bo'lgan masofani oltinchi darajasiga to'g'ri mutanosibdir. Lekin murakkab gazlarda molekulalarigacha tortishish (yoki itarilish) kuchi faqat molekulalarning markazlarigacha bo'lgan masofaga bog'liq bo'lmay, balki molekulalarning sharsimon emasligiga ham bog'liq ekan. Chunki bunday hollarda molekula og'irlik markazi molekula sirtidan har xil masofada bo'ladi.

Shuning uchun real gazlarning holatini aniqlovchi 20-tenglamadagi  $Z$  koefitsiyenti faqat keltirilgan bosim va keltirilgan haroratga bog'liq bo'lmay, yana bir kattalik — molekulalar nomarkazi belgisiga w ga ham bog'liq, ya'ni  $Z = f(P_{kp}, T_{kp}, w)$  nisbat mavjud.


Endi keltirilgan parametrлardan qanday qilib  $Z$  koefitsiyentini aniqlash ustida to'xtalib o'tamiz.

Bu koefitsiyentni ikki xil usul bilan aniqlash mumkin:

1) grafik usul;

2) Seyrim dasturi bo'yicha hisoblash usuli.

Grafik bo'yicha  $Z$  7-rasmidan aniqlanadi. Bu grafik *Braun — Kats* grafigi deb yuritiladi. Buning uchun keltirilgan bosim ( $R_{kp}$ ) va



7-rasm. Tabiiy gazning o'ta siqiluvchanlik koeffitsiyentining keltirilgan bosim  $R_k$  va keltirilgan harorat  $T_k$  bilan bog'liqligi.

keltirilgan harorat  $/T_{kel}$  ma'lum bo'lsa yetarli. Aniqlash usuli 7-rasmda streklalar orqali ko'rsatilgan. Seyrim dasturi bo'yicha hisoblash uchun elektron hisoblash mashinalarida quyidagi tenglama yechiladi:

$$Z = \sum_{i=1}^6 \sum_{j=1}^6 A_{ij} P_i(x) P_j(y). \quad (22)$$

Bu yerda,  $A_{ij}$  — 36 ta sonli gazlarning turli xususiyatlarini hisobga oluvchi koeffitsiyentlar;

$R_i(x)$  va  $R_j(y)$  quyidagi argumentlarda olingan polinomlar:

$$x = \frac{2P_{kel}-15}{14,8}; \quad y = \frac{2T_{kel}-4}{1,9} \quad (23)$$

Grafik va hisoblash usullari bilan aniqlangan  $Z$  koeffitsiyentida xatolik 5 % dan oshmaydi.

Real gazlarning holat tenglamasiga birinchi bo'lib Van der Waals yangi koeffitsiyentlar kiritib, uni 18-tenglama holiga keltirgan bo'lsa, keyinchalik beshta o'zgarmas kattalikka ega bo'lgan Bitti — Bridjmen

tenglamasi, shu tenglamaning xususiy holi sifatida keltirib chiqarilgan Redlix — Kvong tenglamasi, Soava tenglamasi va ko'plab shu kabi yangi tenglamalar vujudga keldi.

Bu tenglamalarni keltirib chiqarish «Gaz konlarini ishlatalish nazariyasiga» faniida mufassal berilganligi uchun, biz faqat yakuniy tenglamalar bilan tanishib chiqamiz:

Bitti — Bridjmen tenglamasi:

$$Z = \left( 1 - \frac{C}{VT^2} \right) \left( V + B_0 - \frac{bB_0}{V} \right) A_0 \left( 1 - \frac{a}{V} \right). \quad (14)$$

Redlix — Kvong tenglamasi:

$$P = \frac{RT}{V-b} - \frac{a}{\sqrt{T \cdot V(V+b)}} \quad (25)$$

ko'rinishga ega bo'ladi, bu tenglamalarga kiruvchi  $a$ ,  $b$ ,  $c$ ,  $B_0$  kabi kattaliklar o'z navbatida gazlarning real xususiyatlarini o'z ichiga olgan fizik ma'noga ega miqdordardir.

#### GAZLARNING QOVUSHQOQLIGI VA UNI ANIQLASH USULLARI

Gazlar va suyuqlikning qovushqoqligi deb, ularning ichki qatlarning bir-biriga sijishiga nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyatiga aytiladi. Gazlar uchun qovushqoqlik quyidagicha aniqlanadi.

$$\mu_g = \frac{\rho v \lambda}{3}, [Pa \cdot c] \quad (26)$$

Bu yerda,  $\mu_g$  — gazlarning dinamik qovushqoqligi;  $\rho$  — gaz zichligi;  $v$  — molekulalarning o'rtacha tezligi;  $\lambda$  — molekulalarning o'rta-cha erkin harakatlanish masofasi.



Qovushqoqlik harorat va bosimga bevosita bog'liqdir. Bosim ortib borishi bilan gazning zichligi ortadi, o'z navbatida zichlikning molekulalarning erkin harakati masofasini qisqartiradi, molekulalar harakat tezligi esa deyarli o'zgarmay qoladi. Shuning uchun bosim oshishi bilan boshlang'ich davrda qovushqoqlik deyarli o'zgarmaydi, keyinchalik esa oshib boradi.

Qovushqoqlik (24) o'zgarishi haroratga ham bog'liq. Harorat oshganda gazlarning qovushqoqligi ortadi. Qovushqoqlikning haroratga nisbatan o'zgarishi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\mu_g = \mu_0 = \frac{273+C}{T+C} \frac{T^{1/2}}{273} \quad (27)$$

Bu yerda,  $\mu_g$  — gazning T haroratdagи mutlaq qovushqoqligi;  $\mu_a$  — gazning T=0°C dagи qovushqoqligi, Pa·c; C — gaz xossalariга bog'liq bo'lgan o'zgarmas kattalik (masalan, CH<sub>4</sub> uchun C=170, C<sub>2</sub>H<sub>6</sub> uchun C=280, C<sub>3</sub>H<sub>8</sub> uchun C=318, CO uchun C=240, H<sub>2</sub> uchun C=110, havo uchun C=124).

Ba'zi bir karbonsuvchillarning qovushqoqligini har xil haroratlар va atmosfera bosimida qanday miqdorda bo'lishi 4 va 5-rasmlarda



8-rasm. Karbonsuvchil gazlarning atmosfera bosimida va 200°C gacha bo'lgan haroratda dinamik qovushqoqligining molekular massasiga bog'liqlik tasviri.

keltirilgan. Shuni ham aytish kerakki, agar tabiiy gazlar tarkibida yemiruvchi gazlar (ya'ni N<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub>, H<sub>2</sub>S) bo'lsa, bunday hollarda tabiiy gazlarning qovushqoqligiga biroz tuzatma kiritish kerak bo'ladi. Bu tuzatma 8-rasmdagi ucta kichik bog'lanishlar orqali aniqlanadi. Ba'zi gazlarning atmosfera bosimida dinamik qovushqoqlikning o'zgarish tasviri: 1 — geliy; 2 — havo; 3 — azot; 4 — karbonsuvchil (IV) oksidi; 5 — vodorod sulfid; 6 — metan; 7 — izobutan; 8 — mo'tadil butan; 9 — pentan; 10 — peksan; 11 — benzol.


Agar tabiiy gaz tarkibida azotning miqdori 5% dan oshiq bo'lsa, gazning dinamik qovushqoqligini quyidagi tenglamadan ham aniqlash mumkin:

$$\mu_g = Y_a \cdot \mu_a + (1 - Y_a) \mu_y \quad (28)$$


Bu yerda,  $\mu_g$  — tabiiy gaz va azot aralashmasining o'rtacha dinamik qovushqoqligi;  $\mu_a$  va  $\mu_y$  — mos ravishda azot va karbonsuvchil gazlarning dinamik qovushqoqligi;  $y_a$  — azotning tabiiy gaz tarkibidagi molar miqdori.

Gaz konlarini loyihalash jarayonidagi hisoblashlarda ba'zan dinamik qovushqoqlik o'rniga nisbiy qovushqoqlik va kinematik qovushqoqlik ham ishlataladi.

Gazlarning nisbiy qovushqoqligi  $\rho_g/\mu_a$  deb, odatda shu gazning qovushqoqligini atmosfera holatda aniqlangan qovushqoqlikka nisbatli aytildi. 9-rasmda nisbiy qovushqoqlikni keltirilgan bosim orqali



9-rasm. Gazlar nisbiy qovushqoqligining keltirilgan bosimga bog'liqligi.




10-rasm. Gazlar nisbiy qovushqoqligining keltirilgan haroratga bog'liqligi.

aniqlash grafigi berilgan bo'lsa, 10-rasmda nisbiy qovushqoqlikni keltirilgan harorat orqali aniqlash grafigi berilgan. Hisoblashlarda o'chov birligisiz nisbiy qovushqoqlikni ishlatalish birmuncha yengilliklar beradi va shuning uchun ham nisbiy qovushqoqlik dinamik va kinematik qovushqoqlikka nisbatan ko'proq ishlatalidi.

Kinematik qovushqoqlik deb, gazning dinamik qovushqoqligining uning zichligiga bo'lgan nisbatiga aytildi:

$$\nu_g = \frac{\mu_y}{\rho_g} \quad (29)$$



11-rasm. Gazlarning dinamik qovushqoqligini aniqlash uchun S.G. Ibrohimov nomogrammasi.

Kinematik qovushqoqlikning o'chov birligi  $m^2/s$  yoki  $mm^2/s$  deb qabul qilingan. Agar hisoblashlarda, dinamik qovushqoqlikdan kinematik qovushqoqlikka o'tish kerak bo'lsa, gazning zichligining shu gaz holatini aks ettiruvchi harorat va bosimdagи miqdori olinadi. Qovushqoqlikni aniqlash usullari juda xilma-xildir. Bu usullar ichida eng asosiyi gaz muhitida tushayotgan sharchanening tezligini aniqlashga asoslangan. Bundan tashqari, gaz muhitida osib qo'yilgan silindr yoki disklar aylamna tezligining o'zgarishini qayd qilish usullari ham mavjuddir. Bu usullar haqida batafsil ma'lumotlarni maxsus qo'llanmalardan olish mumkin.

Gazlarning dinamik qovushqoqligini grafik usul bilan ham aniqlash mumkin. Buning uchun 11-rasmda keltirilgan S.G. Ibrohimov nomogrammasidan foydalanan mumkin.

Bu nomogrammadan dinamik qovushqoqlikni aniqlash strelkalar bilan ko'rsatilgan bo'lib, hisoblash ketma-ketligi quyidagicha:

$$T \rightarrow \Delta_{ar} \rightarrow P_{ket} \rightarrow \mu; \quad T \rightarrow \Delta_{ar} \rightarrow \mu.$$

#### GAZLARNING NAMLIK MIQDORI

Neft va gaz kollektorlaridagi neft va tabiiy gaz to'plamlari ostida qatlam osti va qatlam cheti suvlar, oraliq suvlar hamda qoldiq suvlar bo'lishi mumkin. Bu suvlar haqida batafsil ma'lumotlar keyinroq beriladi. Hozir shu qatlamdagи suvlar tabiiy gaz o'rtasidagi munosabatlari to'g'risida to'xtab o'tamiz.

Qatlamda tabiiy gaz va suv o'zaro bog'liq bo'lgani uchun tabiiy gazning tarkibida ma'lum miqdorda suv bug'lari borligi uchun tabiiy gazning tarkibida ma'lum miqdorda suv bug'lari bo'lishi mumkin. Bunga asosiy sabab qatlamdagи suvning va tabiiy gazning harorati anchagina yuqori bo'lishidir. Yuqori harorat natijasida suvning ma'lum bir qismi bug'lanib, gaz tarkibiga aralashib qoladi. Bu esa gazning namlanishiga olib keladi.

Gazlarning namlik miqdorini aniq bilish juda muhim ahamiyatga ega. Chunki gaz konlari ishayotgan korxona olinayotgan gazni davlat standartlariga mos qilib iste'molchilarga yetkazib berishi kerak. Bu standartlarda gaz tarkibida yemiruvchi tarkiblar ( $CO_2$ ,  $N_2$ ,  $H_2S$ ), shuningdek, suv bug'lari bo'lmasi ko'rsatib o'tilgan. Demak, gazning namlik miqdoriga qarab gaz konida tabiiy gazni suv bug'laridan tozalaydigan maxsus qurilma va gaz quritichilar o'rnatilishi zarur. Bu moslamalar esa sanoatda har xil unumdonlikka mo'ljallangan holda bir necha turlarda ishlab chiqariladi. Shuning uchun gazning namligini aniq bilib, shu namlikka mos gaz quritich moslamalari tanlanishi kerak.


Gazlardagi namlik miqdori karbonsuvchillarning bosimi va haroratiga bog'liq. Masalan, qandaydir bir bosim va haroratda hajm birligidagi tabiiy gazda eng maksimal suv bug'lari bor, u holda bunday gaz, suv bug'lariга to'liq to'yingan bo'ladi. Lekin harorat oshirilsa, ana shu hajm birligidagi tabiiy gaz suv bug'iga to'yinmagan holatga o'tadi. Bunday gazni yana to'yintirish uchun haroratni pasaytirish yoki yana qo'shimcha suv bug'i berish kerak bo'ladi.

Gazlarning namlik miqdori ikki xil namlik bilan o'chanadi — mutlaq va nisbiy namlik.

Gazning *mutlaq namlik miqdori* deb, hajm birligidagi tabiiy gaz tarkibidagi suv bug'lari massasiga aytildi. Mutlaq namlik g/m<sup>3</sup> yoki g/kG da o'chanadi.

Gazning *nisbiy namligi* deb, gazning ma'lum bir holatdagi suv bug'laringin miqdorini xuddi shu holatda gaz to'liq to'yingandagi maksimal suv bug'laringin miqdoriga bo'lgan nisbatiga aytildi.

$$\text{Mutlaq namlik: } H = \frac{Q_c}{V_g} \quad (30)$$



12-rasm. Tabiiy gazlarning mutlaq namligini aniqlash nomogrammasi.

tenglama bilan aniqlansa, nisbiy namlik miqdori:

$$H = \frac{H_H}{H_{\max}} \cdot 100\% \quad (31)$$

tenglama bilan aniqlanadi.

Bu yerdə,  $H$  — tabiiy gazning mutlaq namlik miqdori;  $Q_c$  — 1 m<sup>3</sup> hajmdagi ( $V_g$ ) tabiiy gaz tarkibidagi suv bug'lari miqdori, g;  $H_H$  — tabiiy gazning nisbiy namligi % da;  $H_{\max}$  — tabiiy gazning ma'lum bir sharoitdagى maksimal mutlaq namlik miqdori.

Gazlarning namlanishi ham boshqa fizik xossalarga o'xshab, qatlam bosimi va haroratiga bog'liq. Odatta harorat oshishi namlanishni oshirs, bosim oshishi namlanish miqdorini kamaytirishga olib keladi. Buni 12-rasmada keltirilgan nomogrammadan ham ko'rish mumkin.

Agar suv bug'larida erigan tuz moddalari bo'lsa, u holda namlanish miqdoriga tuzatma kiritish kerak bo'ladi, chunki erigan tuzlar miqdori oshishi natijasida gazning namlanish miqdori kamayib ketadi. Shuningdek, gazning molekular massasi yoki zichligi ortib borishi ham namlanishga ta'sir ko'rsatadi. Gaz zichligining oz miqdorda (3—5 % gacha) ortishi namlanish miqdorini kamaytiradi, demak, gazlar zichligining o'zgarishiga ham namlanish miqdori uchun tuzatma kiritish zarur. 12-rasmada keltirilgan nomogrammada bu tuzatmalar alohida berilgan, namlanish miqdorini aniqlash esa strelkalar bo'yicha ko'rsatilgan.

#### TABIIY GAZLARNING ISSIQLIK XOSSALARI

Tog' jinslari kabi tabiiy gazlar ham issiqlik xossalari ega. Termodinamika qonunlari karbonsuvchillar xossalari o'rganishda keng qo'llaniladi. Tabiiy gazlarning issiqlik xossalari issiqlik sig'imi, entropiya, entalpiya, yonish issiqligi, alanganish chegaralarini kiradi.

*Tabiiy gazlarning issiqlik sig'imi* deb, hajm yoki massa birligidagi gaz haroratini 1°C ga ko'tarish uchun sarf bo'ladigan issiqlik miqdoriga aytildi. Issiqlik sig'imi uning bajargan ishi va energiyasi bilan o'chanadi.

Gazlar uchun ikki xil issiqlik sig'imi mavjuddir — izobarik  $C_r$  va izoxorik  $C_v$ . Izobarik  $C_r$  issiqlik sig'imi gaz haroratini oshirganda, uning hajmi bosim o'zgarmagan holda cheksiz ortib borishini ko'rsatadi. Izoxorik  $C_v$  issiqlik sig'imi gaz haroratini oshirganda, gazga berilayotgan energiya gazning hajmi o'zgarmagan holda uning ichki energiyasi ortib borishini ko'rsatadi. Ya'ni:

$$C_r = \left( \frac{\partial Q}{\partial T} \right)_r; \quad C_v = \left( \frac{\partial Q}{\partial T} \right)_v. \quad (32)$$

Real gazlar uchun issiqlik sig'imi shu gazlarning bosimi va haroratiga bog'liq.

Izobar molar issiqlik sig'imi harorat o'zgarishi bilan quyidagi tenglamadan aniqlash mumkin:

$$C_{r,t} = 0,523(8,36 + 0,00892t)m_t^{\frac{3}{2}}, \text{kJ / kmol} \cdot K. \quad (33)$$

Bu yerda,  $m_t$  — karbonsuvchillarning (metandan geptangacha) molekular massasi;  $t$  — qayd qilingan harorat, °K.

Bu tenglama bo'yicha hisoblangan izobarik molar issiqlik sig'imi miqdoridagi xatolik 40° C dan 120° C gacha bo'lgan oraliqda.

$\text{CH}_4 - \text{C}_5\text{H}_{12}$  karbonsuvchillar uchun 10 % dan oshmaydi.

Gazlar aralashmasi uchun issiqlik sig'imi, gaz tarkibiga kiruvchi har bir komponentning issiqlik sig'imi yig'indisiga tengdir. Ya'ni:

$$C = C_1X_1 + C_2X_2 + C_3X_3 + \dots + CX. \quad (34)$$

Bu yerda,  $C_1, C_2, \dots, C$  — gaz tarkibidagi alohida komponentlarning issiqlik sig'imi;  $X_1, X_2, \dots, X$  — komponentlarning miqdori.

Izobar issiqlik sig'imi uchun izoxor issiqlik sig'imi ga bo'lgan nisbatan adiabata ko'sratkichi deb ataladi:

$$n = \frac{C_p}{C_v} \quad (35)$$

13-rasmda uglevodorod gazlarning solishtirma issiqlik sig'imiining haroratga nisbatan o'zgarishi atmosfera bosimi holati uchun keltirilgan.

Gazlarning entropiyasi<sup>1</sup> deb, shu gazlarga tashqaridan berilgan issiqlik miqdorini  $\Delta Q$  mutloq haroratga T bo'lgan nisbatiga aytildi:

$$\Delta S = \frac{\Delta Q}{T} \left[ \frac{j}{\text{°K}} \right] \quad (36)$$

Solishtirma entropiya esa, tabiiy gaz tarkibidagi har bir komponentning entropiyasini ( $\Delta S$ ) uning massasiga ( $m$ ) nisbati bilan aniqlanadi:

$$S = \frac{\Delta S}{m}. \quad (37)$$

Gazning haroratini oshirish uchun qanday miqdorda issiqlik kerakligini xarakterlovchi kattalikka *entalpiya*<sup>2</sup> deyiladi yoki boshqacha qilib aytganda, gazning issiqlik miqdoriga entalpiya

<sup>1</sup> Entropiya — grekcha burilish, o'zgarish degan ma'noni bildiradi.

<sup>2</sup> Entalpiya — grekcha isitaman degan ma'noni beradi.

deyiladi. Ya'ni entropiya gaz holatini xarakterlovchi kattalik bo'lib, issiqlik almashinishi qaysi yo'naliш bo'ylab kelayotganini bildiradi.

$$H = Q + PV. \quad (38)$$

Bu yerda,  $H$  — gaz entalpiyasi;  $Q$  — bir birlik gaz massanining ichki energiyasi yoki issiqlik miqdori;  $P$  — bosim;  $V$  — solishtirma hajmi.

Entalpiyaning haroratga nisbatan bir fazali modda uchun o'zgarish solishtirma issiqlik sig'imi orqali quydagicha ifodalanadi:


$$C_r = \left( \frac{\partial H}{\partial T} \right)_P = V - T \left( \frac{\partial V}{\partial T} \right)_P. \quad (39)$$

Entalpiyaga bosim ta'siri esa:


$$\left( \frac{\partial H}{\partial P} \right)_T = V - T \left( \frac{\partial V}{\partial T} \right)_P. \quad (40)$$

Tenglama bilan ifodalanadi. Bu yerda,  $V$  — gaz hajmi.

Gaz va gazzondensat konlari loyihalash va ishlatsiz jarayonida gazlarning issiqlik xossalarni xarakterlovchi kattaliklar deyarli hamma



13-rasm. Karbonsuvchil gazlarning solishtirma issiqlik sig'imiining atmosfera bosimida harorat o'zgarishi bilan bog'liqligi.



14-rasm. Joul-Tomson effektiga tegishli gaz harakati tasviri.

Gazlar o'z harakatida biror to'siqdan o'tgach, o'z haroratini o'zgartirar ekan. Bunday holni drossel (nemischa — *bo'g'ish, qisqartirish*) hodisasi deyiladi. Buni birinchi bo'lib Joul va Tomson aniqlaganlar.

Joul-Tomson tajribasida (14-rasm) diametrлari har xil bo'lgan trubkadan gaz harakatlantirilgan. Bu tajribani diametri turlicha trubkada ham o'tkazish mumkin, faqat trubkaning biror joyida gaz yo'liga qandaydir to'siq qo'yish kerak bo'ladi.

Gaz o'z harakatida  $d_1$  diametrдagi trubkadan  $d_2$  diametrдagi (bunda  $d_1 < d_2$ ) trubkaga o'tganda gaz holati tenglamasidagi deyarli barcha kattaliklar o'zgargan, shu hisobdan harorat ham birmuncha pasaygan. Bunday holat Joul-Tomson yoki drossel effekti deb yuritiladi.

Joul-Tomson effekti real gazlarning ichki energiyasi va harorati gazlar kengayishi natijasida yuz beradi. Bunday hollarda gaz harorati pasaysa, effekt manfiy, deb hisoblanadi.

Bosim 0,1 MPa ga pasayganda gaz haroratining o'zgarishi Joul — Tomson koeffitsiyenti deb yuritiladi. Bu koeffitsiyent manfiy yoki musbat bo'lishi mumkin.

Joul-Tomson koeffitsiyenti hajm va haroratga nisbatan o'zgarsiши quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$\mu_t = \left( \frac{\partial T}{\partial P} \right)_V = \frac{T \left[ \frac{\partial V}{\partial T} \right]_P - V}{C_p}. \quad (41)$$

Bu yerda,  $\mu_t$  — tabiiy gaz komponenti uchun Joul-Tomson koeffitsiyenti.

Joul-Tomson koeffitsiyenti gazning xarakterini «qatlam — quduq — gaz quvuri» tizimini hisoblashda ishlataladi.

Gazlarning yonish issiqligi deb, hajm birligidagi issiqlik miqdoriga aytildi. Tabiiy gazlarda yonish issiqligi 7000 dan 11000 j/m<sup>3</sup> gacha o'zgaradi.

Gazlar havo bilan aralashganda alanganish jarayoni hosil bo'lishi mumkin. Gaz miqdori havo bilan aralashish jarayonida pastki

42

alanganish chegarasidan yuqori alanganish chegarasigacha bo'lgan oralida o't olish yoki portlash xavfi tug'iladi. Bu chegaralar har bir gaz uchun alohida bo'lib, metan uchun molar miqdori bo'yicha pastki chegara 5 % va yuqori chegara 15 % ni tashkil qiladi.


#### TO'YINGAN BUG'NING TARANGLIGI

Aytib o'tganimizdek, qatlamda gazlar qatlam suvlari bilan o'zaro bog'liq bo'lar ekan. Demak, yuqori harorat tufayli ma'lum bir miqdorda suv bug'lari gazda erigan bo'lishi mumkin.

Gaz suv bug'i bilan to'yingan bo'lsa, u holda gaz va suv bug'idan iborat ikki fazali holat mayjud bo'ladi. Harorat va bosim o'zgarishidan bug'ning miqdori ( $0 \leq X \leq 1$ ) noldan birgacha bo'lgan kattalikda o'zgaradi. Bu yerda,  $X$  — bug' miqdori.

Agar karbonsuvchillar aralashma holatida bo'lsa, u holda umumiy bosim har bir komponent bug'larining tarangligiga ta'sir ko'rsatadi. Umumiy bosim oshib borishi, o'z navbatida alohida komponentlarning tarangligini oshishga olib keladi.

15-rasmida to'yingan karbonsuvchillarning bug' tarangligi o'zgarishi keltirilgan. Grafikdan ko'rinish turibdiki, bosim va harorat oshishi bug' tarangligini oshirar ekan. Bunda molekular massasi og'iroq bo'lgan karbonsuvchillarning bug' tarangligi bosimning kichik miqdorlarida oshsa, yengil karbonsuvchillarning bug' tarangligi oshishi bosimning katta miqdorida bo'lar ekan.



15-rasm. Sof karbonsuvchillar to'yingan bug' tarangligining «bosim-harorat»da bog'liqligi.


43

Tajribalar shuni ko'satdiki, alohida bir karbonsuvchilni bug' tarangligi faqat haroratga bog'liq bo'lib,  $Q=f(t)$  funksiya bilan xarakterlanadi.

Biror to'yigan karbonsuvchilning (suyuq va bug' holatdagi), bosim  $P$  va hajm  $V$  o'zgarishida o'zini qanday tutishini ko'rib chiqamiz. Masalan, propan izotermik o'zgarish jarayonini ko'raylik (16-a rasm). M nuqtada propan suyuq va bug' holatda turibdi. Agar bosimni oshirsak, u holda A nuqtagacha siqilish bo'lib, bu yerda faqat to'yigan bug' holati mayjud. MA oraliqdagi  $P$  va V kattaliliklar ko'paytmasi o'zgarmas holatga o'tadi va bosimni oshirish natijasida to'yigan bug'ni suyuq holatga o'tishiga olib keladi. A nuqtadan B nuqtagacha bo'lgan masofada bosim o'zgarmagan holda hajm kamayib boradi, chunki katta hajjni egallab turgan bug' sekin-asta suyuq holatga o'ta boshlaydi. Bu jarayon B nuqtada batamom tugaydi va ikki fazali (bug' va suyuqlik) propan bir fazaga — suyuq holatga o'tadi. B nuqtadan keyin hajm deyarli o'zgarmay faqat bosim o'zgaradi. Odatda bunday tajribalar bir necha xil haroratda olib boriladi. 16-a rasmida o'zgarishlar harorat  $0^\circ, 20^\circ, 30^\circ, 40^\circ$  va  $50^\circ$  C bo'lganda olingan.

Agar tajribalar natijasini «bosim — harorat» bog'lanishidagi grafigi chizilsa (16-b rasm), olingen egri chiziq shu modda uchun bug' taranglik egri chizig'ini beradi.

Tabiy gaz aralashmasi holati faqat haroratga bog'liq bo'lmay, balki bosimga ham bog'liq, ya'ni  $Q_{ar}=f(P)$  mayjud.



16-rasm. Propan gazining izotermik o'zgarish jarayoni tavsiyi:  
a — bosim-hajm bog'liqligi; b — bosim-harorat bog'liqligi.

44

Molekular fizikidan Dalton qonuni bo'yicha gazlar aralashmasi ning bosimi shu aralashmadagi gazlarning parsial bosimlari yig'indisiga teng ekanligi ma'lum. Ana shu komponentlarning parsial bosimi o'z navbatida komponentning molar miqdori uning bug' tarangligi ko'paytmasiga teng bo'lar ekan.


Gazlarning bug' tarangligi ularning fazaviy o'zgarishlariga ta'sir qilib, odatda bir muncha kattaroq bosim qiymatlarida fazaviy o'tishlar boshsanadi.

#### KRISTALLOGIDRATLAR VA ULARNING HOSIL BO'LISH SHAROTLARI

Gaz va gazokondensat konlarini sovuq iqlim sharoitlarida ishlatalishda gazlar tarkibida kristallogidratlar hosil bo'lish hodisalari uchrab turadi. Gaz quvuri ichida ham qattiq modda — kristallogidrat hosil bo'llishi, quvurni buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, ayniqsa, keyingi vaqtarda Sibir va Chekka shimal rayonlaridagi konlarni ishlatalish munosabati bilan kristallogidratlarni tuzilishi, ularni hosil bo'llishiga qarshi kurash yo'llarini o'rganish muhim vazifa bo'lib goldi.

Kristallogidratlar (bundan buyog'iga faqat gidratlar deb aytamiz) tashqi ko'rinishdan oq kristall modda bo'lib muz yoki qattiq qorga o'xshaydi. Gidratlarni asosiy tarkibi suv molekulalarini karbonsuvchil molekulalari bilan birlashishidan hosil bo'ladi.

Agar gidratlarning kristall panjarasini tekshirib ko'rsak, bu panjarada bir modda molekulalari (suv) orasida boshqa bir modda (karbonsuvchil) molekulalari joylashib olganini ko'rishimiz mumkin. Bunday joylashish va molekulalar orasidagi tortishish Van der Vaals kuchlari yordamida vujudga keladi. Bu kuchlar natijasida gidratlar ikki turda hosil bo'llishi mumkin (17-rasm).



17-rasm. Gidratlarning 1 (a) va 2 (b) turdag'i tuzilish kristall panjaralari.

45

Birinchi turdagidan hidratlar (17-a rasm) hosil bo'lishida suvning 46 molekulasi 8 ta karbonsuvchil molekulasi bilan kristall panjara yasaydi va bu panjara ikki xil — katta va kichik bo'shliqlarni hosil qiladi. Kichik bo'shliqlar ikkita bo'lib, ularning diametri 0,52 nm ga teng bo'ladi. Katta bo'shliqlar soni oltita, ularning diametri 0,59 nm ga teng. Bu bo'shliqlarning hammasi hidrat hosil qiluvchi moddalar bilan to'lganda, bunday hidratlar 8 M 46 H<sub>2</sub>O yoki M 5,75 H<sub>2</sub>O ko'rinishda yoziladi.


Ikkinci turdagidan hidratlar (17-b rasm) hosil bo'lishida suvning 136 molekulasi 8 ta karbonsuvchil molekulasi bilan kristall panjara yasaydi. Bu panjalaralar 16 ta bo'lib, diametri 0,48 nm ga teng, katta bo'shliqlar 8 ta, diametri 0,69 nm ga teng. Bu kichik va katta bo'shliqlarning hammasi hidrat hosil qiluvchi moddalar bilan to'lganda, bunday hidratlar 8 M 136 H<sub>2</sub>O yoki M 17 H<sub>2</sub>O ko'rinishda yoziladi.

Hidratlar hosil bo'lish jarayoni juda murakkab, buning uchun bir vaqtning o'zida suv, gaz, suyuq hidrat hosil qiluvchi modda va muz o'rtasida bosim bilan harorat o'zgarishi natijasida geterogen tizimlarning muvozanat holatlari mavjud bo'lishi kerak. Bu holatlarni 18-rasmagi diagrammadan yaqqol ko'rish mumkin.

Bu yerda, I — gazsimon hidrat hosil qiluvchi karbonsuvchil, II — hidrat hosil qiluvchi suyuq eritma, III — suv eritmasi hidrat hosil qiluvchi modda holatida, IV — muz holatlari.

18-rasmagi «C» nuqtada to'rt xil xususiyatga ega modda mavjud, ya'ni karbonsuvchil, hidrat hosil qiluvchi suyuq eritma, suv va hidrat moddalarini bor murakkab geterogen sistemasi mavjud. Xuddi shuningdek, B nuqtada uch xil xususiyatga ega geterogen sistemasi bor. Bu sistemalarni parchalash uchun harorat yoki bosimni birozgina o'zgartirish kifoya, shunda geterogen sistemasi parchalanib, alohida bir turkumdagi moddalarga aylanadi.

Gazlarning hidratlanishini oldini olish uchun avvalo, yer ostidan olingan gaz maxsus qurilmalarda namlikdan tozala-



18-rasm. Hidratlar hosil bo'lish fazaviy diagrammasi.

<sup>1</sup> Geterogen tizimlar (getero — grekcha «har xil») makroskopik bir xil bo'lmagan fizik-kimyoviy sistema, har xil xossalarga (suyuq, kattiq, gaz) ega bo'lgan bo'laklardan iboratdir.

nadi, quritiladi. Quritish shu darajada olib boriladiki, to gazni quvurlardan haydash normal (ya'ni avariylasiz yoki hidratsiz) sharoitlarda bo'lishi ta'minlanadi. Ba'zan gaz yig'uvchi shoxobchalarga yoki uzoqqa gaz uzatuvchi quvurlarga antigidrat, ya'ni hidrat hosil qilishning oldini oluvchi maxsus moddalar — ingibitorlar ham qo'shib haydaladi.

Shuningdek, hidrat hosil bo'lishdan paydo bo'lgan to'siqlarni yo'qotish uchun ham ingibitorlardan foydalilanadi, ba'zan esa quvur ichidagi gaz bosimini o'zgartirish (ko'pincha pasaytirish) yoki haroratini oshirish natijasida ham hidratlar yo'q qilinadi.

### GAZ-GIDRAT KONLAR XARAKTERISTIKASI

Olimlar o'z tadqiqotlari asosida tabiatda gaz-hidrat konlari (GGK) ham bo'lishi mumkinligini oldindan aytib berdilar. Keyinchalik bunday konlar yer qatlaming doimiy muzlangan joylarida, Tinch okeani, Shimoliy muz okeani havzalarida topildi. Bu yerlarda qatlamlarning chuquq joylashganligiga qaramasdan, harorat niyoyatda pastligi (ayniqsa qatlam ichidagi suvning harorati pastligi) va bosimning yuqori ekanligi natijasida GGK vujudga keladi.

GGK o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. Bunday konlarda bir birlik hajmdagi hidratda bo'lgan gaz, gazning tarkibiga bog'liq emas ekan, qatlamlarning hidratlar bilan to'yinganligi faqat qatlam bosimi, harorati hamda hidrat hosil qiluvchi suv va karbonsuvchiliga bog'liq GGK karbonsuvchillar bilan to'yinmagan qatlam suvlarini mavjud hollarda ham hosil bo'lishi mumkin. Hidratli konlar yuzaga kelishi uchun litologik to'siqlar bo'lishi shart emas, chunki bunday konlarning o'zi litologik to'siq vazifasini o'tashi mumkin va bunday konlar ostida karbonsuvchillar sof holda to'planishi mumkin.

GGK lar ham xuddi oddiy konlar kabi qatlam chekka suvlarini yoki qatlam osti suvlarini bilan chegaralanishi mumkin. Ba'zan gaz-gidrat to'plami ustida erkin holda gaz va shu to'plam ostida esa gazokondensat yoki neft to'plami uchrashi mumkin.

GGK larni topishda, asosan, hidrat bilan to'yingan qatlamlarning elektro'tkazuvchanligi, tovush to'qinlarining o'tish tezligi hamda qatlam harorating nomutanosibligi kabi ko'rsatkichlardan foydalilanadi. Umuman GGK larni topishda geofizik usullarni qaysi birlari qo'llanilishi haqidagi «Dala geofizikasi» fanidan batafsil ma'lumotlar olish mumkin.

GGK larni ishlatalish ham oddiy gaz konlarini ishlatalishga nisbatan birmuncha murakkabroq. Buning uchun avvalo kondagi hidrat

holdagi gazni oddiy holga o'tkazish kerak, ya'ni gidrat holdagi fazadan gaz holdagi fazaga o'tkazish kerak bo'ladi. Ana shu maqsadlar da, gidratlar fazasini o'zgartirish uchun 15-rasmning IV holatidagi harorat yoki bosim o'zgartiriladi. Asosan harorat o'zgarishi osonroq bo'lgani uchun shu usul qo'llaniladi, ya'ni gidratlarning parchalanishi jarayonini tezlashtirish uchun har xil katalizatorlar qo'shib haydash mumkin.

Xuddi shu maqsadda termokimyoviy (ya'ni issiqlik chiqaruvchi kimyoviy usullar), elektrotovush usullar yoki gidratlar parchalanishi mumkin bo'lgan pastroq bosim hosil qilinib, GGK larni oddiy gaz koniga aylantirish mumkin. GGK lardagi gidratlar parchalangan dan so'ng oddiy gaz konidek ishga tushiriladi.

#### KONDENSATLARNING FIZIK XOS SALARI VA TARKIBI

Avval aytib o'tganimizdek, kondensatlar tarkibiga tabiiy holatda qatlama suyuq bo'lgan eng yengil karbonsuvchillar kiradi. Bularga pentan (normal va izomer holda), geksan, geptan kabi yengil karbonsuvchillar kiradi. Kondensatlar gazokondensat konlariida tabiiy gaz tarkibida erigan holda uchraydi.

Kondensatlar qanday holatda ekanligiga qarab beqaror va barqaror kondensatlarga bo'linadi. Beqaror kondensat — qatlamaq yoki kondensatlarini ajratib oladigan asbob-uskunalargacha bo'lgan harakatdagi gazlarda erigan kondensatlarga aytildi. Barqaror kondensatlar deb, maxsus kondensat ajratib oluvchi asbob-uskunalarda ajratib olingan tayyor holdagi mahsulotga aytildi.

Shuni ham aytish kerakki, qatlam ichida boshlangan gazkondensat harakati, to u kondensat ajratuvchi asbob-uskunalarga borgancha juda murakkab jarayonlardan o'tadi. Bu jarayonlarda erigan holdagi kondensat, boshlang'ich termodinamik ( $R_{bosh}$ ,  $T_{bosh}$ ) holatlar o'zgarishi natijasida gazdan ajralib chiqib, qatlam g'ovaklarida cho'kib qoladi, ayniqsa, bunday ajralishlar quduq ostida yoki quduq atrofida ko'plab yuz berishi mumkin. Natijada, bu ajralish va cho'kib qolishlar kondensatning ma'lum bir qismini qatlam ichida qolib ketishga, ya'ni olib bo'limas yo'qotishlarga olib keladi.

Kondensatlarini yo'qotilishiga termodinamik holatlar o'zgarishi dan tashqari yana juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, gazkondensat aralashmaning qatlam ichidagi va quduqdan ko'tarilishi dagi harakat tezligi bosimlar va haroratlar ayirmasi, gazkondensat ajratib oluvchi asbob-uskunalar qanchalik yaxshi ishlashi kabi omillar

ta'sir ko'rsatishi mumkin. Odatda qatlam holatida aniqlangan beqaror kondensatdan 60—85 % gacha barqaror kondensat olish mumkin.

Gazkondensat koni ochilgandan so'ng, quduq ostiga namuna ola-digan maxsus asbob (namunaoljich PD — ZM) tushirilib, qatlamdan chiqayotgan karbonsuvchillar aralashmasidan yoki quduqning og'zidan chiqayotgan aralashmadan namuna olinib, laboratoriyalarda o'rganindi. Bu tadqiqotlar natijasida qatlam ichidagi gazkondensat aralashmasida kondensatning potensial miqdori aniqlanadi. Odatda kondensatning potensial miqdori, bir birlik gaz hajmida qancha kondensat borligini bildiradi va  $\text{g/m}^3$ ,  $\text{sm}^3/\text{sm}^3$  larda o'chanadi.

Har qanday suyuqlik kabi kondensatlar ham ma'lum fizik xossalarga ega. Bulardan asosiyları zichlik, qovushqoqlik va molekular massa.

Moddaning zichligi deb, tinch holatdagi bir hajm birlikdagı massasiga aytildi:

$$\rho = \frac{M}{V} \text{ kg/m}^3, \text{ g/sm}^3. \quad (42)$$

Kondensatlarning zichligi haqida so'z yuritilganda, odatda ko'proq barqaror kondensat ko'zda tutildi. Chunki beqaror kondensatlar-dagi zichlik doimo o'zgarib turadi. Barqaror kondensatning ( $C_{5+10}$ )<sup>1</sup> zichligini bevosita areometr orqali o'chab aniqlash mumkin. Shuningdek, kondensat zichligini maxsus hisoblashlar orqali ham aniqlash mumkin. Buning uchun kondensatning tarkibi, molekular massasi  $M_k$  yoki yorug'lik sindirish koefitsiyenti  $n_d$  ma'lum bo'lganda Kreg tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$\rho_{C_{5+10}} = \frac{1,03M_k}{M_k} \text{ g/sm}^2 \quad (43)$$

$$\rho_{C_{5+10}} = 1,90646n_d - 1,96283 \text{ g/sm}^3 \quad (44)$$

Kondensat molekular massasini Xresh tenglamasi orqali aniqlash mumkin:

$$\lg M_{C_{5+10}} = 1,939436 + 0,0019764t_k + \lg(2,1500 - n_d) \quad (45)$$

Bu yerda,  $t_k$  — kondensatning o'rtacha qaynash harorati,  $^{\circ}\text{C}$ .

Yuqoridaq tenglamalar bo'yicha aniqlangan kondensat zichligi, kondensatning tarkibiy qismi va molekular massasiga qarab aniqlangan zichlikka nisbatan biroz xatolik bilan aniqlanishi mumkin.

$S_{5+10}$  degan ifoda o'z ichiga pentan ( $C_5$ ) va undan yuqori eng yengil suyuq karbonsuvchillar yig'indisini oladi.

Barqaror kondensatning zichligini bosim va haroratga nisbatan o'zgarishi quyidagi empirik<sup>1</sup> tenglamadan ko'rinish turibdi.

$$\rho_{C_{5+10}} = \left[ 0,762 + 0,76^{-4} \left( \frac{P}{P_{at}} - 1 \right) \right] \cdot [1 - 6,64^{-4} (t - 50)] \quad (46)$$

Bu yerda,  $t=30+200^{\circ}\text{C}$ ,  $R=1+50$  MPa.

Kondensatning zichligini Kats va Stending grafoanalitik usuli bilan ham aniqlash mumkin.


Kondensatning qovushqoqligi ham bevosita maxsus asbob — qovushqoqligini o'chagichi (viskozimetrik) orqali o'lchanishi yoki ma'lum hisoblashlar orqali aniqlanishi mumkin.

Barqaror kondensatning dinamik qovushqoqligi bosim va harorat o'zgarganda qanday o'zgarishi quyidagi empirik tenglamadan aniqlanishi mumkin.

$$\mu_{C_{5+10}} = \left( \frac{100}{t} \right)^{0,75} \cdot \left( 0,34 + 4 \cdot 10^{-4} \frac{P}{P_{at}} \right) m \cdot Pa \cdot s \quad (48)$$

Bu yerda,  $t = 30 + 200^{\circ}\text{C}$ ,  $R = 1 + 50$  MPa.

Barqaror kondensatning dinamik qovushqoqligini atmosfera bosimida harorat va molekular massaga qarab qanday o'zgarishi 19-rasmda keltirilgan.



19-rasm. Suyuq karbonsuvchillarning dinamik qovushqoqligi harorat va molekular massaga bog'liqligi.

<sup>1</sup> Empirik tenglamalar laboratoriya tajribalari natijasida keltirib chiqariladi.

## KONDENSATLARNI TADQIQ QILISH NATIJALARI

Kondensatlarni tajriba xonasida har xil usullar bilan tadqiq qilish mumkin. Bu tadqiqotlar natijasida kondensatning asosiy fizik xossalari bilan bir qatorda uning qaynash harorati, qotish harorati, undan karbonsuvchillarni ajralib chiqishi kabilarni aniqlash mumkin.

Tadqiqotlar maxsus tajriba asbob-uskunalarida olib boriladi. Bu tadqiqotlarda kondensat harorati asta-sekin pasaytirilib yoki oshirilib boriladi va shu jarayonda kondensatda bo'layotgan o'zgarishlar qayd qilib boriladi.

Kondensatning harorati pasayishi natijasida uning tarkibidan parafin, serezin moddalarini ajralib chiqqa boshlaydi. Oddiy suyuqliklarning harorati pasaytirilganda, ma'lum bir sharoitda suyuq holatdan qattiq holatga o'tadi. Masalan,  $0^{\circ}\text{C}$  da suv suyuq holatdan qattiq — muz holatiga o'tadi. Lekin kondensat yoki boshqa neft mahsulotlarining harorati pasaytirilganda, qattiq holatga o'tish birdaniga ma'lum bir haroratda emas, balki sekin-asta o'tishi mumkin. Bu holda kondensatning avval rangi xiralaşadi va sekin-asta qotadi.

Xiralanish boshlangan harorat kondensatning *xiralanish harorati* deyiladi. Odatda xiralanish jarayoni kondensat tarkibidan kristallsimon parafin moddalarining ajralib chiqishidan boshlanadi.

Parafin-serezin moddalarining ko'plab ajralib chiqishi kondensat tarkibida kristallanish holatiga, sekin-asta kondensat tarkibida kristallar ko'payib, oxiri qotish holatiga olib keladi.

Kondensatning kristallanish boshlangan harorati uning *kristallanish harorati* deb, kondensatning qotish boshlangan harorati esa *kondensat qotish harorati* deyiladi.

Xuddi shuningdek, kondensat harorati oshganda qaynash boshlangan harorati *kondensatning qaynash harorati* deyiladi.

Shunday qilib, kondensatni qaynashidan to qotishigacha bo'lgan oraliqda xiralanish va kristallanish holatlari ham bo'ladi.

## NEFT TARKIBI VA TASNIFI

Neft tabiiy aralashma, asosan, karbonsuvchillardan tashkil topgan bo'ladi. Uning tarkibida karbon 84 — 86 %, vodorod 11 — 14 % ni tashkil etadi. Bu asosiy ikki elementdan tashqari neft tarkibida kislorod, oltingugurt, azot, shuningdek, juda oz miqdorda (mikrokomponent holatda) xlor, yod, fosfor, margimush, kaliy, natriy, kalsiy, magniy ham bo'lishi mumkin.

Umumiy holda neft tarkibidagi karbonsuvchillar  $C_nH_{2n+2}$  ifoda orqali aniqlanadigan metan gomologlari qatoridan iborat. Neftning tarkibidagi karbonsuvchillar uchta katta singfa bo'linadi: alkanlar ( $C_nH_{2n+2}$ ), polimetilen yoki naftenli karbonsuvchillar ( $C_nH_{2n}$ ) va aromatik karbonsuvchillar. Neft tarkibiga kiruvchi karbonsuvchillardan  $C_8H_{18}$  dan  $C_{17}H_{36}$  gachasi suyuq holatda va  $C_{18}H_{38}$  dan  $C_{56}H_{114}$  gacha qattiq holatda bo'ladi. Qattiq holatdagi karbonsuvchillarni asosan parafin-serezin moddalarini tashkil qiladi.

Karbonsuvchil bo'Imagan moddalar neft tarkibida kislород, oltingugurt, azot birikmalar (oksid) holida yoki metalloorganik birikmalar holida uchrashi mumkin.

Neft tarkibida yuqorida aytib o'tilgan moddalar yoki birikmalar dan tashqari merkaptanlar mum va asfalten moddalarini ham mavjud.

Merkaptanlar (R-SH) tuzilishi va tarkibiga qarab spirtlarga o'xshash. Merkaptanlarning asosiyasi etilmerekaptan va uning gomologlari neft tarkibida oddiy sharoitlarda suyuq holda, metilmerekaptan  $CH_3SH$  esa gaz holda bo'ladi. Qatlam suvlarini tarkibidagi ishqorlar yoki oksidlar bilan merkaptanlar reaksiyaga kirishib, juda o'tkir va tez zanglatuvchi merkaptidlarni hosil qiladi.

Asfalt-mum aralashmalar ba'zan neft tarkibining 40% ini tashkil etadi, u molekular organik birikmaldan iborat, tarkibi uglerod, vodorod, kislород, oltingugurt va azotdan tashkil topgan. Bu aralashmalar ko'proq neytral mumlardan tashkil topgan, oddiy holatda suyuq yoki yarim suyuq holatda bo'ladi. Rangi to'qsariqdan jigarranggacha o'zgarib, zichligi 1000—1070 kg/m<sup>3</sup> tashkil qiladi. Rangining to'q bo'lishi asosan neytral mumlar ko'pligidan dalolat berib turadi. Neytral mumlar juda yaxshi adsorbsiyalanadi va natijada asfalten holatiga keladi.

Parafinlarga karbonsuvchillarning  $C_{18}H_{38}$  dan  $C_{35}H_{72}$  gacha bo'lgan qismi kiradi. Ularning erish harorati 27—71°C ni tashkil etadi. Parafinlar neft harakatlanayotgan vaqtida, termodinamik sharoitlar o'zgarishi natijasida mayda plastikasimon kristall holdagi tasmachalar hosil qiladi. Bu tasmachalar o'zaro birlashib, har xil tugunchalar hosil qilishi mumkin. Bu jarayonlar natijasida parafin moddalarini neftdan ajralib chiqqa boshlaydi. Ayniqsa, ajralib chiqish jarayoni neft qudug' ichida yoki yig'uvchi quvurlar ichida kuchayadi va natijada quvurlarning ichki yuzasiga parafin moddalarini yopishib, neft harakatini qiyinlashtiradi, natijada, umuman to'xtatib qo'yishi mumkin. Parafinlar neft tarkibida 1,5—2,0 % bo'lsa, quvurlar ichida ajralib chiqishi boshlanadi, ayniqsa, bu jarayon neft haroratining pasayishi va undan erigan gazlarni ajralib chiqishi bilan keskin tezlashadi.

Neft tarkibidagi serezinlarga karbonsuvchil qatoridagi eng og'ir birikmalar, ya'ni  $C_{36}H_{74}$  dan yuqoridagilari kiradi. Serezinlarning erish harorati 65—88° C ni tashkil qiladi. Harafinlarga nisbatan serezinlarning zichligi va qovushqoqligi ancha kattaroq. Serezinlarning kristallanish jarayoni juda kichik ignasimon kristall zanjirlardan boshlanadi. Ammo bu ignasimon kristalllar bir-biri bilan o'zaro birlashmaganligi tufayli, qotib qoluvchi moddalar hosil qilmaydi va neft harakatiga sezilarini ko'sratmaydi.

Neftning tarkibida, qatlam holatda albatta qandaydir miqdorda erigan gaz bo'ladi. Neft harakatga kelgandan keyin va ayniqsa, quduq ichiga kirkandan keyin, erigan gaz ajralib chiqqa boshlaydi.

Neft tarkibidagi oltingugurt, mum va parafin miqdoriga qarab, quyidagi tasnifga ega:

a) oltingugurt bo'yicha:

- kam oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori (hajm bo'yicha) 0,5 % gacha bo'lishi mumkin;
- oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori 0,5 + 2,0 % gacha bo'lishi mumkin;
- ko'p oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori 2,0 % dan bo'lishi mumkin.

b) mum miqdori bo'yicha:

- kam mumli, bunda mum miqdori (hajm bo'yicha) 5 % gacha bo'lishi mumkin;
- mumli, bunda mum miqdori 5—15 % gacha bo'lishi mumkin;
- ko'p mumli, bunda mum miqdori 15 % dan yuqori bo'lishi mumkin.

c) parafin bo'yicha:

- kam parafinli, bunda parafin miqdori (hajm bo'yicha) 1,5 % gacha bo'lishi mumkin;
- parafinli, bunda parafin miqdori 1,5—6,0 % gacha bo'lishi mumkin;
- ko'p parafinli, bunda parafin miqdori 6 % dan yuqori bo'lishi mumkin;

Neftning bu tasnididan tashqari davlat standartlari bo'yicha uch xil turkumi (kategoriya) mavjud. Bu turkumlar neft tarkibida suv, mexanik aralashmalar miqdoriga qarab ajratilgan.

Konlardagi neftni tayyorlash, tozalash, tindirish va uzoqqa jo'natish asbob-uskunalarining quvvati, ularning soni, shuningdek, kerakli har xil kimyoiy moddalar yuqorida keltirilgan tasnif bo'yicha davlat tomonidan ajratib beriladi. Bu asbob-uskunalar quvvatiga qarab katta

mablag' talab qiladi (ba'zan esa chet ellardan valuta hisobiga sotib olinadi), shuning uchun kondagi neft tarkibini puxta o'r ganib, keltirilgan tasnif bo'yicha aniq bilib, faqat shundan so'ng kerakli asbob-uskunalar tanlanadi.

#### NEFTNING ASOSIY FIZIK XOSSALARI

Qatlam holatidagi neft bilan yer yuziga olib chiqilgan neft o'zining fizik xossalari bilan sezilarli darajada farq qiladi. Bunga asosiy sabab, qatlam holatidagi neft katta bosim va yuqori harorat ostida bo'lib, tarkibida qandaydir miqdorda erigan gaz mavjud. Yer yuziga olib chiqilgan neft esa oddiy sharoitda bo'lib, tarkibida erigan gazlar deyarli qolmaydi. Shuning uchun ham qatlam holatidagi va yer yuzidagi neft o'rtasida kattagina farq bor. Neftning asosiy fizik xossalari uning zichligi, qovushqoqligi, sivilishi, sirt taranglik kuchlari, issiqlik xossalari, elektrik va optik xususiyatlari va boshqalar kiradi.

Quyida ana shu xossalarni qisqacha tahlil qilib chiqamiz.

Neft zichligi — bir hajm birlikdagi neft massasiga aytilib, g/sm<sup>3</sup> va t/m<sup>3</sup> da o'lchanadi. Qatlam holatidagi neft zichligi, erigan gaz mavjudligi tufayli yer yuzidagi neft zichligidan biroz kichik. Bosim oshishi natijasida neftning zichligi kamayib boradi, lekin bosim neftning gaz bilan to'yinganlik bosimidan oshgandan keyin zichlik ham osha boshlaydi (20-rasm).



Agar neft tarkibida ko'p miqdorda azot yoki karbonat angidrid (IV) oksidi erigan bo'lsa, u holda bosim oshishi natijasida neft zichligi ham oshishi mumkin.

*Neft qovushqoqligi* deb, suyuqlik ichidagi bir qatlarning ikkinchi bir qatlarga nisbatan siljishiga qarshilik ko'rsatish qobiliyatiga aytildi. Qovushqoqlikni dinamik (harakatdagi holat uchun) va kinematik (tinch holat uchun) turlari bo'ladi. Qatlamdagagi neft qovushqoqligi bilan oddiy sharoitdagi neft qovushqoqligi o'rtasida katta farq mayjud bo'lib, erigan gaz miqdori ko'payishi, haroratning oshishi qovushqoqlikni keskin kamaytirsa, bosimning oshishi qovushqoqlikni biroz oshishiga olib keladi.

Neftning qovushqoqligi, shuningdek, erigan gaz tarkibi va qanday gazlar erigan

20-rasm. Neft zichligini bosim o'zgarishi bilan bog'liqligi:  
 $P_t$  — neftning gaz bilan to'yinganlik bosimi.

54



21-rasm. Neft qovushqoqligining neftga gaz eriganligiga ( $\alpha$ ), haroratga ( $T$ ) va bosimga ( $R$ ) nisbatan o'zgarishi:  $P_t$  — neftni gaz bilan to'yinganlik bosimi.

bo'lsa, qovushqoqlik ortadi va karbonsuvchil gazlar ko'p erigan bo'lsa, qovushqoqlik kamayadi.

Shuni ham aytish kerakki, bosim kamayishi bilan neftning qovushqoqligi biroz kamayadi. Bosim neftni gaz bilan to'yinganlik bosimidan o'tib, kamayishi davom etsa, qovushqoqlik orta boshlaydi.

*Neftning siqiluvchanligi* deb, uni tashqi muhit ta'siri ostida o'z hajmini o'zgartirishiga aytildi. Bu xossa siqiluvchanlik koefitsiyenti bilan xarakterlanadi, ya'ni:

$$\beta_n = -\frac{1}{V} \cdot \frac{\Delta V}{\Delta P} [Pa^{-1}] \quad (48)$$

Bu yerda,  $V$  — neftning boshlang'ich hajmi;  $\Delta V$  — o'zgarilgan hajm;  $\Delta P$  — o'zgarilgan bosim.

*Siqiluvchanlik koefitsiyenti* deb, bosim bir birlikka ( $\Delta P$ ) o'zgarganda neft hajmi qancha o'zgarishini ( $\Delta V$ ) ko'rsatuvchi kattalikka aytildi.

Siqiluvchanlik koefitsiyenti, shuningdek, neftni taranglik xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Bu koefitsiyentga, ayniqsa, neftda erigan gaz miqdori yuqori ta'sir ko'rsatadi. Agar neftda yengil karbonsuvchil gazlar ko'proq erigan bo'lsa, siqiluvchanlik koefitsiyenti juda katta qiymatga ega ( $1,4 \cdot 10^{-2}$  MPa<sup>-1</sup>) va neftda erigan gazlar juda kam bo'lsa, siqiluvchanlik koefitsiyenti juda kichik ( $4 \cdot 10^{-4}$  MPa<sup>-1</sup>) bo'ladi.


Siqiluvchanlik koefitsiyenti haroratga to'g'ri va bosimga teskari proporsionaldir (22-rasm).

Neftning hajm koefitsiyenti qatlam ichidagi va yer yuzidagi neft hajmlarining nisbati bilan aniqlanadi.

$$b = \frac{V_{k,i}}{V_{e,y}} \quad (49)$$

Bu yerda,  $V_{k,i}$  — qatlam ichidagi neft hajmi;  $V_{e,y}$  — yer yuzidagi erigan gazdan xolis bo'lgan neft hajmi.

55



22-rasm. Neftning siqiluvchanlik koeffitsiyentining harorat (a) va bosim (b) o'zgarishiga bog'liqliligi.

Qatlam holatidagi neft hajmi yer yuzidagi erigan gazdan xolis bo'lgan neft hajmidan katta, shuning uchun ham neftning hajm koeffitsiyenti bordan katta bo'ladi.

Neft kirishishi neftni qatlam ichidan yer yuziga olib chiqqanda qanchalik o'zgarishini foiz hisobida ko'rsatadi, ya'ni:

$$U = \frac{b-1}{b} \cdot 100. \quad (50)$$

Odatda neftning kirishishi laboratoriya usullari bilan aniqlanadi. Neft kirishishi 10—40 % larni tashkil qilishi mumkin.

*Neft to'yinganligi bosimi* deb, izotermik kengayish jarayonida neftdan erigan gaz ajralib chiqishi boshlangan maksimal bosimga aytildi. To'yingan bosimi ( $R_p$ ) asosan neft va erigan gaz hajmlari nisbati, gaz tarkibi va qatlam harorati bilan bog'liq. Gaz tarkibidagi neftda yomon eriydigan moddalarning ko'payishi to'yinganlik bosimini ortishiga olib keladi.

Haroratning oshishi to'yinganlik bosimini oshirishga olib keladi.

Qatlam sharoitida to'yinganlik bosimi qatlam bosimiga teng yoki undan kichik bo'lishi mumkin. Agar to'yinganlik bosimi qatlam bosimi bilan teng bo'lsa, u holda qatlamdagisi neft gaz bilan to'liq to'yingan bo'ladi, ya'ni shu sharoitlarda neftda bundan ortiq boshqa gaz erimaydi. Agar to'yingan bosim qatlam bosimidan kichik bo'lsa, neft gaz bilan to'la to'yinadi. Bunday hollarda neftda erigan gaz qatlam bosimi to'yingan bosim bilan tenglashganda yoki undan kichik bo'lgandagina ajralib chiqqa boshlaydi.

Shuni aytilib o'tish kerakki, to'yingan bosim kattaligiga qarab konlarni qanday ishlatish kerakligi tanlanadi.

Qatlam bosimi to'yingan bosimga nisbatan pastroq bo'lganda, konlarni ishlatish biroz qiyinlashadi, chunki bu hollarda qatlamda harakat qilayotgan neftdan uzlusiz ravishda gaz ajralib chiqqa boshlaydi va neft harakatiga biroz qiyinchiliklar keltirishi mumkin.

#### GAZLARNING NEFT VA SUVDA ERISHI

Avvalgi bo'limlardan ma'lum bo'lishicha, neftdagi erigan gaz miqdoriga qarab neftning asosiy fizik xossalari keskin o'zgarar ekan. Shuning uchun qatlamdagisi neftda boshlang'ich holatda qancha gaz eriganligini aniq bilish muhim ahamiyatga ega.

Neft tarkibining turli-tumanligi, qatlamda bosim va haroratning keng o'zgarishi boshlang'ich erigan gaz miqdorini hisoblash yo'li bilan aniqlashni biroz qiyinlashtiradi. Gaz eruvchanligi tajribalarda — bosim va haroratni o'zgartirish orqali aniqlanadi.

Neftda gazning erishi kichik bosimlarda Genri qonuniga bo'ysunadi, ya'ni

$$V_g = d \cdot P \cdot V_n; \quad (51)$$

$$\alpha = \frac{V_g}{P \cdot V_n}. \quad (52)$$

Bu yerda,  $V_g$  — neftda erigan gaz miqdori;  $\alpha$  — gaz eruvchanlik koeffitsiyenti;  $P$  — bosim;  $V_n$  — neft hajmi.

52-tenglamadan ko'rinib turibdiki, gaz eriganlik koeffitsiyenti bosim bir birlikda oshganda neftda qancha gaz erishi mumkinligini ko'rsatadi. Gaz eruvchanlik koeffitsiyenti bir xil kattalikka ega bo'imay, doimo o'zgarib turadi. Bunga neft tarkibi, bosimi, harorati va bir qancha boshqa omillarni o'zgarib turishi sababdir.

Neft tarkibidagi alohida moddalar har xil gaz erituvchanlik qobiliyatiga ega, bu moddalarning molekular massasi oshgan sari, gaz erishish qobiliyati ham ortib boradi. Shuni ham aytish kerakki, neftda karbonsuvchil gazlarining erish qobiliyati nokarbonsuvchil gazlarga (azot) nisbatan ancha yuqori.

Neft tarkibida parafin moddasi ko'p bo'lsa, gaz erish koeffitsiyenti ham yuqori va aksincha, agar aromatik moddalar ko'p bo'lsa, gazning neftda erishi ancha qiyinlashadi.

Erigan gazga boy neftning bosimi sekin-asta kamaytirilsa, darrov gaz ajralib chiqqa boshlaydi. Bir birlik hajmdagi neftdan bosim bir birlikka kamayganda ajralib chiqqan gaz miqdoriga *gazsizlanish koeffitsiyenti* deyiladi.

Gazlarning suvda erishi neftda erishiga nisbatan birmuncha farqlidir. Karbonsuvchil gazlarning suvda erishi uncha katta miqdorda bo'lmaydi, lekin tabiiy gaz konlariда gaz bilan suvning tutash yuzalari juda katta maydonni tashkil qilganligi tufayli, umumiylar erigan gaz miqdori anchagini katta miqdorni tashkil qilishi mumkin. Shuning uchun gazlarning suvda erish miqdorini aniqlash mumkin:

Odatda tabiiy gazning suvda qanday miqdorda erishi, gaz tarkibidagi har bir alohida gaz tarkibiy qismining suvda erishiga bog'liq. Bunda har bir komponentning molekulalarini suvda qancha eriganligini bilsiz kerak bo'ladi. Umumiylar holda, tabiiy gazlarning suvda erishini quyidagi tenglamalardan aniqlash mumkin:

$$N_i = \frac{n_i}{\sum n_i + n_c} \quad (53)$$

$$b_i = \frac{V_i}{\sigma} \quad (54)$$

$$c_i = \frac{V_i}{V_c} \quad (55)$$

Bu yerda,  $N_i$  — suvda erigan tabiiy gazning molar birlidagi miqdori;  $n_i, n_c$  — mos ravishda  $i$  komponentning suvdagi va suvning molar miqdori;  $b_i$  — suvda erigan gazning bir birlik massadagi miqdori;  $c_i$  — suvda erigan gazning bir birlik hajmdagi miqdori;  $V_i$  — oddiy sharoitga keltirilgan gaz komponentining hajmi;  $V_c$  — suv hajmi.

Yuqorida keltirilgan tenglamalardagi  $N_i$  va  $b_i$  kattaliklarni orasida quyidagi munosabat mavjud, ya'ni

$$N_i = \frac{b_i}{\sum b_i + 22416} = \frac{b_i}{\sum b_i + 1244} \quad (56)$$


Bu yerda, 22416 — oddiy sharoitdagisi ideal gazning molar hajmi; 18,016 — suvning molekular massasi.

Gazlarning suvda erish miqdorini baravarlik o'zgarmas kattaliklar orqali ham ifodalash mumkin.

$$K_i = \frac{N'_i}{N_i} \quad (57)$$

Bu yerda,  $N'_i$  va  $N_i$  — mos ravishda gaz va suv fazalaridagi komponentlarning molar miqdori.

Gazlarning suvda erishi harorat ortishi bilan avvaliga biroz kamayadi, lekin keyinchalik ortadi. Bunga misol tariqasida 23-rasm



23-rasm. Bosim (a) va harorat (b) o'zgarishiga tabiiy gazlarda suv erishining bog'liqlig'i: 1, 2 — distillangan suv; 3, 4 — NaCl eritmasi.

mda bosim va harorat o'zgarishi bilan etan gazining suvda erishi bog'liqligini keltirilgan.

Aytib o'tganimizdek, karbonsuvchil gazlarning suvda erishi biroz qiyin. Agar suvda erigan tuzlar bo'lsa, gazning erishi yanada qiyinlashadi. Masalan, toza suv bilan sho'r suvda (NaCl ning eritmasi) gazning erishi 23-rasmdan ko'rinish turibdiki, bir xil bosimli toza suvda erigan gaz miqdori sho'r suvdagiga nisbatan deyarli ikki baravar katta ekan.

Suvda erigan tuzlar bo'lsa, tabiiy gazlarning suvda erishiga ta'siri Sechenov tenglamasi bilan ifodalanadi.


$$N_i = N_i \cdot 10^{-a_i \cdot n} \text{ yoki } b_i = b_i^{-a_i \cdot n}$$

Bu yerda,  $a_i$  — Sechenov koefitsiyenti. Bu koefitsiyent erigan tuz, gazning  $i$  komponentini suvda erishga ta'sirini xarakterlaydi;  $n$  — suvda erigan tuzlarning konsentratsiyasi, g, ekv/l.

#### NEFT XOSALARINING TO'PLAM ICHIDA O'ZGARISHI

Neft tarkibida ko'p miqdorda erigan karbonsuvchil gazlarning mavjudligi, uning fizik-kimyoiy xususiyatlarini tubdan o'zgartirib yuborishini yuqorida ko'rib chiqdik.

Neft tarkibini, uning xossalaringin o'zgarishi faqatgina erigan gazga boqliq bo'lmay, balki qatlamladagi boshlang'ich termodinamik shart-sharoitlarga ham bog'liq ekan. Ayniqsa, qatlam bosimining o'zgarishi neftning ko'pgina fizik xossalarni o'zgartirib yuboradi.



24-rasm. Katta qatlama neft xossalaring turli bo'lishi.

gumbazi va gumbaz atrofi bilan chekkasi, tagi atrofida har xil bosim, harorat mavjud bo'ladi. Bu har ikki nuqtadagi (rasmda A va B nuqtalari) bosimlar ayirmasi 2 MPa ni, haroratlar ayirmasi esa 6—7°C ni tashkil qildi. Demak, A nuqtadagi neftning qovushqoqligi, zichligi, sifiluvchanligi, gaz eriganligi B nuqtadagidan farq qildi. Bu farq B nuqtadan A nuqtagacha qatlama kesimi bo'yicha sekin-asta termodinamik kattaliklarning o'zgarishiga qarab o'zgarib boradi.

Qatlama chekkalari atrofidagi neft bilan qatlama markazidagi neft orasida ham farq bo'lishi mumkin.

Qatlamning balandligi katta bo'lganda, odatda qatlama bosimini ma'lum o'rtasi yoki neft-suv tutash yuzasiga nisbatan o'changan qatlama bosimi qayta hisoblab chiqiladi. Bir xil yuzaga, ko'pincha neft-suv tutash yuzasiga keltirib hisoblangan bosim shu qatlama uchun umumiyy bosim deb hisoblanadi va hamma hisoblashlarda ana shu bosim ishlataladi.

Neft xossalari qatlamdagagi bir to'plam ichida o'zgarishini konni ishlatalishda albatta hisobga olish shart. Ana shu o'zgarishlarga qarab, qaysi quduqlarni avvalroq ishga tushirish kerak, ularni qanday ishlatalish kerak va shu kabi texnologik jarayonlar tanlanadi. Demak, qatlama ichidagi neft xossalari o'z vaqtida aniq bilish juda muhim ahamiyatga ega ekan. Shuni ham aytish kerakki, katta qatlamlari konlarni ishlatalish jarayonida ham neft xossalari o'zgarib boradi.

Neft xossalari o'zgarishini aniqlashni juda ko'p usullari mayjud. Ana shu usullardan biri fotokalorimetriya usulidir.

#### NEFT XOSSALARINI O'RGANISHDA FOTOKALORIMETRIYA USULI

Fotokalorimetriya usuli suyuqliklardan yorug'lik oqimi o'tayotganda, bu oqim suyuqlik bilan yutilishini o'chashga asoslangan. Har xil suyuqliklarga bir xil yorug'lik nuri tushirilsa, ularning bu suyuqliklarda yutilishi (to'g'rirog'i so'nishi) har xil bo'ladi.


Neftning kolorimetrik xususiyatlarga (ya'ni yorug'lik yutishiga), uning tarkibidagi asfalt-mum moddalarning miqdori juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu moddalarning miqdorini o'zgarishidan neftning qovushqoqligi, zichligi va boshqa xossalari ham o'zgaradi. Shuning uchun neftning yorug'lik yutishini o'zgarishiga qarab, uning asosiy fizik-kimyoiy xossalari o'zgarishini aniqlash mumkin.

Neftni fotokalorimetrik xususiyatlari o'rganish uchun tajribalar quyidagicha olib boriladi. Birorta idishga neft quyilib, unga yorug'lik oqimi tushiriladi va bu yorug'lik nurlarini neftdan o'tishini har xil nuqtalarida maxsus fotoelementlar bilan o'chanadi. Bunday tajribalarni ko'plab o'tkazgan P. Buger va I. Lambertlar suyuqlikdan yorug'lik o'tishida juda muhim bir qonuniyat borligini aniqladilar.

Bu qonuniyatga ko'ra, bir xil qalinlikdagi suyuqlikdan o'tayotgan yorug'lik oqimining yarmi yutilib, qolgan yarmi keyingi qavatiga o'tar ekan. Bu qonuniyatni o'rganish uchun quyidagi misoldan foydalanimiz.

Masalan, qandaydir qalinlikka ega neft to'ldirilgan idishga yorug'lik oqimini tushiraylik. Yorug'lik nuri shu idishning tubiga yetib kelganda to'liq yutilsin (25-rasm). Endi shu idishni balandligi bo'yicha teng bo'laklarga bo'lib chiqaylik. U holda, birinchi bo'lakda tushayotgan boshlang'ich yorug'lik oqimining 50 % yutiladi va ikkinchi bo'lakka qolgan 50 % yutiladi va qolgan 50 % uchinchi bo'lakka o'tadi. Uchinchi bo'lakka o'tgan yorug'lik oqimi umumiy tushayotgan yorug'likni 25 % ni tashkil qildi (25-rasmagi grafika qarang). Shuningdek, to'rtinchi bo'lakka 6,25 % yorug'lik o'tadi, besinchchi bo'lakka esa 3,125 % va h.k.

25-rasmagi grafikda keltirilgan egri chiziq tenglamasi Buger — Lambert tenglamasi deyilib, u quyidagicha ifodalananadi:



25-rasm. Yorug'lik oqimining neftdan o'tishdagi yutilishi.

$$\mathfrak{I}_t = \mathfrak{I}_0 \cdot e^{-kt} \quad (59)$$

Bu yerda,  $\mathfrak{I}_t$  — biror qavatdan o'tgan yorug'lik oqimi intensivligi;  $\mathfrak{I}_0$  — boshlang'ich tushayotgan yorug'lik oqimi intensivligi;  $k$  — yorug'lik oqimini yutilishini xarakterlovchi koefitsiyent;  $t$  — qavatlarning qalinligi.

Ber qonuni bo'yicha yutilish koefitsiyenti  $K$  yutuvchi moddalarlarning miqdoriga to'g'ri proporsional ekan, ya'ni:

$$K = K_{yoyu} \cdot C \quad (60)$$

Bu yerda,  $K_{yoyu}$  — yorug'lik koefitsiyenti;  $C$  — yutuvchi moddalar konsentratsiyasi.

Agar 59 va 60-tenglamalarni hisobga olsak, kalorimetriyaning asosiy qonuni — Buger — Lambert — Ber qonuni kelib chiqadi.

$$\tau_t = \tau_0 e^{-k_{yoyu} \cdot C \cdot t} \quad (61)$$

59-tenglamadagi qavatlardan o'tgan yorug'lik oqimi  $\tau_t$  va tushayotgan yorug'lik oqimi nisbatlari muhitning tiniqligini  $\tau$  yoki yorug'lik o'tkazuvchanligini xarakterlar ekan:

$$\tau = \frac{\tau_t}{\tau_0} = e^{-k_{yoyu} \cdot C \cdot t} \quad (62)$$

Qalinligi 1 sm bo'lgan qavatdan o'tgan yorug'lik, shu muhit uchun yorug'lik o'tkazish koefitsiyenti deyiladi.

Yorug'lik o'tkazuvchanlikka teskarli bo'lgan kattalikning logarifmi optik zinchlik  $D$  deyiladi.

$$D = \lg \frac{1}{\tau} = \lg \frac{\tau_0}{\tau_t} \quad (63)$$

#### NEFTNING REOLOGIK XUSUSIYATLARI

Neft tarkibidagi og'ir karbonsuvchillarning miqdori, zinchligi va qovushqoqligiga qarab, reologik xususiyatlarga ham ega. Asfalten, mum, parafin va boshqa og'ir karbonsuvchillar neft tarkibida katta miqdorda bo'lsa, bunday neftlarning qovushqoqligi keskin ortadi. Masalan, Surxondaryo viloyati konlariidagi neftning qovushqoqligi 0,2—0,5 Pa's ni tashkil qiladi.

Qovushqoqlikni keskin ortib ketishi suyuqliklarda ba'zi qattiq jismalar xususiyatlarni paydo qilishi mumkin. Bu xususiyatlardan eng asosiyi

<sup>1</sup> Reologiya — grekcha *rheos* — oqim, *logos* — o'rganish so'zlaridan olingan bo'lib, qaytmas deformatsiyasini o'rganadigan fan.

suyuqliklar deformatsiyaga ega bo'lishidir. Suyuqlik maydonida kolloid zarrachalar hosil bo'lishidan deformatsiyaga xos jarayonlar yuzaga keladi. Bu jarayonlar qatlama harorati pasayishi yoki qatlama sovuq suv haydalishi bilan kuchayadi. Buning asosiy sababi, harorat pasayishi neft tarkibidagi parafinning kristallanishiga olib kelishidadir.

Parafinlardan farqli bo'lgan asfaltenlar esa o'z atrofida erigan karbonsuvchillar pardasiga ega, suyuqlik maydonida kolloid zarrachalarini hosil qilishi yuqori haroratlarda ham davom etishi mumkin. Erigan karbonsuvchillar pardasini *solvat qavat* deb yuritiladi. Solvat qavatlarning qalinligi neft tarkibidagi mum konsentratsiyasining miqdoriga to'g'ri proporsionaldir. Solvat qavatlarning qalinlashishi (mumning miqdorini oshishi) natijasida, zarrachalar og'ir karbonsuvchillar bilan suyulishiga olib kelinadi, bu esa o'z navbatida suyuqliknинг mexanik xossalari o'zgarishiga sabab bo'ladi.


Neftning mexanik xususiyatlari qatlarning tuzilishi, qatlarning qanday tog' jinslaridan tashkil topganligi, ularning donadorligi, o'tkazuvchanligi, tuzilishi neftning mexanik xossalariiga ta'sir ko'rsatadi.

Neftda mexanik xossalarning paydo bo'lishi natijasida uning harakatiga siljish tezligi ta'sir ko'rsatadi. Suyuqliklarning harakatiga siljish tezligi ta'sir qilishi xuddi qattiq jismrlarga ta'sir qilgandek ko'rinishga ega bo'ladi.

26-rasmda mexanik xossalarga ega bo'lgan suyuqlikka siljish tezligining ta'siri ko'rsatilgan. Qandaydir juda kichik kanalchadan d<sub>y</sub> harakat qilishni boshlagan ( $V$ ), mexanik xossaga ega bo'lgan suyuqliknki ko'rib chiqaylik.

Harakat  $d_y$  qalinlikdagi kanalchada bo'lib, unga o'qi yo'naliishida kuch ta'sir qildirsak, harakatsiz tomonda suyuqlik  $B$  nuqtadan  $V$  nuqtagacha harakatlanigan bo'ladi. Agar  $V$  nuqta bilan  $A$  nuqta birlashsa, mexanik xususiyatlarga ega bo'lgan suyuqlik harakatini tezligining epyurasiga yuzaga keladi.

Shunday qilib, neftlarning reologik xossalari ularning alohida juda kichik qavatlardagi konsistensiyasiga<sup>1</sup>, suyuqliklarga ta'sir etayotgan kuchi va siljish tezligi bilan bog'liq ekan:



26-rasm. Suyuqlik qavatlarinin siljish kuchi ta'siridagi harakati.

<sup>1</sup> Konsistensiya — eritma va quyuq moddalarining quyuq-suyuqligi, zinchlik darajasi.

$$\frac{d\gamma}{dt} = f(\tau) \quad (64)$$

Reologik xossalarga ega bo'lgan suyuqliklarni nonyuton suyuqliklari deb ham yuritiladi. Nonyuton suyuqliklarning qovushqoqligi harorat, bosim va urinma kuchiga bog'liq bo'lib, tezlik gradiyentiga to'g'ri proporsional ekan.

$$\tau = -\mu \frac{dV}{dy}. \quad (65)$$

65-tenglamani Gukning taranglik qonuniga bionan quyidagicha yozish mumkin:

$$\tau = -\mu \frac{dV}{dy} = \mu \frac{d}{dy} \left( -\frac{dx}{dy} \right) = \mu \frac{d}{dt} \left( -\frac{dx}{dy} \right). \quad (66)$$

Bu yerda,  $x$  — suyuqliknинг tezlik yo'nalishi bo'yicha o'tgan masofasi;  $t$  — vaqt.

66-tenglamani  $\frac{dx}{dy}$  suyuqliknинг qatlamlarni surilishini (deformasiyasini) xarakterlaysidi. Bu tenglamadan suyuqliklar tezligi urinma kuchga to'g'ri va qovushqoqlikka teskari proporsional ekanligi kelib chiqadi, ya'ni:

$$\frac{dy}{dt} = \frac{\tau}{\mu}. \quad (67)$$

Bu tenglamani suyuqliklar reologik tenglamasi deb yuritiladi. Yuqorida keltirilgan tenglamalardagi  $f(\tau)$  funksiyasining kattaligiga qarab suyuqliklar quyidagi uch turga bo'linadi: bingam plastiklari, psevdoplastiklari (psevdo — grekcha — *yol'gon* degan) va dilatant suyuqliklari. Bu suyuqliklarni tabiatda uchrashli, ularning xossalari va ular ustida olib borilgan tadqiqotlar haqida «Kolloid kimyo» kursida batatsil o'tildi.

Bingam plastiklari, psevdoplastiklari, dilatant suyuqliklari va nonyuton suyuqliklari konsistentligiga qarab har xil siljish kuchiga ega, ularning o'zaro bog'liqliligi 27-rasmida ko'sratilgan.

27-rasmda keltirilgan bog'liqliliklardan bingam plastinkalariga tegishlisini ko'rib chiqaylik. Rasmidagi 1-chiziq muvozanat holatidagi muayyan fazoviy tuzilishga va boshlang'ich siljish kuchiga  $\tau_0$  qarshilik ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan bingam plastikiga tegishlidir. Bingam plastikiga ta'sir qilayotgan kuch boshlang'ich siljish kuchidan  $\tau_0$  oshgandan so'nggina u harakatga kelishi mumkin. Harakatlanish esa suyuqliklarning nome'yor qovushqoqligiga bog'liq,

bu qovushqoqlikni aniqlash uchun F.N. Shvedov quyidagi reologik tenglamani tavsija qildi:

$$\eta_a = E\lambda + \frac{\tau_1}{v} \quad (68)$$

Bu yerda,  $E$  — Yung moduli;  $\tau_1$  — dinamik kuch siljishi;  $v$  — deformatsiya tezligi;  $\lambda$  — relaksatsiya<sup>1</sup> davri.

Quyuq suyuqliklarning oqimini xarakterlash uchun Bingam tenglamasi quyidagicha yozildi:

$$\tau - \tau = \eta_i \frac{dv}{dt} \quad (69)$$

27-rasmning 1-chiziqiga yana bir nazar tashlasak, bingam suyuqligiga ta'sir qilayotgan urinma kuchining kattaligi  $\tau_0$  dan  $\tau_1$  gacha bo'lganda, suyuqlik hali harakatsiz bo'ladi, ta'sir qiluvchi kuch  $\tau_1$  dan oshgandan so'nggina harakat kuchi ta'sir qilayotgan nuqtada boshlanishi mumkin. Urinma kuchning miqdori  $\tau_m$  ga yetgandan bingam plastigi to'liq harakatga keladi.

Shvedov (68) va Bingam (69) tenglamalari o'zaro o'xshash bo'lganligi uchun hisoblashlarda ko'pincha umumlashtirilgan Shvedov — Bingam tenglamasi ishlatalindi:


$$\tau = \tau_1 + \eta \left( \frac{dv}{dt} \right) \quad (70)$$

Bu yerda,  $\tau_1$  — dinamik siljish kuchi;  $\eta$  — quyuq suyuqliknинг qovushqoqligi bo'lib,  $\frac{dv}{dt} = f(\tau)$  ni to'g'ri chiziq qismini burchak koefitsiyentiga teng bo'lgan kattalik.

#### NEFT VA GAZNING FIZIK XOSSALARINI O'RGANISH UCHUN ISHLATILADIGAN APPARATLAR

Neft va gaz konlarini ishga tushirishdan oldin, shu konlarning zaxiralari aniqlanib, konni ishlatalish loyihasi tuziladi. Bu ishlarni bajarish uchun neft va gazning hamma xossalari, kimyoiy tarkibi va fazaviy o'zgarishlari aniqlangan bo'lishi kerak. Buning uchun

<sup>1</sup> relaksatsiya — moddaga tarang kuchlar ta'sirida hosil bo'lgan deformatsiyadan so'ng uni yana o'z holatiga qaytish jarayonini xarakterlovchi vaqtini bildiradi.



27-rasm. Suyuqliklarning konsistentlik bog'liqliligi:  
1 — bingam plastiklari;  
2 — psevdoplastiklari;  
3 — Nonyuton suyuqliklari;  
4 — dilatant suyuqliklari.

quduqlarga maxsus asboblar tushirilib, neft yoki gaz namunasi olinadi va ular tajribaxonalarida tadqiqot qilinib, barcha fizik-kimyoviy xossalari aniqlanadi.

Quduqlarga tushirilib, namuna oladigan asbobni namunaolgich (probobornik) deb yuritiladi. Namunaolgichlarning turlari juda ko'p bo'lib, bir-biridan farqi konstruktiv tuzilishidadir. Shuningdek, qanday bosimgacha ishlatish mumkinligi bilan ham farq qiladi. Masalan, Moskvadagi VNIIneft instituti yaratgan namunaolgichi 30 MPa bosimgacha bo'lgan konlarda ishlatilsa, Bakudagi AzNIPIneft instituti yaratgan namunaolgichini 100 MPa gacha bo'lgan bosimlarda ishlatish mumkin.


Namunaolgichlarni ishlatish quyidagicha amalga oshiriladi. Namunaolgichni quduqqa tushirishdan oldin maxsus soat murvatini 10—15 daqiqadan (quduq chuqurligiga qarab) keyin ishga tushadigan qilib burab qo'yiladi. Namunaolgich quduq tubiga tushgandan keyin, mo'ljallangan vaqt o'tgach, namunaolgichni suyuqlik kirituvchi qopqog'i ochiladi va namunaolgichni maxsus bo'lmasiga qatlama bosimi va haroratidagi suyuqlik kiradi. Bo'lma suyuqlik yoki gaz bilan to'lqandan so'ng namunaolgichni ko'tarish boshlangan zahoti bo'lmaning qopqog'i yopiladi.

Namunaolgichlar ishslash turiga qarab, asosan ikki xil bo'ladi: birinchi turdag'i namunaolgichlarni yuqori va pastki (kiruvchi va chiquvchi) qopqoqlari doimo ochiq bo'lib, bunday namunaolgich quduqqa tushirilayotganida uning ichidan suyuqlik o'tib turadi. Quduq tubiga yoki namuna olinishi kerak bo'lgan chuqurlikka yetgandan so'ng soat mexanizmi yoki mexanik ta'sir natijasida qopqoqlar yopiladi. Ikkinci tur namunaolgichlarda qopqoqlar faqat quduq tubiga tushirilgandagina ochilib namuna olinadi va soat mexanizmi qopqoqlarni yopadi (28-rasm).

**28-rasm. Soat murvatli namunaolgich chizmasi:**  
 1 — yuqori qopqoq; 2 — yuqori qopqoq egarchasi; 3 — tushirish mexanizmi richagi; 4 — yuqori qopqoq turkichi; 5 — pastki qopqoq; 6 — qulf sharchalari; 7 — qulf mustasi; 8 — pastki qopqoq egarchasi; 9, 14 — prujina; 10 — soat murvat; 11 — jova; 12 — sirg'aluvchi gayka; 13 — shtift; 15 — yuqori qopqoq ignasi; 16 — vtluka; 17 — namuna to'planadigan bo'shilq.

66

## KARBONATLARDA KARBONATLARDA KARBONATLARDA KARBONATLARDA



**29-rasm. Namunasini o'tkazish usuli:**  
 1, 5 — o'tkazgichlar; 2 — namunaolgich; 3 — tebratgich; 4 — murvat; 6 — bosimolchagich; 7 — iskanja; 8 — ajratuvchi porshen; 9 — konteyner; 10 — ishchi suyuqlik yig'iladigan idish.

Namunaolgichni yer ustiga neft yoki gaz namunasi bilan olib chiqilgandan keyin uning ichidagi namuna maxsus idishga (konteynerga) o'tkaziladi, konteynerda namunani uzoq masofaga olib borish mumkin (29-rasm).

Namunaolgichdan namunani konteynerga o'tkazish juda katta ehtiyyotkorlik talab qiladi, chunki ozgina xatolikka yo'l qo'yilsa, namunaning termodinamik ( $R$ ,  $T$ ) holatlari o'zgarishi mumkin. O'tkazish usulini mufassal tushuntirilishi tajriba o'tkazish qo'llanmasida berilgan.

Konteynerdagi namuna tajribaxonaga olib kelingandan keyin neft yoki gazlar tekshiriladigan maxsus apparatlarda sinab ko'rildi.

Neft ustida tajribalar olib borish uchun SAM-300 M apparaturasi mavjud. Bu apparat ancha murakkab ishlangan bo'lib, qovush-qoqlikni aniqlaydigan viskozimetri, maxsus iskanja, bir necha o'Ichov asbob-uskunalar, elektryuritgich hamda gidro va elektronsistemalaridan iborat. Bu apparatda neftning to'yinganlik bosimi, siqiluvchanlik koeffitsiyenti, zichligi, hajm koeffitsiyenti, gaz bilan to'yinganligi, zichligi, hajm koeffitsiyenti va kirishishi, qovushqoqligi kabi ko'satkichlari aniqlanadi.

Bu apparatura hozir ancha mukammallashtirilib, ASM-600 turida ishlab chiqarilmadigan. Bundan tashqari, UIPN (qatladi neftni o'rganish uskunasi) apparati ham bo'lib, unda ham neftning fizik xossalari aniqlanadi.

Gaz ustida tajribalar olib borish uchun UGK-3 apparati mavjud. Bu apparat ham ASM-300 M apparatiga o'xshash bo'lib, unda tabiiy gaz va kondensatlarning deyarli hamma fizik xossalari aniqlash mumkin.

67

## KARBONSUVCHIL SISTEMALARINING FAZOVYI HOLATLARI

### BIR KOMPONENTLI KARBONSUVCHILLARNING FAZAVIY O'ZGARISHI

Neft, gaz va gazkondensat konlarini ishlatish davrida uzlusiz ravishda bosim o'zgarib turadi va buning natijasida karbonsuvchillarning miqdori ham, ularning o'zaro nisbati ham o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlarga ba'zan qatlama haroratining o'zgarishi sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bu o'zgarishlar faqat qatlama ichida emas, ayniqsa, quduu atrofi hamda quduu ichida bo'ladi. Karbonsuvchillarning quduu ichidagi yuqoriga bo'lgan harakatida bosimni keskin o'zgarib borishi fazaviy holat o'zgarishlarini tezlatadi. Masalan, neft tarkibidagi gaz ajralib chiqib, quduq og'ziga kelganda karbonsuvchillar oqimi juda ham maydalangan neft tomchilarini gaz oqimida aralashgan holda harakatlanishiga olib keladi. Xuddi shuningdek, karbonsuvchillarni konda maxsus tayyorlash joyigacha quvurlarda bo'lgan harakatida ham turli fazaviy o'tishlar bo'lib turadi.

Bu fazaviy o'zgarishlar karbonsuvchillarning gaz holatidan suyuq holatga yoki suyuq holatidan gaz holatiga beto'xtov o'tib turishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bu o'zgarishlarni qay tarzda o'tib turishini aniq bilish muhim ahamiyatga egadir. Chunki bu fazaviy o'tishlarni konlarning loyiha hujjatlariga kiritish, ularning bosim va vaqt o'zgarishi bilan qanday o'zgarishi mumkinligini ko'rsatib o'tish lozim.


Karbonsuvchillarning fazaviy o'tishlari bir komponentli yoki ko'p komponentligiga qarab, har xil jarayonlar orqali bo'lar ekan.

Bir komponentli karbonsuvchillarning fazaviy o'zgarish jarayonlarini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, gazlar o'z holatini bosim va harorat o'zgarishi bilan o'zgartiradi. Bu o'zgarishlarda gaz hajmi o'zgarishi fazaviy o'zgarishlarni natijasi bo'lib hisoblanadi. Bosim o'zgarishi bilan hajm qanday o'zgarishini juda ko'plab tajribalarda tekshirilib ko'rildi. Bu tekshirishlar odatda izotermik jarayonda olib borilgan.

30-rasmda bir komponentli (masalan, etan) tabiiy gazning bosim bilan solishtirma hajmi orasidagi uzviy o'zgarishlari  $R=f(V)$  keltirilgan.

A nuqtada metan ma'lum bir shart-sharoitlarda ( $R=3,5$  MPa=12,5 m<sup>3</sup>/kg,  $T=15,5^{\circ}\text{C}$ ) bir fazali gaz holatda turgan bo'lsin.



30-rasm. Etanning bosim-hajm fazaviy o'zgarishining tasviri.

Endi shu holatini izotermik ravishda, ya'ni haroratni o'zgartirmay turib bosimini oshiraylik. Bu holda gaz o'z hajmini kamaytirib boradi va B nuqtaga kelganda gazdan bиринчи suyuqlik ajralib chiqadi. Ana shu nuqtani, to'g'riroq'i, shu nuqtaga to'g'ri keladigan termodinamik sharoitlar *shudring nuqtasi* deyiladi. Shudring nuqtadan keyin fazaviy o'zgarishlar boshlanib, bosim o'zgarmagan holda faqat hajm o'zgarishi davom etadi. Bu vaqtga gaz holatidagi metan to'liq suyuq holatga o'ta boshlaydi va bu jarayon V nuqtagacha boradi. V nuqtada gaz holatidagi metanning suyuq holatga o'tishi tugallanadi va bundan keyingi jarayon hajm o'zgarmagan holda bosimning keskin oshib ketishi bilan yakunlanadi.

Endi xuddi shu jarayonni yana bir marta qaytarib ko'raylik. Faqat bu galgi fazaviy o'zgarish jarayonini boshlang'ich harorat yuqoriroq, masalan  $32,2^{\circ}\text{C}$  da A, nuqtadan boshlaylik. Bunda ham xuddi yuqoridagidek, B<sub>1</sub> nuqtaga yetgandan so'ng bиринчи suyuq tomchi hosil bo'lib, keyingi jarayonlar bosim o'zgarmagan holda hajm kamayib borib, gaz holatdan suyuq holatga o'tish ro'y beradi. Bu jarayon V<sub>1</sub> nuqtada gazning to'liq suyuq holatga o'tishi bilan tugallanadi. Xuddi shuningdek, 31-rasmda bu fazaviy o'zgarishlar yanada yuqoriroq haroratlar uchun keltirilgan. Keltirilgan rasmdan

ko'rinib turibdiki, fazaviy o'zgarishlar harorat ortib borgan sari yuqoriq bosimdan boshlanar ekan. Gaz holatdan suyuq holatga o'tish jarayoni esa faqat hajm o'zgarishi, ya'ni kamayishi bilan davom etar ekan.


Agar shu jarayonni endi teskari yo'nalishda ko'rib chiqsak, III zonadagi suyuq holatdagi karbonsuvchilning sekin-asta bosimini kamaytirib borsak,  $V(V_1, V_2)$  va h.k.) nuqtaga kelganida suyuqlikdan birinchи gaz pufakchasi ajralib chiqadi. Shundan keyingi jarayon yana bosim o'zgarmagan holda faqat hajm o'zgarishi bilan davom etadi.

Nihoyat,  $B(B_1, B_2)$  va h.k.) nuqtalarda suyuq holatdagi karbonsuvchil to'liq gaz holatiga o'tishi tugallanadi.

Shunday qilib, bu jarayonlar har ikki tomonga fazaviy o'tishlarni mumkinligini ko'rsatadi va bu o'tishlarda I zona gaz holati, II zona aralash holatni va III zona suyuq holatni ko'rsatar ekan.

Yuqori haroratlarga o'tgan sari gaz holatdan suyuq holatga o'tish davri qisqarib borib, oxiri faqat bir nuqtada C to'liq o'tish holatiga kelib qolishi mumkin.

Agar endi  $B, B_1, B_2$ ... va  $V, V_1, V_2$ ... nuqtalarini C nuqta bilan birlashtirsak, VCBYU egri chizig'i hosil bo'lib, bu chiziq fazaviy



31-rasm. Karbonsuvchillarning fazaviy o'tishlarini «bosim-harorat» bog'liqligidagi tasviri.

70

o'tishlar chegarasi deb aytildi. Bunda  $CB$  egri chizig'i kondensatsiya chizig'i deyiladi. Ba'zan  $CB$  chizig'i shudring chizig'i ham deyiladi.  $CB$  egri chizig'in esa bug'lanish (agar jarayon suyuq holatdan gaz holatiga o'tayotgan bo'lsa) chizig'i deb yuritiladi. C nuqtada esa shudring chizig'i bilan bug'lanish chizig'i birlashib ketadi va bu nuqta kritik nuqta deb yuritiladi.

II zonadagi suyuq va gaz holat o'zgarmas haroratda mayjud bo'lishi, faqat bosim shu zonadagi bug'learning taranglik bosimiga teng bo'lgandagina bo'lishi mumkin.

Karbonsuvchillarning bir holatdan ikkinchi bir holatga fazaviy o'tishlarni bosim bilan harorat orasidagi bog'lanishlar orqali ham ko'rib chiqish mumkin.

31-rasmda karbonsuvchillarning fazaviy holatini bosim va harorat o'zgarishi  $R=f(T)$  orqali ko'rsatilgan.

31-rasmdagi  $OC$  egri chizig'i to'yingan bug' tarangligi bosimini ko'rsatib, bir vaqtning o'zida bug'lanish va shudring nuqtalari egri chizig'iga ham mos keladi. Shuning uchun  $OC$  egri chizig'i karbonsuvchillarning kritik chizig'i deb yuritiladi. Bu chiziq ustidagi bosim va haroratlarda karbonsuvchillar bir vaqtning o'zida ham suyuq, ham gaz holatda aralashma shaklida mayjud bo'ladi.

Karbonsuvchillar  $OC$  chizig'idan pastda bug' va yuqorisida suyuqlik holatda bo'ladi. C nuqtada esa karbonsuvchillar uchun eng yuqori bosim va harorat holatdagi ikki fazali holat mayjud, bu bosim va harorat tabiiy gazlarning alohida har bir komponenti uchun aniqlangan.

31-rasmdan ko'rini turibdiki, harorat yoki bosimni ma'lum bir tartibda o'zgartirib turib, karbonsuvchilni bug' holatidan suyuq holatga, ikki fazali holatga keltirmsandan ham o'tkazish mumkin ekan, ya'ni bunda karbonsuvchillar bir fazadan ikkinchi fazaga o'tayotganda  $OC$  kritik chizig'i ustidan o'tmasligi kerak. Buning uchun masalan, A nuqtadagi gazsimon holatdagi karbonsuvchilni bosimini oshirmsandan turib, faqat haroratini oshirib  $V$  nuqtaga keltiraylik. Demak, karbonsuvchil  $V$  nuqtada gaz holatda bo'lib, uning harorati kritik haroratdan ham yuqori, bosimi boshlang'ich bosimga teng bo'ladi. Endi shu holatdagi karbonsuvchil haroratini o'zgartirmsandan turib, faqat bosimini oshiramiz va  $D$  nuqtagacha olib chiqamiz. Bu nuqtada bosim ham, harorat ham kritik bosim va haroratdan yuqori bo'lsa-da, karbonsuvchil hamon gaz holatdadir. Bu nuqtaga termodinamik ko'rsatkichlarni yana o'zgartiramiz, ya'ni haroratni kamaytirib, boshlang'ich holatiga olib kelamiz, lekin bosimni

71

o'zgartirmaymiz, ya'ni karbonsuvchilni  $D$  nuqtadan  $E$  nuqtagacha keltiramiz. Bu nuqtada ham modda hamon gaz holatda bo'ladi.

A nuqtadan boshlang'ich harorat va bosim o'zgartirish jarayonlari  $V$  va  $D$  nuqtalari orqali  $E$  nuqtaga kelguncha karbonsuvchilning xossasi uzlusiz ravishda o'zgarib boradi, ammo ikki fazali holat bo'lmaydi. Endi  $E$  nuqtadagi karbonsuvchilning haroratinini o'zgartirmagan holda bosimini pasaytirsak, u holda  $F$  nuqtaga kelganda, karbonsuvchil suyuq holiga keladi.

Demak, karbonsuvchilning termodinamik holatlarini o'zgartirib, bir fazadan ikkinchi fazaga o'tkazish ikki fazali holatsiz ham amalga oshirish mumkin ekan.

### IKKI VA KO'P KOMPONENTLI KARBONUVCHILLARNING FAZAVIY O'ZGARISHLARI

Karbonsuvchillarning fazaviy o'zgarishida komponentlar soni ikki yoki undan ko'p bo'lganda, o'ziga xos holatlar ro'y beradi. Odatda ikki komponentli fazalarni binar komponentlar deb ham yuritiladi. Binar komponentlarning fazaviy o'zgarishini batafsil ko'rib chiqamiz.

32-rasmda binar komponentlarning (masalan, pentan  $-47,6\%$  va geptan  $-52,4\%$ ), fazaviy o'zgarish holati  $R=f(V)$  keltirilgan.


a)  $52,4\%$  geptan va  $47,6\%$  pentandan iborat ikki komponentli karbonsuvchilning bosim-solishtirma hajm bog'liqligini har xil haroratlarda olining diagrammasi;

b) etan va n-geptan aralashmasidan iborat karbonsuvchillarning bosim-harorat bog'liqligi diagrammasi. Diagrammadagi  $C^1$ ,  $C^{II}$ ,  $C^{III}$  chiziqlari mos ravishda etanning  $90,22; 50,..25$  va  $9,80\%$  miqdordagi aralashmasiga to'g'ri keladi.

1 — bug'lanish chizig'i; 2 — shudring chizig'i.

Bir fazali komponentlarga nisbatan binar komponentli gazlarning fazaviy o'zgarishi shudring nuqtasidan o'tganidan keyin ham bir vaqtning hajm va bosimning o'zgarishi bilan davom etar ekan.

Ya'ni ikki fazali holatda (gaz va suyuqlik) bir fazadan ikkinchi fazaga o'tish jarayoni uzlusiz ravishda bosim va hajm o'zgarishi bilan bo'lar ekan. 32-b rasmdan ko'rinish turibdiki, kondensatsiya (yoki shudring) chizig'idan o'ng tomonagi holat bir komponentli gazlarning o'xhash, shuningdek, bug'lanish chizig'idan chap tomonagi holat ham bir komponentli gazlarning fazaviy holatiga o'xhash, faqat shu ikki kritik chiziq orasidagi o'tish holatida farq bor ekan.



32-rasm. Ikki komponentli karbonsuvchillarning fazaviy o'tish diagrammasi.

Bu farqning sababi quyidagicha: Agar binar komponentli gazing har bir komponentini alohida fazaviy o'tishini ko'rib chiqsak, xuddi 31-rasmdagidek holda o'tadi, lekin o'tish jarayoni geptan uchun bir bosim va hajmda bo'lsa, pentan uchun boshqa bir bosim va hajm sharoitida o'tishi mumkin. Endi har ikkala komponentning fazaviy o'tish jarayonini taqqoslab, ulardan binar gaz uchun umumiy diagramma chizilsa, bu diagramma 32-rasmdagi holda bo'ladi.

Shunday qilib, binar yoki ko'p komponentli gazlarda fazaviy o'tishlar yuqoriqoq bosimda boshlanib, kritik nuqtalari va kritik chiziqlari bir komponentli gazlarga nisbatan yuqori bosimlarga mos kelar ekan.

Bu jarayonlar ham har ikki yo'nalishda ro'y berishi mumkin, ya'ni gaz holatdan suyuq holatga o'tishi va aksincha bo'lishi mumkin.

32-b rasmda  $A$  egri chizig'i sof etan uchun mos keladigan kritik holat chizig'i bo'lsa,  $B$  egri chizig'i sof n-geptan uchun kritik holat chizig'i.  $A_1 B_1$ ,  $A_2 B_2$  va  $A_3 B_3$  egri chiziqlari esa boshlang'ich tarkibda mos ravishda  $90,22$ ,  $50,25$  va  $9,8\%$  ni tashkil qilgan karbonsuvchillardan bo'lgan aralashmaning kritik holatini aks ettiruvchi egri chiziqlaridir. Bu yerdagi  $C^1$ ,  $C^{II}$ ,  $C^{III}$  nuqtalari shu egri chiziqlarga mos keluvchi kritik nuqtalar bo'lib, agar endi etanni kritik nuqtasi  $C_2$  va n-geptanni kritik nuqtasi  $C_7$  ni shu  $C^1$ ,  $C^{II}$ ,  $C^{III}$  nuqtalar orqali birlashtirilsa, karbonsuvchillar aralashmasining kritik holatini xarakterlovchi egri chiziqlari hosil qiladi.  $A_1 C^1$ ,  $A_2 C^{II}$  va  $A_3 C^{III}$  egri chiziqlari aralashmaning qaynash

chizig'ini tashkil qilib, bu chiziqlardan yuqori va chap tomonda karbonsuvchillar suyuq holatda bo'ladi.

$B_1C^I$ ,  $B_2C^{II}$  va  $B_3C^{III}$  egri chiziqlari aralashmaning shudring chizig'idir, bu chiziqlardan past va o'ng tomonida karbonsuvchillar gaz holatda bo'ladi. Bu chiziqlar orasida esa ikki fazali holat mavjud.

Shunday qilib, aralashmalar uchun kritik holatni xarakterlovchi bosim va harorat orasidagi bog'lanish murakkab, asosan, aralashmaning boshlang'ich tarkibiga bog'liq ekan.

#### KO'P KOMPONENTLI KARBONSUVCHILLAR ARALASHMALARINING KRITIK HOLATDAGI XUSUSIYATLARI

Binar va ko'p komponentli karbonsuvchillar aralashmalar kritik chiziqlari atrofida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ma'lumki, kritik chiziqdagi bir komponentli karbonsuvchillar suyuq va gaz holda bo'lib, bu chiziq eng yuqori bosim va harorat bilan xarakterlanadi. Bundan yuqori bosim va haroratda karbonsuvchil ikki xil fazada, ya'ni suyuq va gaz holatda bo'lishi mumkin emas.

Lekin binar va ko'p komponentli sistemalarda kritik nuqta faqat suyuq va gaz holatdagi fazalar xususiyatlarni xarakterlaydi, xolos. Ikki kritik chiziqlar — shudring chizig'i bilan bug'lanish chiziqlari, kesishgan C nuqta atrofida shunday zona paydo bo'ladiki, bu zonada ikki fazali holat kritik bosim va haroratdan yuqori qiymatlarda ham bo'lishi mumkin.

Aralashmadagi karbonsuvchillarning fizik-kimyoiy xususiyatlarga qarab, bosim-harorat diagrammasida katta farq hosil bo'ladi.

Bu farq, asosan, shudring chizig'i bilan bug'lanish chizig'inining o'zarbo'lib bilan mos kelmasligidan kelib chiqadi. Bu farqga aralashmaning boshlang'ich tarkibi ham katta ta'sir qiladi.


Aralashmarning kritik holatini xarakterlovchi «bosim-harorat P—T va bosim solishtirma hajm P—V» bog'lanishlarining kritik chiziqlari atrofida juda murakkab jarayonlar bo'lib o'tadi.

Avval aytib o'tilganidek, 31-, 32-rasmardagi C nuqtada shudring chizig'i bilan qaynash chizig'i uchrashib, bu kritik nuqtada suyuq va gaz holatidagi ikki fazali aralashmaning shiddatli xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Endi aralashmaning «bosim-solishtirma hajm» bog'lanish kritik chizig'i atrofida bo'lib o'tgan jarayonlar bilan yaqindan tanishib chiqaylik.

33-rasm. Ko'p komponentli karbonsuvchil aralashmalarining kritik chiziq atrofidagi izotermalari sxemasi:

1 — bug'lanish egri chizig'i; 2 — shudring egri chizig'i;  $P^I$  — kritik chizig'idagi eng katta bosim;  $P_c$  — kritik nuqta bosimi; T — kritik chizig'idan tashqaridagi eng katta harorat;  $T^I$  — kritik chizig'idagi eng katta harorat;  $T_c$  — kritik nuqta harorati;  $T_2$  — kritik chizig'idagi eng yuqori bosimga mos keladigan harorat;  $T_1$ ,  $T_3$  — kritik nuqta atrofidagi zonering haroratlari.



Solishtirma hajm

33-rasmdan ko'rinish turibdiki, C kritik nuqtadagi bosim va harorat bu nuqtada eng yuqori qiymatlarga ega bo'lishi shart emas ekan. Haqiqatan ham, agar bosim maksimal bosimdan  $P^I$  biroz kichik, lekin kritik bosimdan  $P_c$  biroz katta bo'lsa, ya'ni E va G nuqtalarga mos kelsa, bunday holda kritik holatdagi sistemada gaz fazasi paydo bo'ldi, ammo bu gaz fazasi suyuq faza bilan muvozanat holatini saqlab qoladi. Bunday holat 33-rasmdagi ADCA zonasiga tegishlidir. Sxemada keltirilgan haroratlari orasida  $T > T^I > T_c > T_3 > T_2 > T_1$  munosabat mavjud.

Xuddi shuningdek, CNBC zonasida ham aynan shunday holat bo'ladi. Ya'ni harorat maksimal  $T_1$  haroratdan biroz kichik va kritik  $T_c$  haroratdan biroz katta bo'lgan holatlarda ham kritik holatdagi aralashmada gaz fazasi paydo bo'lib, suyuq faza bilan muvozanat holatini saqlab qoladi.

Agar sistemada eng yuqori  $P^I$  bosimda (rasmdagi D nuqta) bir vaqtning o'zida suyuq va bug' holatdagi fazalar mavjud bo'lsa, bunday bosim krikondabar bosim deb ataladi. Eng yuqori haroratda  $T^I$  (rasmda N nuqtaga tegishli) suyuq va bug' holatdagi fazalar mavjud bo'lsa, bunday harorat krikondenterm deb yuritiladi.

Kritik bosim va haroratlardan yuqori bo'lgan qiymatlarda, ko'p komponentli aralashmalar odatdan tashqari fazaviy o'tishlar ro'y berishi mumkin. Masalan, E nuqtadan F nuqtagacha (EG chizig'i bo'yicha) bo'lgan fazaviy o'zgarishlar bilan yaqindan tanishib chiqaylik.

Karbonsuvchillar aralashmasi E nuqtada ham suyuq, ham bug'simon muvozanat holatda turgan bo'ladi. Endi bosimni o'zgartirmasdan turib, haroratni oshirsak ( $T_1$  dan  $T_3$  gacha EF chizig'i bo'ylab), u holda avvaliga gaz fazasining hajmi orta boshlaydi, nihoyat maksimumga erishgach, yana kamaya boshlaydi. Bu vaqtning o'zida

murakkab fazaviy o'tishlar jarayoni sodir bo'ladi. Nihoyat, haroratni  $T_3$  ga yetkazganimizda, ya'ni  $F$  nuqtaga yetib kelganda yana karbonsuvchil aralashmasi ikki fazali bir xil muvozanatdagi holga keladi. Shunday qilib,  $E$  va  $F$  nuqtalarda karbonsuvchil aralashmasining holati kritik xususiyatlar bilan xarakterlansa, EF chizig'i ustida esa fazalar orasidagi muvozanat biroz o'zgarib, murakkab o'tishlar jarayoni bilan xarakterlanan ekan.

Kritik zonadan yuqori parametrlarda bo'ladigan bunday murakkab jarayonlar, odatda qayta bug'lanish va qayta kondensatsiyalash bilan davom etadi. Bunday jarayonlar *retrograd hoidisalari* deb ataladi va asosan gazkondensat konlari ro'y berishi mumkin.

#### GAZ NAMLIGINING KARBONSUVCHILLARNI FAZAVIY O'ZGARISHLARIGA BO'LGAN TA'SIRI


Karbonsuvchillar tarkibida, avval ayrib o'tganimizdek, ma'lum bir miqdorda suv bug'lari uchraydi va gazlar namlangan holatda bo'ladi. Gazlar namligi ularning fazaviy o'tishlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bu ta'sir qay darajada bo'lishi tajribalar orqali aniqlanadi. Masalan, 32-rasmida keltirilgan pentan va geptandani iborat bo'lgan aralashmaning fazaviy o'tishini, shu aralashmada suv bug'lari mavjud bo'lganda qay darajada bo'lishini ko'rib chiqaylik.

Nam holatdagi aralashma  $A$  nuqtadan  $B$  nuqtaga keltirilgan holda ham aralashmadan birinchi tomchi suyuq karbonsuvchil ajralib chiqmas ekan, vaholanki, agar aralashmada suv bug'lari bo'lmaganda, aynan shu nuqtadan fazaviy o'tishlar boshlangan bo'lar edi. Namlangan aralashma karbonsuvchillarning fazaviy o'tishlar boshlanish nuqtasi birmuncha yuqoriroq bosimdan boshlanar ekan (34-rasm).

Birinchi tomchi ajralib chiqishi  $B_1$  nuqtada boshlanib,  $V_1$  nuqtada tugallanar ekan, natijada fazaviy o'tish jarayonlari, gazlar namlangan holda bo'lsa, yuqoriroq bosimda boshlanib, to'liq fazaviy o'tishi ham yuqoriroq bosimda boshlanadi (32-rasm).

Bunday xulosa o'z navbatida konlarni ishlatalishda muhim



34-rasm. Namlangan karbonsuvchillarning fazaviy o'tish grafigi:  
1 — quruq karbonsuvchilning fazaviy o'tish chizig'i; 2 — namlangan karbonsuvchilning fazaviy o'tish chizig'i.

76

ahamiyatga ega. Gazokondensat konlarini ishlatalisha, agar karbonsuvchillar namlangan holda bo'lsa, demak, ularda fazaviy o'tishlar namlanmagan karbonsuvchillarga nisbatan ancha vaqtliroq boshlanadi. Bu esa o'z navbatida karbonsuvchillar tarkibidagi eng muhim kondensatlarning qatlama ichida qolib ketishiga va olib bo'limas yo'qotishlarga olib keladi.

Shuning uchun ham karbonsuvchillarning namlik miqdorini oldindan aniqlab, ularning fazaviy o'tishlari qaysi bosimda boshlanib, qachon tugashini aniq bilib olish zarur. Shundagina gazkondensat konlarini ishlatalisha olib bo'limas yo'qotishlarni kamaytirish yo'llariga oldindan tayyorgarlik ko'rib qo'yish mumkin.

Karbonsuvchillar namlangan holda bo'lganida, fazaviy o'tishlar faqat karbonsuvchillarning gaz holatidan suyuq holatiga o'tish bilan chegaralanib qolmay, balki suv bug'larining ham bug' holatidan suyuq holatiga aylanish jarayonlari bilan birgalikda bo'lib o'tadi. Bunday holat o'tishlari ikkilangan kondensatsiya jarayonlari deb yuritiladi.

Bu jarayonlar asosan gazkondensat konlari ro'y berishi mumkin.

#### GAZKONDENSAT KONLARINING XARAKTERISTIKASI

Gazkondensat konlari o'zlarining murakkabligi bilan alohida o'rinni egallaydi. Chunki bunday konlarda ham gazsimon, ham suyuq holatdagi karbonsuvchillar to'plami mavjud, ularni ishlatalisha niyoyatda tadbirkorlik bilan ish yuritilmasa, suyuq holatdagi eng yengil karbonsuvchillar — kondensatlarning ko'p qismi yer ostida qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday konlarni ishlatalish yo'llarini tanlashda, konlarni loyihasini tuzishda va keyinchalik ularni ishlatalisha, konlardagi gaz va kondensatlarni tayyorlaydigan asbob-uskunalarini hamda quduqlarni ishlatalishda eng maqbul ish uslublarini tanlashda gazkondensat konlari tegishli hamma omillarni aniq bilish zarur.

Shuning uchun ham gazkondensat konlарini texnologik sxemalarini ishlatalish loyihalarni tuzishda va ishlatalisha ana shu omillar asosiy hal qiluvchi vazifani o'taydi. Gazkondensat konlari xarakterlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy gaz tarkibi va undagi kondensat miqdori.
2. Karbonsuvchillarning kondensatsiya boshlanishi bosimi va maksimal kondensatsiya bosimi.
3. Gazkondensat sistemasining qatlamdagagi fazaviy holati.

77

4. Qatlam holatidagi gazning kondensatsiyalanish izotermalar grafigi.

5. 1 m<sup>3</sup> gazdan har xil bosim va haroratlarda ajralib chiqadigan kondensat miqdori va uning tarkibi.

6. Gazkondensat konini, qatlam bosimini saqlash usullarini qo'llanilmasdan ishlataliganda qancha kondensat yo'qotilishi mumkinligi bosim o'zgarishiga qarab, konni ishlatalish davrini oxirigacha bo'lgan miqdori.

7. Qatlamda bosim kamayishi bilan gazdan olinishi mumkin bo'lgan kondensat miqdori va uning tarkibi.

Bu omillarni konni to'liq ishga tushirishdan oldin aniq bilish, asosan, konni jihozlash asbob-uskunalarini tanlab olish uchun kerak bo'ladi. Sanoatda ishlab chiqarilayotgan gaz ajratgichlar, gaz quritgichlar, tindirgichlar va boshqa asbob-uskunalar, kon anjomlari har xil shart-sharoitlarga mo'ljallangan bo'lib, juda keng ko'satsichlarga ega. Shuning uchun bulardan faqat ishlatalayotgan konga to'g'ri keladigan asbob-uskuna va jihozlarni tanlab olish uchun yuqorida aytib o'tilgan omillarni aniq bilish zarur.

Bu omillardan tashqari, tajribalar orqali gazzondensatining fazaviy o'tish jarayonlari aniqlanadi. Bu fazaviy o'tishlarni qatlam holatida, quduq ichida, yig'uvchi quvurlarda va gazajratgichlarda qanday bo'lishligi aniqlanadi. Bu jarayonlarni aniqlash uchun maxsus asboblardan foydalilanadi.

#### FAZAVIY MUVOZANATNING DOIIMIY MIQDORI VA UNI ANIQLASH USULLARI

Gazkondensat konlarining xususiyatlari, asosan, tajribaxona asboblarida har xil tajribalar orqali aniqlangani tufayli juda murakkab jarayon hisoblanib, asbob-uskunalarining ozgina nosozligi yoki ketirilgan namunani sifatsizligi natijasida ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Ayniqa, gazzondensat tizimlarining juda katta haroratlar oralig'ida qaynashi, ular uchun birorta aniq hisoblash usullarini qo'llashga imkoniyat bermaydi. Shuning uchun ham karbonsuvchillarning fazaviy o'tish jarayonlarini oldindan aytib berish uchun taqrifiy usullarni qo'llash mumkin.

Odatda karbonsuvchillarning murakkab fazaviy holatlari Dalton-Raul qonuniga asoslanadi, ya'ni:

$$P_{yi} = x_i Q_i \quad (71)$$

Bu yerda,  $P$  — karbonsuvchil aralashmasining umumiyl bosimi;  $y_i$  va  $x_i$  — mos ravishda bug'simon va suyuq fazalardagi komponentlarning molar miqdori;  $Q_i$  — to'yingan bug' komponentlarining bosimi;  $P_{yi}$  — komponentning bug'simon fazadagi parsial bosimi;  $x_i$   $Q_i$  — o'sha komponentning suyuq fazadagi parsial bosimi.

(71) tenglamadagi  $y_i$  va  $x_i$  o'z navbatida komponentlar miqdoriga bog'liq, ya'ni

$$Y_i = \frac{n''_i}{\sum_{i=1}^m n_i}; \quad x_i = \frac{n'_i}{\sum_{i=1}^m n_i} \quad (72)$$

bu yerda:  $n''_i$ ,  $n'_i$  — mos ravishda  $i$  komponentning molar miqdorini bug'simon va suyuqlik fazalardagi soni;  $m$  — komponentlarning umumiyl soni.

Dalton-Raul qonuni (71) bo'yicha, karbonsuvchillarning bug'simon va suyuq fazalari, aralashma ichida ularning parsial bosimlari molar miqdori bilan muvozanatlanib turar ekan. Agar bosim yoki harorat o'zgarsa, u holda shu muvozanat yo'qoladi va komponentlarning parsial bosimlari tenglashgunga qadar bu muvozanat tiklanmaydi. Bug' va suyuq fazalardagi komponentlarning parsial bosimlari tenglashgandan so'ng yana muvozanat qayta tiklanadi.

Bu muvozanatlar saqlangan holatda bug'simon va suyuq fazalardagi komponentlarning o'zaro nisbati o'zgarmas miqdor bo'lib qoladi. Ana shu o'zgarmas miqdor fazaviy muvozanatning doimiy o'zgarmas miqdori deyiladi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$K_i = \frac{Y_i}{x_i} \quad (73)$$

Bu yerda,  $K_i$  — fazalarning muvozanat o'zgarmas koefitsiyenti.

Fazalar muvozanat o'zgarmas koefitsiyenti deb, bug'simon holatdagi  $i$  komponentning molar qismini suyuq holatdagi shu komponentning molar qismiga bo'lgan nisbatiga aytildi. Shuni ham aytish kerakki, 73-tenglamadagi fazalar muvozanat o'zgarmas koefitsiyenti  $K_i$  faqat ma'lum bir bosim va harorat uchun o'zgarmas miqdor bo'lib, bosim va harorat o'zgarishi bilan bu miqdor o'zgarishi mumkin.

Fazalar muvozanat o'zgarmas koefitsiyenti ikki usul bilan aniqlanishi mumkin:

1. Tajriba yo'li.
2. Hisoblash yo'li.

Tajriba yo'li bilan fazalar muvozanati o'zgarmas koefitsiyentini aniqlash quyidagidan iborat: yuqori bosimga chidash beradigan idishga boshlang'ich gazkondensat aralashma solinib, ma'lum bir bosim va haroratda fazalarning termodinamik muvozanati hosil qilinadi. Shundan so'ng, o'zgarmas bosim va harorat ostida idishdan suyuq va bug' fazalarning namunasi olinib, maxsus asbob-xromatograflarda ularning tarkibiy qismi aniqlanadi. Bu aniqlashlar natijasida bug' va suyuq fazalarning molar konsentratsiyalarini topiladi, ularning nisbati esa fazalar muvozanati o'zgarmas koefitsiyentini beradi.

Shu kabi tajribalar boshqa bosim va harorat uchun takrorlanib, boshqa termodinamik holatlardan fazalar muvozanat o'zgarmas koefitsiyenti aniqlanadi.


Tajribalar orqali aniqlangan fazalar muvozanati o'zgarmas koefitsiyentini bosimga bog'liqlik munosabatini logarifmik diagrammada tasvirlanganda, bu munosabatlar barcha karbonsuvchillar uchun bir nuqtaga kelib uchrashishi aniqlandi (35-rasm).

35-rasmda tajriba yo'li bilan aniqlangan fazalar muvozanati o'zgarmas koefitsiyenti grafigi berilgan. Rasmdan ko'rinish turibdiki, har bir komponentning fazaviy muvozanat o'zgarmas koefitsiyenti birga teng bo'lganda, ikki xil bosim mayjud ekan. Birinchi bosim to'yingan bug'lar bosimiga mos kelsa, ikkinchi bosim C nuqtaga mos keladi, bu nuqta *bosimlar uchrashish nuqtasi* deyiladi.

Shu nuqtaga mos keluvchi bosim esa *uchrashish bosimi* deb yuritiladi. Kats tomonidan qilingan juda ko'plab tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki, uchrashish bosimi karbonsuvchil komponentlari uchun fazaviy muvozanat o'zgarmas koefitsiyenti birga teng bo'lganda 34,5—35 MPa ni tashkil qilar ekan.

Ana shu tajribalar natijasida, metan uchun fazalar muvozanati

**35-rasm.** Kirishadigan neftlar uchun harorat 93,3 °C bo'lganda aniqlangan fazalar muvozanat o'zgarmas koefitsiyenti:  
1 — metan; 2 — etan; 3 — propan; 4 — butanlar; 5 — pentanlar; 6 — geksan; 7 — geptan va yuqori karbonsuvchillar.



80

o'zgarmas koefitsiyentini aniqlaydigan empirik tenglama keltirib chiqariladi:

$$K_{CH_4} = \frac{31.41}{Py_2} \left\{ 1 - \frac{(126.6-t)}{316.5} \left[ 1 - \frac{(P-7.13)^2}{(Py_2-7.13)^2} \right] \right\} \left( \frac{Py_2}{P} - 1 \right)^{0.9} + 1 \quad (74)$$

Tajribalar usuli bilan fazaviy muvozanat o'zgarmas koefitsiyentini aniqlash ancha murakkab bo'lib, olingan ma'lumotlar faqat shu aralashma uchun ishlatalishi mumkin. Qilingan bu tajribalarda, qatlamdag'i hodisalar to'liq aks ettirilmaydi. Masalan, tog' jinsining tuzilishi, yuqori bosimni g'ovaklarga ta'siri, sirt taranglik kuchlari va h.k. Shuning uchun ham bir tajriba natijalarini boshqa bir sharoitlar uchun ishlatalib bo'lmaydi. Har bir kon uchun alohida shunday tajribalar o'tkazib, fazaviy muvozanat o'zgarmas koefitsiyenti aniqlanadi.

### NEFT VA GAZNI YIG'ISH, SAQLASH, TAYYORLASH VA UZATISH

#### KONLARDAGI ISHLATILADIGAN QUVURLAR TASNIFI

Har qanday neft va gaz konida quduqlardan chiqqan mahsulotni tayyorlash, uni joylarga yetkazish uchun har xil turdag'i quvurlar ishlatalidi. Bu quvurlar o'zidan o'tkazayotgan mahsulot bosimi, vazifasi kabi omillarga qarab turli-tuman bo'ladi.

Konlarda ishlataladigan quvurlarning quyidagi umumiy tasnifi mayjud:

- a) o'tkazayotgan mahsuloti bo'yicha:
  - neft quvurlari;
  - gaz quvurlari;
  - neft-gaz quvurlari;
  - kondensat quvurlari;
  - suv quvurlari;
  - reagent quvurlari.
- b) bajaradigan vazifasiga qarab:
  - yo'naltiruvchi quvurlari;
  - yig'uvchi quvurlari.
- c) ish bosimiga qarab:
  - kuchli bosimli quvurlar, bosimi 6 MPa dan yuqori;

- yuqori bosimli quvurlar, bosimi 2,5–6,0 MPa;
  - o'rtalbosimli quvurlar, bosimi 1,6–2,5 MPa;
  - past bosimli quvurlar, bosimi 1,6 MPa dan past.
- Odatda o'rtalbosimli quvurlargacha bo'lgan quvurlar tazyiqsiz, past bosimli quvurlar tazyiqsiz quvurlar deb hisoblanadi.

g) gidravlik tarhi bo'yicha:

- oddiy quvurlar, bunday quvurlar bir xil diametrali bo'lib, unga boshqa quvurlar ulanmagan bo'ladi;

Iste'molchi bilan o'zaro shartnoma asosida ba'zi hollarda votord sulfid va merkaptanli oltingugurtning miqdori yuqori bo'lgan tabiiy gazni alohida gaz quvurlari orqali yetkazib berishga ruxsat etilgan.

- murakkab quvurlar, bunday quvurlarning diametri har xil mumkin.

f) qurilishi bo'yicha:

- yer osti quvurlari;
- yer usti quvurlari;
- havodan o'tkazilgan quvurlari;
- suv osti quvurlari.

Bu tasnif konlarda ishlataladigan neft va gaz yig'ish, tayyorlash tizimidagi quvurlarga taalluqli bo'lib, uzoqqa uzatuvchi quvurlarga tegishli emas.

Yo'naltiruvchi quvurlar quduqdan birinchi guruh o'chagich qurilmalarigacha bo'lgan masofada, birinchi guruh o'chagich qurilmalaridan neftni yig'ish va tayyorlash qurilmalarigacha bo'lgan masofada yig'uvchi quvurlar ishlataladi.


Tazyiqli quvurlarda mahsulot quvurni to'liq to'ldirib oqadi, tazyiqsiz quvurlarda quvur ichi to'liq bo'limgan holda oqishi mumkin.

#### KONLARDA NEFT, GAZ VA KONDENSATNI YIG'ISH VA TAYYORLASH

Konlarda neft va gazni yig'ish tizimi quduqdan to neft yoki gazni tayyorlash qurilmalarigacha bo'lgan quvurlar, o'ichov asboblari va yig'ish punktlarini o'z ichiga oladi.

Neftni quduqlardan yig'ish va tayyorlashning bir necha tizimlari mavjud.

Tazyiqli Baronyan-Vezirov yig'ish tizimi 1946-yilda bokulik muhandislar tomonidan yaratilgan bo'lib, bu tizim birinchi to'liq yopiq holda ishlangan neft yig'ish va tayyorlash tizimi bo'lib hisob-




36-rasm. Baronyan-Vezirov neft yig'ish tizimi.

lanadi (36-rasm). Bu tizimda neftni yig'ish uchun quduqlar (1, 12, 13) boshidagi bosimni 0,5–0,6 MPa atrofida saqlab turishi kerak. Bunday bosim neftni boshlang'ich yig'ish va o'ichash punktlaridagi asboblarga 3, undan keyin esa neftni tayoyrlash uskunalarigacha yetib borishini ta'minlaydi.

Agar quduqlar boshidagi bosim 0,6 MPa dan oshiq bo'lsa, u holda bunday quduq oldida maxsus gazajratkichlar 2 o'rnatilib, bu yerda neftdagisi erigan gaz ajratib olinib, gaz yig'ish tizimiga yo'naltiriladi.

Neft quduqlardan chiqib yo'naltiruvchi quvurlar orqali o'ichash asbobiga 3 yetib keladi. Bu yerda har bir quduq mahsuloti miqdori navbatma-navbat o'chanadi. Bir o'ichov asbobiga yettitagacha quduq ulanishi mumkin. O'ichov asbobidan o'tgandan keyin ajratilgan gaz maxsus ajratkichga 5 yuborilib, u yerda 0,1 MPa bosimgacha gazdan neft tomchilari ajratib olinadi va gaz gazquritkichga yo'naltiriladi. Bu yerda gaz quritilib, tozalangandan so'ng yuqori bosimli kompressorlarga 11 yo'naltiriladi. Kompressordorda 11 gaz yuqori bosimgacha siqiladi va gazdagi kondensatni ajratib olish uchun yana bir gazajratkichga 10 yo'naltiriladi. Bu yerdan chiqqan to'liq tozalangan



37-rasm. Grozniy institutining yig'ish tizimi.

gaz, gazni qayta ishlash zavodiga yoki gazko'targich usuli bilan ishlayotgan quduqlarga 13 yuboriladi.

O'Ichov asboblaridan chiqqan neft tindirgichlarga 6 yo'naltiriladi. Bu tindirgichlar 6 da neftdan suv va qattiq muddalar (qum) ajratib olinadi. Tozalangan neft katta hajmdagi maxsus saqlagichlarga 7 yuboriladi. Tayyor mahsulot holdagi neft saqlagichlar 7 dan neftni qayta ishlash zavodiga yoki temiryo'lдagi neft quvish estakalariga neft quvurlari orqali nasos stansiyasi yordamida haydaladi.

Tindirgichlar 6 dan ajratib olinan suv va qum birgalikda qumajratikch 8 ga kelib tushadi. Bu yerda qum suvdan ajratib olinadi va suv maxsus suv yig'iladigan hovuzlarga jo'natiladi. U yerda suv yuzida yig'ilgan neft nasoslar orqali tortib olinib, tindirgichlarga yuboriladi.

Baronyan-Vezirov yig'ish tizimi Ozarbayjon, Turkmaniston kabi davlatlardagi konlarda hozirgacha saqlanib qolgan.

Grozniy neft institutining yig'ish tizimi o'z ichiga to'rt yirik butlangan tizimlarni biriktirgan bo'lib, Baronyan-Vezirov yig'ish tizimidan zamonaviyligi, qulayliklari va mahsulot yo'qotilishlar minimumgacha kamaytirilganligi bilan farq qiladi (37-rasm).

To'rt yirik butlangan tizimga guruhuy o'chagich qurilmasi, birinchi bosqich gazsizlantirish qurilmasi (kerak bo'lgan hollarda), markaziy gazsizlantirish qurilmalari va neftni mujassam tayyorlash qurilmalari kiradi.

Bu yig'ish tizimida yuqori bosimdagi favvora usuli bilan ishlayotgan quduqlar 1 boshida 6—7 MPa bosim saqlanib turiladi, buning natijasida neft guruhuy o'chagich qurilmasi 2 gacha va undan keyin birinchi bosqich gazsizlantirish qurilmasi 3 ga hamda neftni tayyorlash


tizimlarigacha o'z bosimi bilan yetib borishi ta'minlanadi. Quduqlar boshidan 6—7 MPa bosim saqlab turilishi neftni tayyorlash tizimini 100 km masofagacha uzoqlikda o'rnatish imkoniyatini beradi.

Guruhiy o'chagich qurilmasi 2 da 14 tagacha quduqlarni mahsul miqdori o'chanishi mumkin. Guruhiy o'chagich qurilmasidan neft, agar erigan gaz miqdori juda katta bo'lsa, birinchi bosqich gazsizlantirgichga yo'naltiriladi. Bu yerda dastlabki ajratib olinan gaz to'g'ri gazni qayta ishslash zavodi 4 ga yoki boshqa bir ist'emolchiga yuboriladi. Neft birinchi bosqich gazsizlantirgichdan o'tgandan so'ng markaziy gazsizlantirish qurilmalari 5 ga yo'naltiriladi. Bu yerda neft uch bosqichli gazsizlantirish jarayonidan o'tadi. Ajratib olinan gazni o'zi ham unda erigan holda bo'lgan og'ir karbonsuvchillardan (kondensat, neft zarrachalari) tozalanadi, quritiladi va gazni qayta ishslash zavodi 4 ga yoki ist'emolchiga yuboriladi. Gazsizlantirilgan neft esa neftni mujassam tayyorlash qurilmalari 6 ga yetib keladi. Bu yerda suv va qum zarrachalaridan tozalanib, tayyor mahsulot holiga keltiriladi va neftni qayta ishslash zavodlariga yoki temiryo'l neft quvish estakadariga quvur orqali jo'natiladi.

Grozniy neft institutining yig'ish tizimining o'ziga xosligi bu quduqdan chiqayotgan neft, gaz va suvli suyuqlik katta quvur orqali uzoq masofaga (100 km gacha) uzatilishi bo'lib, bunday uzaishda quvurdagi oqimni uzlusizligiga, oqimni haydash tarziga katta ahamiyat beriladi.

Bunday tizimdagi neft yig'ish, uzatish va tayyorlash Shimoliy Kavkaz va Ukraina konlarda ko'proq qo'llaniladi. Bu tizimning yana bir afzalligi 100 km radiusda joylashgan bir necha konlar uchun tayyorlash tizimlarini bir joyda butlangan holda qurish mumkinligidadir.

Yig'ishning tazyiqli Giprovostok tizimi neft yig'ish va tayyorlash jarayonlarini yanada yiriklashtirish, bir yerda mujassamlashtirish va mahsulotlarni (neft, gaz, kondensat) bosim yetarli bo'limgan holda alohida jo'natish uchun yaratilgan (38-rasm).



38-rasm. Giprovostok neft yig'ish tizimi.

Bu tizim qo'llanilganida quduqlar boshida 1,0—1,2 MPa atrofida bosim saqlanib turiladi. Quduqlar 1 ning mahsulot guruhiy o'lchagich qurilmasi 2 dan o'tganidan keyin birinchi bosqich gaz-sizlantirish qurilmasi 3 ga yetib keladi. Bu yerda ajratib olingen gaz o'z bosimi bilan 60—80 km masofagacha uzoqlikda bo'lган gazni qayta ishlash zavodi 5 ga yuboriladi, neftni nasos stansiyasi 4 orqali markaziy neft yig'ish joyida hisobdan o'tkazilib, neftni mujassam tayyorlash qurilmalarida tayyor mahsulot holiga keltirilib, iste'molchilarga jo'natiladi.

Giprosvostok tizimi ko'proq Rossiyaning Volgaboyi (Saratov, Volgograd tumanlari), Ural oldi konlarda hamda Tatariston, Boshqirdiston konlarda ham keng qo'llanilmoqda.

Yuqorida ko'rib chiqilgan neft yig'ish, tayyorlash va uzatish tizimlari ma'lum bir shart-sharoitlarga (quduqlarni ishlatish usuli va quduq ubti bosimi), shuningdek, geografik hududlarga mo'ljallanib yaratilgan. G'arbiy Sibir sharoitlari uchun ham mo'ljallangan tizim mavjud, bu tizim geografik muhitning tabiiy shart-sharoitlari (o'rmonzorlar, botqoqliklar, doimiy muzlik va h.k.) ni hisobga olgandir.

Bulardan tashqari, har qanday shart-sharoitlarga, geografik hududlarga mo'ljallangan neft yig'ish, tayyorlash va uzatish universal tizimning kondan olinayotgan mahsulotni (neft, gaz, kondensat) to'liq bir-biridan ajratib olish, tayyorlashning texnologik jaronidagi yo'qotishlarni minimumga olib kelish va tayyorlash jaronlarini to'liq avtomatlashtirish yoki kompyuter orqali boshqarish imkoniyati mavjud.

Ana shunday universal tizim eng oxirgi zamонавији izlanishlar natijasini hisobga olgan holda mamlakatimizdagi Ko'kdumaloq neftgazkondensat konida qurilgan. Ko'kdumaloq koni neftgazkondensat koni bo'lganligi uchun bu yerda neft va gaz yig'ish tizimlari alohida-alohida qurilgan.

#### NEFT VA GAZNI TAYYORLASH ASBOB-USKUNALARI

Neft va gazni konlarda tayyorlash uchun har xil turdag'i asbob-uskunalar ishlatiladi. Bu asbob-uskunalar neftdan erigan gazni to'liq ajratib olish, neftni qatlama suvlaridan to'liq tozalash, neft tarkibidagi tuzlarni yuvish va qum zarrachalarini ajratib olish uchun xizmat qiladi.

Bu asbob-uskunalarga ajratkich, tindirgich, qizdirgich,sovutgich, aralashtirgich, elektrodegidrator, saqlagich va boshqa shu kabilar kiradi.<sup>1</sup>

Ajratkichlar turli ko'rinishda ishlab chiqariladi va quyidagi ishlarni bajaradi:

- 1) neftdan erigan gazni ajratib oladi;
- 2) neft-gaz oqimini aralashishini kamaytiradi va shu bilan gidravlik qarshiliklarni pasaytiradi;
- 3) neft-gaz aralashmasi harakatidan hosil bo'lgan ko'piqlarni yo'qotadi;

4) neftdan suvni ajratib oladi;

5) oqim harakati nomuntazamligini yo'qotadi;

6) mahsulotni o'lchaydi.

Ajratkichlarning quyidagi tasnifi mavjud:


- ishlatilish maqsadi bo'yicha o'Ichovchi-ajratuvchi va ajratuvchi;
- geometrik shakli bo'yicha — silindrik, sharsimon;
- o'rnatilishga qarab tik, qiya va yotiqli;
- asosiy ajratish uchun ta'sir etuvchi kuchlar bo'yicha — gravitsiya, markazdan ochma va inersiya kuchlari;
- ishlatish bosimi bo'yicha — yuqori bosimli (6,4—2,5 MPa), o'rta bosimli (2,5—0,6 MPa), past bosimli (0,6—0,1 MPa) va vakuumli;
- ulangan quduqlar soni bo'yicha — bitta quduq uchun va quduqlar guruhi uchun;
- ajratadigan fazalari bo'yicha — ikki fazali (gaz-neft) va uch fazalik (gaz-neft-suv).

39-rasmida tik neft-gaz ajratichi va 40-rasmida yotiqli neft-gaz ajratichlari chizmalarini keltirilgan.


Tindirgichlarning asosiy vazifasi neft emulsiyalarini qizdirkidan chiqqan oqimini qabul qilib, undan suvni ajralib chiqishini ta'minlaydi.

Neftdan suv ajralib chiqishi har ikkala suyuqliklarning zinchliklari orasidagi tavofut hisobiga bo'ladi. Tindirgichni ostki qismida suv yig'iladi va suvni yuzasiga neft ajralib chiqadi. Tindirgich ostiga qum zarrachalari ham o'tirib qoladi. Tindirgichdan suv chiqarib yuborilayotganda qum zarrachalari ham suv bilan birga chiqib ketadi va maxsus tozalagichda suvdan ajratib olinadi.

<sup>1</sup> Bu asbob-uskunalarini qanday ishlashi va neft, gazni tayyorlash jarayonlari «Neft va gaz yig'ish, tayyorlash va uzatish» fanida batafsil berilgan.



39-rasm. Tik ajratkich.



40-rasm. Yotiq ajratkich.

Qizdirkichlar va sovutkichlar ko'proq gaz tayyorlashda ishlatalidi. Ular gazdag'i kondensatni ajratib olish va gazni me'yoriy holatga keltirish uchun xizmat qiladi.

Aralashtirkichda neft chuchuk suv bilan aralashtirilib, uning tarkibidagi tuzlar yuviladi.

Elektrodegidorlar neft bilan birga emulsiya holda chiqqan qatlama suvlarini ajratib olish uchun xizmat qiladi. Emulsiyanı parchalash (yoki suvni ajratib olish) maxsus elektrodlarga elektr quvvati yuborilishi natijasida suv tomchilarini bir-biri bilan birlashib ketadi va sekin-asta elektrodegidor tagiga ajralib chiqadi.

Emulsiya holatidagi neft-suv aralashmasini parchalash uchun deemulsatsiya apparatlaridan ham foydalaniladi. Bu apparatlarda maxsus reagentlar-deemulgatorlardan foydalanilgan holda emulsiyalar parchalanadi.

Saqlagichlar tayyor neft mahsulotini vaqtinchalik yig'ish uchun omborxona sifatida qo'llaniladi.

Neft konlari odatda 100, 200, 300, 400, 700, 1000, 2000, 3000, 5000 m<sup>3</sup> hajmdigilari ishlatalidi. Temiryo'l neft quyish estakadasiga qarashli omborxonalarda 7500 va 10000 m<sup>3</sup> saqlagichlar ham qurilishi mumkin. ▶

#### NEFT VA GAZNI UZATISH USULLARI

Odatda neft va gaz konlari ularni qayta ishslash zavodlaridan yoki boshqa turdag'i iste'molchilardan uzoqda joylashgan bo'ladi. Shuning uchun neft va gazni iste'molchiga yetkazib berish katta kuch va mablag' talab qiladi. Neft va neft mahsulotlarini tashishni quyidagi to'rt usuli mavjud.

Suv yo'li orqali tashish, asosan katta hajmdagi tankerlar<sup>1</sup> orqali tashkil qilinadi. Suv yo'li orqali neft mahsulotlarini tashish uchun neftni qabul qilib oladigan va topshiradigan joylarida katta hajmdagi kemalarini qabul qilish uchun moslashgan portlar, nasos stansiyalari, mahsulotni saqlash uchun katta hajmdagi saqlagichlar kerak bo'ladi. Odatda suv yo'li bilan neft mahsulotlarini tashish materiklararo miqyosda yoki boshqa usullar bilan yetkazish iloji bo'lganda tashkil qilinadi. Masalan, arab davlatlaridan (Saudiya Arabistoni, Quvayt,

<sup>1</sup> Tanker — hajmi 50000 dan 1000000 m<sup>3</sup> gacha bo'lgan neft va neft mahsulotlarini tashish uchun mo'ljallangan dengiz va okeanlarda yura oladigan kema.

Birlashgan Arab Amirliklari) Yevropaga, Amerikaga, Yaponiyaga neft va neft mahsulotlarini tashish suv yo'li orqali tashkil qilingan. Bu usul bilan neft tashish ancha qimmat deb hisoblanadi.

Temiryo'l orgali neft va neft mahsulotlarini tashish keng tarqalgan usul bo'lib, ayniqsa, moylar, mazutning hamma navlari, bitum, parafin kabilarni tashish uchun asosiy usul bo'lib hisoblanadi. Temiryo'l orgali neft tashish ham qimmat, juda katta va doimiy miqdorda bu usul bilan tashish maqsadga muvofiq emas. Shuni ham aytish kerakki, temiryo'l bilan neftni tashish suv yo'li bilan tashishga nisbatan bir maromda uzlusiz neft bilan ta'minlab turish imkoniyatini beradi. Respublikamizda ana shu usul bilan Qashqadaryo, Buxoro viloyatlaridan Farg'onan neftni qayta ishlash zavodiga neft tashiladi. Avtomobil bilan neft va neft mahsulotlarini tashishni odatda uncha uzoq bo'lmagan masofaga tashkil qilish mumkin. Odatda bu usul kon bilan neftni qayta ishlash zavodi orasida temiryo'l yoki quvurlar yotqizish mumkin bo'lmagan holda uyuşhtiriladi. Masalan, kon bilan zavod orasida tog'li o'lsa mayjud bo'lsa, bunday holda avtomobil bilan tashishni yo'liga qo'yish mumkin. Lekin bu usul bilan katta hajmdagi neftni tashish katta kuch va mablag'ni talab qiladi va neft mahsulotlari tannarxini sezilarli daramada oshiradi.

Neft quvurlari orgali neftni uzatish eng keng tarqalgan usul bo'lib, boshqa hamma usullardan eng arzonligi, uzlusizligi bilan ajralib turadi. Bu usul bilan katta hajmdagi neft va neft mahsulotlarini (benzin, kerosin, dizel yoqilg'isi va h.k.) yil davomida hech qanday qiyinchiliklarsiz uyuşhtirish mumkin. Bu usul bilan neft tashilganda asosiy xarajatlar neftni haydovchi nasos stansiyalari faoliyatiga va neft quvurini texnik holatini tekshirib turishga sarf bo'ladi.

Barcha usullardan quvur orgali tashish afzalliklari quyidagilardan ko'rinish turibdi:

1. Katta hajmdagi neft va neft mahsulotlarini uzlusiz holda yetkazib beriladi.
2. Bir quvurdan neft va uning mahsulotlarini yetkazib berish imkoniyati bor.
3. Quvurlarni har qanday geografik sharoitda va xohlagan masofaga qurish mumkin.
4. Bu usul bilan neft tashilganda texnologik yo'qotishlar eng kam miqdorni tashkil qiladi.
5. Bu usul eng ishonchli, ishlatalish uchun qulay va sodda, avtomatlashtirishga moyil bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Gazni uzatish faqat quvurlar orqali tashkil qilinadi. Shuni aytib o'tish kerakki, oxirgi paytda quvurlar orqali suyultirilgan gazni tashish ham samarali ekanligi tasdiqlandi.

Neft quvurlar orqali uzoqqa uzatilganida ular magistral quvurlar deb yuritiladi. Magistral neft quvurlari boshlang'ich nasos stansiyasidan (odatda kondagi yoki bir necha konlarning umumiy tayyor mahsulot omboridan) neftni qayta ishslash zavodigacha yoki temiryo'l neft quyish estakadasi omborigacha bo'lgan masofada quriladi. Bular orasidagi masofaga qarab neftni haydovchi bir yoki bir necha stansiyalar bo'lishi mumkin. Magistral neft (gaz) quvurlari katta diametrda (500–1200 mm) quvurlardan qurilib, boshlang'ich nasos stansiyasidagi haydash ishchi bosimi 5,0–6,5 MPa atrofida saqlanadi.

O'zbekistonda Farg'onan vodiysidagi konlardan Farg'onan hamda Oltiariq neftni qayta ishslash zavodlariga, Ko'kdumaloq konidan Buxoro neftni qayta ishslash zavodiga neft va kondensatni yetkazib berish quvurlar orqali tashkil qilinadi.

#### NEFT VA GAZ UZATUVCHI QUVURLARNI HISOBBLASH USULLARI

Neft uzatuvchi quvurlardagi oqim bir fazali (faqat neft), ikki fazali (neft va gaz yoki neft va suv) hamda ko'p fazali (neft, gaz va suv) bo'lishi mumkin. Har qanday fazali oqimda ikki xil ko'rinish-dagi harakat bo'lishi mumkin: laminar va turbulent oqim.

Oqimlarning qaysi xilda bo'lishi o'chov birligisiz Reypolds ko'rsatgichiga bog'liq.

$$R = (V \cdot d)/v,$$

bu yerda,  $V$  — quvurdagi suyuqlikning o'rtacha tezligi;  $d$  — quvurning ichki diametri;  $v$  — suyuqlikning kinematik qovushqoqligi.

O'tkazilgan ko'plab tajribalar shuni ko'rsatdiki,  $Re < 2320$  bo'lsa, laminar oqim, agar  $Re > 2800$  bo'lsa, turbulent oqim va  $2320 < Re < 2800$  bo'lgan taqdirda har ikki xil oqimlar orasidagi o'tish holatdagi oqim mayjud ekan. Quvurlardan suyuqlik harakat qilganda quvurning uzunligi bo'yicha suyuqlik haydalayotgan bosimning sekinasta pasayib borishi kuzatiladi. Bunday holat asosan suyuqlik harakati vaqtida quvur ichidagi g'adir-budirliklarda ishqalanishga sarf bo'ladigan qarshiliklar natijasida hosil bo'ladi. Shuningdek, bosimning

pasayishi quvur diametriga, haydalayotgan suyuqliklarni fizikaviy xüsusiylarları va miqdoriga, quvurni ichki devorlari holatiga, quvurni boshlang'ich va oxirgi nuqtalarini bir-biridan qanchaga farq (balandligi bo'yicha) qilishiga bog'liq. Haydalayotgan bosimning yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarga bog'liqligi quvur tavsifi deb yuritildi.

Odatda quvurlarni gidravlik hisoblashlar quvur diametrini, boshlang'ich haydash bosimini yoki suyuqlik o'tkazuvchanlik qobiyliyatini hisoblashlardan iborat bo'ladi.

Bu hisoblashlarni bajarish umumiy gidravlikaning asosiy qonuni — Bernulli tenglamasi asosida olib boriladi. Ya'ni:

$$(Z_1 + P_1/\rho g + V_1^2/2g) - (Z_2 + R_2/\rho g + V_2^2/2g) = h_{sq} + h_{mq}$$

Bu yerda,  $Z_1, Z_2$  — quvurning boshlang'ich va oxirgi nuqtalarining tik bo'yicha joylashish holati;  $R_1, R_2$  — quvurning boshlang'ich va oxirgi nuqtalardagi bosim;  $V_1, V_2$  — quvurning boshlang'ich va oxirgi nuqtalardagi suyuqlikning tezligi;  $\rho$  — suyuqlik zichligi;  $g$  — erkin tushish tezlanishi;  $h_{sq}$  — quvurdagi sirpanish qarshiliklari;  $h_{mq}$  — mahalliy qarshiliklari.

Bernulli tenglamasidagi qavs ichidagi yig'indilarning har biri ma'lum bir fizik kattaliklarni bildiradi.

Birinchi yig'indi ( $Z$ ) geometrik tazyiqni, ikkinchi yig'indi ( $R/\rho g$ ) pyezometrik tazyiqni va uchinchi yig'indi ( $V^2/2g$ ) tezlik tazyiqini bildiradi.

Bu tazyiqlar sirpanish va mahalliy qarshiliklarni yengib o'tishga sarf bo'ladi.

Sirpanish qarshiliklarni hisoblash uchun Darsi-Veysbak tenglamasidan foydalilanadi. Ya'ni

$$h_{sq} = \lambda \cdot 1/d \cdot V^2/2g \text{ yoki } h_{sq} = \lambda \cdot 1/d \cdot \rho g V^2/2,$$

bu yerda,  $\lambda$  — Reynolds ko'rsatkichiga bog'liq bo'lgan gidravlik qarshilik koeffitsiyenti;  $1$  — quvur uzunligi;  $d$  — quvurning ichki diametri.

Tenglamadagi gidravlik qarshilik koeffitsiyenti ( $\lambda$ ) laminar oqim uchun

$$\lambda = 64/Re = 64\nu/V \cdot d,$$

turbulent oqim uchun:

$$\lambda = 0,3164/Re^{0,25}$$

ko'rinishdagi tenglamalar orqali aniqlanadi. Bu yerda,  $v$  — suyuqlikning kinematik qovushqoqligi.

Gidravlik nishablik ( $i$ ) sirpanishga sarf bo'ladiq tazyiqni quvur uzunligiga bo'lgan nisbatini bildiradi:

$$i = h_{sq}/1 = \lambda/d \cdot V^2/2g,$$

Agar (6) — tenglamaga 1 ni (4) va (5) tenglamalardagi qiymatni qo'yib, soddalashsak, laminar va turbulent oqimlar uchun gidravlik nishab aniqlanadi:

a) laminar oqim uchun  $i = a \cdot vQ/d^4$ ,

b) turbulent oqim uchun  $i = v \cdot v^{0,25} \cdot Q^{1,75}/d^{4,75}$ .

Mahalliy qarshiliklarni hisoblashda quvurlarda o'rnatilgan surilmalar, teskarli to'sqichlar, burilishlar kabi qismlarni nazarda tutish kerak bo'ladi, chunki aynan ana shunday qismlarda mahalliy qarshiliklar hosil bo'ladi.

Mahalliy qarshiliklar:

$$h_{mq} = s \cdot V^2/2g \text{ yoki } h_{mq} = \lambda \cdot 1_M/d \cdot V^2/2g$$

tenglamalari orqali aniqlanadi.

Bu yerda,  $s$  — mahalliy qarshiliklarni hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $1_M$  — quvurda mahalliy qarshiliklar hosil bo'lgan bo'lagi uzunligi.

#### SUYUQLIK UZATUVCHI MAGISTRAL QUVURLARDAGI NASOS STANSIYALARI

Quvurlardan suyuqlikni haydovchi nasos stansiyalari eng mu'rakkab inshootlar turiga kiradi. Nasos stansiya tarkibiga nasolar, saqlagich ombori, mehanik ustaxonasi, elektr energiya podstansiyasi, qozonxona, suv ta'minoti tizimi, kanalizatsiya tizimi, har xil turdag'i binolar kiradi.

Neft va neft mahsulotlarini quvurlardan haydash uchun porshenli va markazdan qochma nasolar ishlatalidi.

Porshenli nasolar yuqori foydali ish koeffitsiyentiga ega bo'lib, u yuqori qovushqoqlik suyuqliklarni haydaganda ham o'zgarmaydi. Bunday nasoslardagi hosil bo'ladiq tazyiq sarfga bog'liq emas. Shu bilan birga porshenli nasoslarning bir necha kamchiliklari ham

mavjud. Bulardan asosiyalar — yuqori bosimli, katta sarfga ega nasoslarning gabarit o'lchamlari juda katta, buning natijasida nasosning massasi ham keskin oshib ketadi. Bunday katta gabaritdag'i va o'ta og'ir nasoslar uchun quriladigan nasos stansiyasi binosi ham juda katta bo'lishi kerak. Shuningdek, porshenli nasoslarda haydalayotgan suyuqlik oqimi bir maromda bo'lmaydi, agar suyuqliklarda mexanik moddalar bo'lsa, nasosni ishdan chiqishiga olib keladi.

Markazdan qochma nasoslar porshenli nasoslarga nisbatan bir qancha afzalliliklarga ega. Nisbatan kichik qobiqa katta tazyiq va sarflı nasoslar yaratish, yo'naltiruvchi quvur yopiqligida ham ishga tushirib yuborish mumkin, nasos o'qini to'g'ridan-to'g'ri elektro-yuritkich o'qiga ulash mumkin, ya'ni qo'shimcha uzatgichlarning hojati yo'q. Yo'naltirilayotgan suyuqlik miqdorini sekin-asta o'zgartirib borish mumkinligi, gabaritlari uncha katta bo'lmaganligi hamda suyuqlik tarkibida mexanik moddalar bo'lsa-da, haydash mumkinligi markazdan qochma nasoslarni keng qo'llanilishiga sabab bo'lmoqda.

Magistral neft quvurlaridagi nasos stansiyalari juda katta va murakkab inshoot bo'lganligi tufayli bunday stansiyalarni bo'shqarish, xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha ustaxona, omborxona, suv, kanalizatsiya ta'minoti tizimlari ham qurilishi kerak bo'ladi.

Asosiy inshootlardan hisoblangan odatda bir necha (4—6 ta) 5000—10000 m<sup>3</sup> li saqlagichlardan iborat. Shuningdek, nasos stansiyalar yong'indan saqlanish uchun maxsus ochiq hovuzlar va boshqa kerakli asbob-uskunalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

#### TABIY GAZ UZATUVCHI MAGISTRAL QUVURLARDAGI KOMPRESSOR STANSIYALARI

Neft va gaz sanoatida kompressorlar juda keng qo'llaniladi. Masalan, gaz sanoatida magistral gaz quvurlarida, konlarda quduqlardan chiqayotgan gazni yig'ish, yer osti gaz omborlariga gaz haydash, uzoq masofaga uzatuvchi quvurlarni sinash uchun va boshqa maqsadlarda ishlatsila, neft sanoatida qatlamga gaz haydash, quduqlarni gaz ko'tarkich usuli bilan ishlatsish, quduqlarni ishga tushirish uchun ishlataladi.

Kompressorni xalq xo'jaligidagi juda keng ishlatalishiga ko'ra, porshenli va markazdan qochma kompressorlar tuzilishiga, ishlash tarziga, quvvatiga va boshqa omillariga qarab bir qancha turlari mavjud.

Gazomotokompressorlar, gaz haydagichlar, ventilatorlar, rotatsion va vintli kompressorlar ham mavjud bo'lib, ular gaz haydashning har xil sharoitlarida ishlataladi. Shuningdek, kompressorlarning ko'chma (ya'ni katta yuk avtomobilgara o'rnatilgani) va muhim (ya'ni bir yerga o'rnatilgan) holda ishlataladigan turlari ham mavjud.

Kompressor stansiyalari qanday maqsadlarda qurilishidan qat'iy nazar quydagi inshootlardan tashkil topgan bo'ladi:

1) mashina zali, bu yerda kompressorlar maxsus poydevorlarga o'rnatilgan, kerakli o'chov asboblari, ko'tarish kranlari va boshqa qo'shimcha mexanizmlar bilan butlangan;

2) sovutish uchun suv haydaydigan nasos stansiyasi;

3) issiq suvni sovutadigan qurilma (gradirnya), issiq suv to'planiши uchun maxsus saqlagich va sovuq suv yig'ib qo'yiladigan hovuz;

4) gaztozalagich, moyajratkich va boshqa maxsus asbob-uskunalar o'rnatilgan alohida maydoncha;

5) elektrtransformator va elektrtaqsimlagich o'rnatilgan maxsus maydoncha;

6) mexanik ustaxona, omborxona, ishchi-xodimlar uchun dam olish, kiyinish va yuvinish xonalari kabi qo'shmcha binolar.

Tabiiy gaz uzatuvchi magistral quvurlarida maxsus hisoblashlar orqali gaz haydovchi kompressor stansiyalarining soni va joylashish nuqtalari aniqlanadi. Kompressor stansiyalarni qurishdan asosiy maqsad tabiiy gazni uzoqqa uzatish bo'lib, ular qurilishi bo'yicha murakkab inshoot hisoblaniadi. Odatda kompressor stansiyalari orasidagi masofa loyiha ishlari bo'yicha aniqlanadi, lekin gaz magistral quvuri o'tkaziladigan geografik sharoitlari, haydalayotgan gazning quvur boshlanishi va oxiridagi bosimi, elektr va suv ta'minoti kabi omillarni hisobga olgan holda har 100—150 km da qurilishi mumkin. Kompressorlar ham xuddi nasoslar kabi porshenli va markazdan qochma turda ishlab chiqarilmoqda.

Porshenli kompressorlar markazdan qochma kompressorga nisbatan yuqori foydali ish koefitsiyentiga ega, juda katta bosimlarga cha (100 MPa dan yuqori) siqib, ta'mirlash ishlari orasi uzoq bo'lishi,

atrof-muhit sharoiti o'zgarishi (harorat, bosim), kompressor quvvatiga ta'sir ko'rsatmasligi va boshqa shu kabi omillar bo'yicha afzalliklarga ega.

Markazdan qochma kompressor konstruktiv tuzilishi bo'yicha turli ko'rinishlarga ega. Bunday kompressorlarda haydalishi kerak bo'lgan gazning kinetik energiyasi potensial energiyaga aylantirilib, yuqori bosim hosil qilinadi.

Hisoblash yo'li bilan fazaviy muvozanat o'zgarmas koefitsiyentini aniqlash uchun real gazlarning holat tenglamalaridan foydalanib, gazlar tarkibidagi har bir komponentning suyuq va gaz fazadagi uchuvchanlik koefitsiyenti bilan aktivlik koefitsiyenti aniqlanadi.

Uchuvchanlik koefitsiyenti birinchi marta fanga Lyuis tomonidan kiritilgan.

Bu koefitsiyentlar quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{\nu} = \frac{f_{\nu}}{Y_{\nu}}; \quad K_{\alpha} = \frac{f_{\alpha}}{X_{\nu}}; \quad (75)$$

Bu yerda,  $f_{\nu}$  va  $f_{\alpha}$  — mos rayishda komponentlarning suyuq va bug' holatdagi uchuvchanlik xususiyatini xarakterlovchi kattaliklar;  $P$  — shu sharoitdagi bosim.

Uchuvchanlik va aktivlik koefitsiyentlari fazaviy muvozanating miqdorini aniqlash uchun kerak bo'lganidan, bu koefitsiyentlarni aniqlashning o'zi murakkab tajribalar bilan bog'liq.

Fazaviy muvozanatning doimiy miqdorini aniqlash va bu jarayonlar qanday o'tishi haqida batafsil ma'lumotlar «Termodinamika», «Gaz konlарини ishlash nazariyasi» fanlarida berilgan.

### NEFT VA GAZNI TOZALASH, ISHLASH JARAYONLARINING JIHOZLARINI SINFLASH VA HISOBBLASH USULLARI

#### JIHOZLARNI SINFLASH

Neft va gazni qayta ishlash korxonalarining barcha jarayonlari, ularni birlashtiradigan asosiy qonunlariga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Gidromekanik jarayonlar (gaz va suyuqliklarni boshqa jihozlarga o'tkazish, bir xil tarkibli bo'limgan suyuq va gaz sistemalarini ajratish, suyuqliklarni ajratish).

2. Massa almashish jarayonlari (massa almashuv qonuniga binoan birga haydash, rektifikatsiya, absorbsiya, adsorbsiya, ekstraksiya, kristallizasiya va quritish).

3. Issiqlik jarayonlari (issiqlik berish qonunlariga muvofiq isitish, sovitish, kondensatsiya va bug'latish).

4. Mexanik jarayonlar (maydalash, tushirish va yuklash, sinflash va qattiq moddalarini aralashdirish).

5. Kimyoviy jarayonlar (kimyoviy kinetika qonunlariga birlashdirilgan har xil kimyoviy reaksiyalar).

Barcha sanab o'tilgan jarayonlar, shu jarayonlarning aniq sharoitlarini hisobga olgan holda aniqlangan konstruksiyalı jihoz va mashinalarda bajariladi.

Bir turda fizik, fizik-kimyoviy va kimyoviy jarayonlar umumiyyonuniyatlari bilan tavsiflanadi va turli ishlash chiqarishlarda bir xil prinsipda ishlovchi jihoz va mashinalarda olib boriladi.

Texnologik jihozlar, ularda boradigan jarayonlarga qarab sinflash, ularni o'rganibgina qolmay, balki har bir mashina va jihozni kompleks texnologik va mexanik hisoblash uchun kerakdir.

1. Gidromekanik jarayonlarni bajarish, nasoslar bilan (suyuqliklarni uzatish), kompressor mashinalar bilan suyuqliklarni uzatishda va gazlarni siqishda, tindirgichlar yordamida (qattiq jismlarni og'irligi ta'sirida va suyuq fazada tarqalgan suv tomchilarini cho'ktirish bilan), filtrlar bilan (mayda zarrachalardan tashkil topgan suspenziyalarni ajratishda), sentrifugalar bilan (markazdan qochma kuch ta'sirida emulsiya va suspenziyalarni ajratishda), aralashdirgichlar bilan (bir xil tarkibli eritmalar, emulsiyali suspenziyalar, issiqlik va diffuzion jarayonlarni tezlatish uchun) va boshqa mashina va jihozlar yordamida olib boriladi.

2. Issiqlik jarayonlarini amalgaloshirish uchun quvurli pechlar, olovli isitgichlar qo'llaniladi. Ularda yoqilayotgan yoqilg'i issiqligi xomashyoga beriladi. Neftni qayta ishlash korxonalarining issiqlik almashuvchi jihozlarida issiqlik regeneratsiya qilinadi yoki bug'lar kondensirlanadi va shu qurilmalardan chiqayotgan distillyatlar sovutiladi.

3. Massa almashinuvchi jihozlar sifatida asosan kolonna turdag'i jihozlar ishlataladi; bularga rektifikatsiya kolonnalari, absorberlar, adsorberlar, desorberlar va ekstraktorlar kiradi.

4. Mexanik jarayonlar maydalovchi jihozlarda, tegirmonlarda, klassifikatorlarda va qattiq materiallarni dozatorlarida amalgaloshiriladi.

5. Kimyoviy jarayonlar har xil konstruktiv tuzilishga ega bo'lgan reaktorlarda olib boriladi.

Asosiy texnologik jarayonni tashkil qilish usuliga qarab jihozlar to'xtab (uzlukli) va (to'xtovsiz) uzlusiz ishlaydigan jihozlarga bo'linadi.

To'xtab (uzlukli) ishlaydigan jihozlarga ma'lum vaqt oralig'iда avval xomashyo va boshlang'ich materiallar solinadi (katalizator) va jarayon to'xtagandan so'ng hosil bo'lgan mahsulot tushirib olinadi.

Bunday sifl texnologik jarayonni olib borish vaqtining boshidan oxirigacha qaytariladi (takrorlanadi).

To'xtovsiz ishlaydigan jihozlarni alohida ko'rsatkichi, bu xomashyo, boshlang'ich materiallar va tayyor mahsulot to'xtovsiz berib olinib turiladi, siki bo'lmaydi, jarayon uzlusiz davom etadi.

#### JIHOZLARNI HISOBBLASH TARTIBI VA USULLARI

Har bir jihozni tayyorlashdan oldin uni loyihasi tuziladi. Jihoz ahamiyatiga qarab, o'rganilganligiga, o'xshash (tipovoy) loyihiilar ning boriliga qarab yoki sinab ko'rilganligiga qarab, bir yoki ikki bosqichda loyihalanadi. Ko'pgina hollarda jihozlar bir bosqichda loyihalanadi, bunda loyihalovchi tashkilot buyurtmachiga texnologik ishchi loyihi beradi. Bu loyihiada hamma (shu jihozni yasashga) kerakli hujjatlar (chizmalar, smetalar) bo'ladi. Aniqlangan va tasdiqlangan texnologik loyiha asosida ishchi chizma (eskiz) tayyorlanadi.

Loyihalash uchun asosiy ko'rsatkichlar: jihozni mahsuldorligi, ishlash rejimi (tartibi), sarflash me'yoriy ishlash sharoiti, xomashyon va tayyor mahsulotni korroziyanish qobiliyati va zaharlilik darajasi. Shuningdek, shu jarayonni olib borishdagи texnika xavfsizligi hisoblanadi (keltiriladi).

#### JIHOZLARNI SINFLASH VA HISOBBLASH USULLARI

Neftni qayta ishlash korxonalarida olib boriladigan jarayonlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- gidromexanik jarayonlar (suyuqlik va gazlarni aralashtirish, arjatish va suyuqliklarni aralashtirish);
- massa almashuv jarayonlari (massa almashuv qonunlari bilan bog'langan jarayonlar: haydash, rektifikatsiya, absorbsiya, ekstraksiya, kristallizatsiya va quritish);

— issiqlik jarayonlari (isitish, sovutish va kondensatsiya, bug'latish);

- mexanik jarayonlar (maydalash, tashish va yuklash-tushirish, qattiq muddalarni aralashtirish va klassifikatsiyalash — saralash);
- kimyoviy jarayonlarda har xil kimyoviy reaksiyalarning borishi.

Yuqorida keltirilgan jarayonlar ma'lum jihoz va mashinalarda olib boriladi. Jihozlarni konstruksiyalari maqsadga muvofiq usulda va shu jarayonlarni aniq (konkret) borish shartlari bilan mutanosib bo'lishi kerak.

Bir turdagи fizik, fizik-kimyoviy va kimyoviy jarayonlar umumiy qonuniyatlarga bo'yusunishi bilan xarakterlanadi va har xil ishlab chiqarish korxonalarida bir xil prinsipda ishlovchi mashina va jihozlarda olib boriladi.

Texnologik jarayonlarni ularda olib boriladigan jarayonlar bo'yicha sinflash, ularni o'rganish bilan birga har bir jihozni kompleks texnologik va mexanik hisoblash uchun kerak bo'ladi.

1. Gidromexanik jarayonlar nasoslar, sentrofuga, aralashtirich, kompressorlar, tindirgichlar; filtrlar yordamida olib boriladi.

2. Issiqlik jarayonlarini olib borish uchun quvurli pechlar, olovli isitgichlar, issiqlik almashtirgichlar, kondensatorlar kerak.

3. Massa almasniy jarayonlarda asosan kolonna turidagi jihozlarda: rektifikatsiya kolonnalarida, absorber, adsorber, desorber, ekstraktorda olib boriladi.

4. Mexanik jarayonlar maydalagichlarda, tegironlarda, qattiq muddalarni elakkarda saralash (klassifikatorlarda) va dozatorlarda olib boriladi.

5. Kimyoviy jarayonlar konstruksiyalari har xil bo'lgan reaksiyon jihozlarda — reaktorlarda olib boriladi. Texnologik jarayonni tashkil qilish usuliga qarab jihozlar to'xtab va to'xtovsiz ishlaydigan bo'ladi.

To'xtab ishlaydigan jihoz ma'lum vaqt ishlagandan keyin mahsulot tushirib olinadi va yangi miqdor xomashyo bilan to'ldiriladi va bu jarayon texnologik jarayon tugaguncha davom etaveradi (qaytarilaveradi).

To'xtovsiz ishlaydigan jihozlarning farqi shuki, bu jihozlarga xomashyo to'xtovsiz kelib tushadi va hosil bo'lgan mahsulot chiqarib olinadi. Bu ikki jarayon bir vaqtida uzlusiz bajariladi.

**Jihozlarni hisoblash usullari va navbatlari (ketma-ketligi).** Har bir jihozni (yoki mashinani) tayyorlash, ularni avval loyihalash-

LAR

Маты химической

работающих заводах. Учеб-

рования аппарата

техниздат», 1968.

ленных зданий и ма-

школа», 1968.

аппараты хи

и соору-

жествия и

Основные пра-

М. ОАО «Н

«G. Kimyoyi

цессы фи-

дра», 1998.

ish. T.: «FA

mashulotlari

, 2004.

la (hi is hlati

yig'ish va

ta/mirlash

. T.: «ILM-

iz. ionlari n

: «Adolat»,

02

g mashina

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
Neft va gazning xalq xo'jaligida tutgan o'rni .....	4
Neft va tabiiy gazning paydo bo'lishi.....	5
Neft va gaz hosil-bo'lisingin mikstgenetik yo'naliши .....	13
Gaz, kondensat, neft va qatlam suvlarining fizik-kimyoviy xossalari .....	19
Karbonsovchillarning qatlama to'planishiga qarab neft va gaz konlarining turlari .....	19
Tabiiy gaz va gazzondensat konlaridagi gazlarning tarkibi.	
Tabiiy gazlar tasnifi .....	21
Tabiiy gazlarning asosiy fizik xossalari .....	24
Gaz va gaz aralashmalarining zichligi va molekular massasi .....	26
Gazlarning holat tenglamalari .....	27
Tabiiy gazlarning kritik va keltirilgan parametrleri .....	29
Gazlarning qovushqoqligi va uni aniqlash usullari.....	33
Gazlarning namlik miqdori .....	37
Tabiiy gazlarning issiqlik xossalari .....	39
To'yingan bug'ning tarangligi .....	43
Kristallogidratlar va ularning hosil bo'lish sharoitlari .....	45
Gaz-gidrat konlar xarakteristikasi .....	47
Kondensatlarning fizik xossalari va tarkibi .....	48
Kondensatlarni tadqiq qilish natijaları .....	51
Neft tarkibi va tasnifi .....	51
Neftning asosiy fizik xossalari .....	54
Gazlarning neft va suvda erishi .....	57
Neft xossalaring to'plam ichida o'zgarishi .....	59
Neft xossalari o'rganishda fotokalorimetriya usuli .....	60
Neftning reologik xususiyatlari .....	62
Neft va gazning fizik xossalarni o'rganish uchun ishlataladigan apparatlar ....	65
Karbonsovchil sistemalarining fazoviy holatlari .....	68
Bir komponentli karbonsuvchillarning fazaviy o'zgarishi .....	68
Ikki va ko'p komponentli karbonsuvchillarning fazaviy o'zgarishlari .....	72

102

Ko'p komponentli karbonsuvchillar aralashmalarining kritik holtdagi xususiyatlari .....	74
Gaz namligining karbonsuvchillarni fazaviy o'zgarishlariga bo'lgan ta'siri .....	76
Gazkondensat konlarining xarakteristikasi .....	78
Fazaviy muvozanatning doimiy miqdori va uni aniqlash usullari .....	81
Neft va gazni yig'ish, saqlash, tayyorlash va uzatish .....	81
Konlarda ishlataladigan quvurlar tasnifi .....	82
Konlarda neft, gaz va kondensatni yig'ish va tayyorlash .....	86
Neft va gazni tayyorlash asbob-uskunralari .....	89
Neft va gazni uzatish usullari .....	91
Neft va gaz uzatuvchi quvurlarni hisoblash usulla ri .....	93
Suyuqlik uzatuvchi magistral quvurlardagi nasos stansiyalari .....	94
Tabiiy gaz uzatuvchi magistral quvurlardagi kompressor stansiyalari .....	94
Neft va gazni tozalash, ishish jarayonlarining jihozlarini sinflash va hisoblash usullari .....	96
Jihozlarni sinflash .....	98
Jihozlarni hisoblash tartibi va usullari .....	98
Jihozlarni sinflash va hisoblash usullari .....	101
Foydalanilgan adabiyotlar .....	

## TABIIY GAZ UZATUVCHI MAGISTRAL QUVURLARI

Jihozlarni sinflash

Jihozlarni hisoblash tartibi va usullari

Jihozlarni sinflash va hisoblash usullari

Foydalanilgan adabiyotlar

103

40000 ₸

tgstat. Aman qurashuvchilari uchun surʼati 10000 ₸

hit ur negʼod qaydida keng oʼshtasiz mazulmoxsiz qurashuvchi

lazimligi boʻlganligi haqida qaydida mazulmoxsiz

hajdut qaydida haqida qaydida mazulmoxsiz

Baxshillo Shafiyevich Akramov,  
Odiljon Gʼafurovich Hayitov

**NEFT VA GAZNI TOZALASH  
ASBOB-USKUNALARI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun oʼquv qo’llanma*

Toshkent — «Talqin» — 2007.

Muharrir I. Zoyirov

Badiiy muharrir J. Gurova

Texnik muharrir A. Salihov

Musahih G. Azizova

Kompyuterda tayyorlovchi A. Yuldasheva

Bosishga 14.06.07 da ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 90^{\frac{1}{16}}$ .

«Tayms» garniturasiда ofset bosma usulida bosildi. Sharlti b.t. 6,5.

Nashr.t. 6,5. Adadi 875. Shartnoma № 6/07.

«Talqin» nashriyoti, 100129, Toshkent, Navoiy, 30.

«Arnaprint» MChJ da sahifalaniň, chop etildi.

Toshkent, H. Boyqaro ko’chasi, 41. 133-raqamli buyurtma.